



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA
MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI
TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI
PEDAGOGIKA FAKULTETI
MAKTABGACHA TA‘LIM METODIKASI KAFEDRASI**



**“ MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNI
OG‘ZAKI NUTQINI RIVOJLANTIRISHDA HARAKATLI
O‘YINLARNING AHAMIYATI”
mavzusidagi**

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

BAJARDI: Maktabgacha ta‘lim
yo‘nalishi bitiruvchi 4 - kurs talabasi
Devonova.N _____

ILMIY RAHBAR:

Kat . o‘q Yuldosheva F.M. _____

Termiz – 2017

M U N D A R I J A

Kirish.....	
I.BOB. MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA NUTQ RIVOJLANISHINING O‘ZIGA XOS JIHATLARI.	
2.1 Maktabgacha yoshdagi bolalarda nutqning rivojlanishi.....	
2.2 Maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo‘yiladigan davlat talablarida nutq o‘stirish mazmuni.....	
I. bob bo‘yicha xulosa.....	
II.BOB: MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALAR NUTQINING RIVOJLANISHIDA O‘YINLARNING AHAMIYATI	
2.1 Maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishida o‘yinlarning o‘rni.....	
2.2 Maktabgacha yoshdagi bolalarni og‘zaki nutqini rivojlantirishda harakatli o‘yinlardan foydalanish	
II. bob bo‘yicha xulosa.....	
III.bob : MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNI OG‘ZAKI NUTQINI RIVOJLANTIRISHDA HARAKATLI O‘YINLARDAN FOYDALANISHNING AMALIY SHART-SHAROITLARI	
3.1 Maktabgacha yoshdagi bolalarni og‘zaki nutqini rivojlantirishda harakatli o‘yinlardan foydalanishga qaratilgan tajriba-sinov ishlari	
3.2.Tajriba -sinov ishlari natijalari	
Uchinchi bob bo‘yicha xulosa.....	
Umumiy xulosa va tavsiyalar.....	
Foydalanilgan adabiyotlar.....	
Ilovalar.....	

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi.Jamiyatimizning buguni,ertasi va kelajagi ko'p jihatdan yoshlarimiz tarbiyasiga bog'liq.SHu bois Prezidentimiz Islom Karimovning«Biz mamlakatimizning istiqboli yosh avlodimiz qanday tarbiya topishiga,qanday ma'naviy fazilatlar egasi bo'lib voyaga etishiga,farzandlarimizning hayotga nechog'li faol munosabatda bo'lishiga,qanday oliy maqsadlarga xizmat qilishga bog'liq ekanini hamisha yodda tutishimiz kerak», deb ta'kidlashi bejiz emas. SHuning uchun ham yoshlarni milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalash,ularning faolligini oshirib,dunyoqarashini shakllantirishda asosiy omillardan biri bo'lib hisoblanadi.

Jamiyatning ma'naviy takomili unda amalga oshiriladigan ta'lim - tarbiya ishlarining mazmuni, shakl va mohiyatiga bog'likdir. SHu boisdan ham ta'limdagi yangilanishni, respublikamizda amalga oshirilayotgan boskichma - boskich ta'lim tizimini pedagogik talkin kilish,bu jarayonni samaradorli kechishini ta'minlash zaruriyati yuzaga keladi.Ma'lumki,bolalarning asosiy vakti uyin bilan utadi.O'yin - maktabgacha yoshdagi bolalarni har tomonlama rivojlanishining muhim vositasi, ularning asosiy faoliyati bulib hisoblanadi. O'yin jarayonida bola shaxsi faoliyat sub'ekti sifatida shakllana boshlaydi. O'yin uzok davrlardan beri mashhur olimlar, pedagog-psixologlar, faylasuflar, sotsiologlar, etnograflar va madaniyat arboblari diqqatini uziga karatib kelgan

Haqiqatdan ham o'yin har bir yosh boshichda bolaning tevarak atrofdagi hayotni va kishilar o'rtasidagi turli munosabatlarni har tomonlama bilib olishga qaratilgan faoliyatidir. Maktabgacha yoshdagi bolaning o'yin faoliyati mazmun jihatdan har kungi vaziyatga qarab o'zgarib turadi. O'yin doimo o'zgarib turganligi tufayli bola o'ynab charchamaydi, zerikmaydi. Bolaning atrof muhitga kishilarga, narsalarga va o'ziga bo'lgan turli munosabatlari mazmun hamda shakl jihatdan har doim o'zgarib turadigan o'yin jarayonida namoyon bo'ladi. Bolalarning turli ehtiyojlari, istak va qiziqishlari,

qobiliyatlari hamda bir qancha shaxsiy fazilatlari o‘yin jarayonida bevosita rivojlanadi.

O‘yin jarayonidagi bolalar faol faoliyatining psixik taraqqiyot uchun ahamiyati shundaki, bolalarning turli sifat va fazilatlari o‘yin jarayonida faqat namoyon bo‘libgina qolmasdan, bunda sifat va fazilatlar mustahkamlanadi, o‘zlashtiriladi. SHuning uchun psixologiya nuqtai nazardan oqilona ya’ni to‘g‘ri tashkil qilingan o‘yin bola shaxsini har tomonlama o‘stiradi va shuning bilan birga bolaning butun psixik jarayonlarida –sezish, idrok, diqqat, xotira, tafakkur, xayol va irodani ildam rivojlanishiga yordam beradi.

O‘yin o‘z mohiyati jihatidan katta kishilarning hatti –harakatlari va xulq-atvorlariga faol taqlid qilishdan iborat bo‘lishi tufayli bolalarda ma’naviy sifatlarning mustahkamlanishi uchun va odob – axloq qoidalarini bilib olishlari uchun keng imkoniyatlar beradi. Maktabgacha yoshdagi bola o‘yin jarayonida tabiblik yoki muallimlik rolini bajarayotgan bo‘lsa, shu kasbga tegishli barcha sifatlarni namoyon qilishga intiladi. Ular o‘yinga juda berilib ketsalar, bajarayotgan rollariga xos sifatlarni shunchalik samimiy, ijodiy tarzda namoyon bo‘ladi. Bolalar uchun o‘yin mazmunining hech bir chegarasi yo‘q.

Maktabgacha yoshdagi bolalar kattalar hayotini hamma tomonlarini o‘z o‘yinlarida aks ettira oladilar. O‘yinning ahamiyati bola shaxsining o‘z kamolotga etishiga ta’sir ko‘rsatishdan iboratdir. O‘yin har bir yosh boshichda bolaning tevarak atrofdagi dunyoni va kishilar o‘rtasidagi munosabatlarni bilib olishni ifodalaydi. Bolaning moddiy dunyoga, kishilarga o‘z-o‘ziga munosabati o‘zgarayotgan o‘yinda namoyon bo‘ladi. Bolalarning ehtiyojlari, istak, qiziqish (xavas) lari bevosita o‘yinda ifodalanadi. O‘yin bolalarning xayolparastligi tufaydi narsalar va kishilar dunyosini ular uchun ma’qul tomonga “o‘zgartirish” imkoniyatini beradigan faoliyatdir.

Maktabgacha yosh davrida bolalar nutqining rivojlanishi va uning o‘sishi jadal kechadi. Agar 2 yashar bolaning so‘z zapasi taxminan 250 tadan 400 tagacha bo‘lsa, 3 yashar bolaning so‘z zapasi 1000 tadan 1200 tagacha va 7 yashar bolaning so‘z zapasi 4000 taga etadi. Demak, Maktabgacha yoshi davrida

bolaning nutqi ham miqdor, ham sifat jihatidan ancha takomillashadi. Maktabgacha yoshidagi bolalar nutqini o'sishi oilaning madaniy saviyasiga bog'liq. Kattalar bolalar nutqini o'stirish bilan shug'ullanar ekanlar, Maktabgacha yoshidagi bolalar bahzi xollarda o'z nutq sifatlarini to'la idrok eta olmasliklarini unutmasliklari kerak. Bundan tashqari, bolalarda murakkab nutq tovushlarini bir-biridan farq qilish qobiliyati ham xali to'la takomillashmagan bo'ladi. Tili chuchuklikni tuzatishning eng birinchi shartlaridan biri bola bilan tula va to'g'ri talaffuz etib, ravon til bilan gaplashishdir. Bu esa mavzuning dolzarbligi ko'rsatib turibti.

Bitiruv malakaviy ishining maqsadi: Maktabgacha yoshdagi bolalar og'zaki nutqini rivojlantirishda harakatli o'yinlarning ahamiyatini o'rganish.

Bitiruv malakaviy ishi vazifalari: Mavzuga oid falsafiy, pedagogik va metodik manbalarni o'rganish, tahlil qilish, umumlashtirish asosida maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini o'stirishda oila bilan hamkorlik ishlarini yanada takomillashtirish yo'llarini ko'rsatib berish..

- Maktabgacha yoshdagi bolalar og'zaki nutqini rivojlantirishda harakatli o'yinlarning ahamiyatini o'rganish
- Ilmiy adabiyotlardagi ma'lumotlar asosida nazariy qismni itayyorlash.
- Tajribani olib boorish.
- Tajriba natijalarini tahlil qilish.
- Tegishli xulosa va tavsiyalar ishlab chiqish.

Bitiruv malakaviy ishi ob'ekti: Termiz shahar 25-maktabgacha ta'lim muassasasi mashg'ulotlarda bolalarning og'zaki nutqini rivojlantirishda harakatli o'yinlarning qo'llanilishi jarayoni.

Bitiruv malakaviy ishi predmeti: Maktabgacha yoshdagi bolalar og'zaki nutqini rivojlantirishda harakatli o'yinlarning ahamiyatini o'rganish

Bitiruv malakaviy ishi metodlari: Malakaviy ishimizni tayyorlashda quyidagi metodlardan foydalandik.

- mavzuga oid ilmiy-nazariy adabiyotlar;
- nazariy- pedagogik tahlil;

- pedagogik kuzatish;
- suhbat;
- pedagogik tajriba;

Bitiruv malakaviy ishining metadologik asoslari:

"Kadrlar tayorlash milliy dasturi", "Ta'lim to'g'risidagi qonun", "O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi", "Bolajon" dasturi, "Maktabgacha yoshdagi bolalarga qo'yiladigan davlat talablari", ilmiy - pedagogik, ijtimoiy - psixologik, tarixiy - falsafiy manbalar.

Bitiruv malakaviy ishining tuzilishi : Bitiruv malakaviy ishi kirish, asosiy qism boblari, uch bob, olti paragraf, xulosa va tavsiyalar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat . Bitiruv malakaviy ishi kompyuter variantda betdan iborat.

I.BOB. MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA NUTQ RIVOJLANISHINING O‘ZIGA XOS JIHLTLARI

1.1 MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA NUTQNING RIVOJLANISHI

Bola nutqni egalagan holda tug‘ilmaydi. Bola nutqining taraqqiyoti uning atrofidagi katta odamlar tilining ta’siri ostida rivojlanib boradi. Bolaning atrofidagi katta odamlar onasi, otasi, akasi, ukasi kabi qaysi tilda gaplashsalar, bola ham shu tilni o‘rganadi. Nutqni egallashdek juda ham qiyin protsessni bola qisqa muddat davomida uddasidan chiqib boshlaydi. Yangi tug‘ilgan bolada nutq bo‘lmasada ularda qandaydir ovoz chiqarish, ya’ni yig‘lash xususiyati bo‘lib, bu xususiyat tashqi va ichki muxitdan keladigan signallarga ochlik, tashnalik bog‘liq bo‘ladi. qattiq tovushlar ham bolani cho‘chitib yuboradi. Bola 2 – 3 xaftalik bo‘lgach, unda tovushlarga nisbatan elementar tarzda bo‘lsa ham reaksiya yuzaga kela boshlaydi. Unday keyingi davrda esa, ya’ni bola 2 – 3 oylik bo‘lgach tovush bilan tovush chiqarayotgan manba o‘rtasida assotsiatsiya maydonga keladi. Bunda bola tovush eshitilayotgan tomonga qarab boshini buradigan bo‘ladi. Yasli yoshidagi bolalar nutqining rivojlanishiga katta ta’sir qiluvchi momentlardan biri atrofidagi kattalarning nutq orqali qiladigan munosabatlariga ijobiy qarashlaridir. Bolalar borgan sari katta odamlar bilan ko‘roq munosabatga bo‘lishga intila boshlaydi. Katta odamlarning gaplariga taqlid qiladigan bo‘ladi. Ana shu tariqa sekin – astalik bilan bolaning tili chiqib boshlaydi. Bola 6 oylik bo‘lgach ayrim tovushlarni birlashtirib “aya”, “a – yya”, “da – da” kabi so‘zlarni qayta – qayta aytadigan bo‘ladi. O‘tkazilgan tekshirishlarning ko‘rsatishicha, bolalarning so‘zlarini tushunishlari har bir so‘zni ifodalab beruvchi tovushlarning aniq idrok qila olishlariga emas, balki tovushlarning intonatsiyalarini payqab ola bilishlariga asoslanadi.

Masalan: kichik yoshdagi bolaga “chapagiga xo –xo chapagiga” deb, chapak chalishga o‘rgatiladi. Ana shu so‘z aytilishi bilan bola chapak chalaveradi. Bordi–yu ana shu so‘zni boshqa so‘z bilan almashtirib qo‘ysak bola payqamaydi. Bolalar so‘zlarni ifodalavchi tovushlarni sekin – astalik bilan farqlaydilar. Bolalar

biladigan soʻzlarni miqdori turli bolalarda turlicha boʻladi. Bu oʻrinda shuni ham aytib oʻtish lozimki, Oʻzbekistondagi juda koʻp oilalarda katta odamlar ikki tilda rus va oʻzbek gaplashadilar. Bu ikki tillik muhit, albatta bolaning tili chiqishiga salbiy taʼsir koʻrsatadi. Bola har ikkala tilni ham barobar egallay boshlaydi va qaysi tilda gapirishni bilmaydi. Ana shuning uchun bola yoshlik chogʻida oʻz ona tilini egallashi kerak. Ikkinchi til ona tili oʻzlashtirilgandan soʻng egallay boshlansa, yaxshi boʻladi.

Bolalarning nutqni egallashlari ikki davrga ajratiladi. Birinchi davr bir yoshdan bir yarim yoshgacha davom etadi. Bu davrda bolalar yigirmata – oʻttiztacha soʻzlarni biladilar. Masalan: “oyi”, “aya”, “bobo”, “dada” kabi. Ana shu soʻzlar bilan bogʻliq boʻlgan soʻzlarni ham biladilar. CHunonchi “ma”, “ol”, “ber” kabi soʻzlar. Bola odatda afrim soʻzlarni uzuk – yuluk, imo – ishora bilan bir amallab aytib beradi. Bunday nutqni “situativ nutq” deb ataladi. CHunki bunday chala – chulpa nutqning maʼnosini bolaga eng yaqin odamgina, yaʼni uning onassi yoki dadasigina tushuntirib bera oladi.¹

Bola nutqning taraqqiyotidagi bu davrning xarakterli belgisi shundan iboratki, bola aytib bera oladigan soʻzlar miqdori juda kam boʻladi. CHunki uning aktiv lugʻati juda sekinlik bilan boyib boradi. Bola kishilar nutqini tushunish qobiliyatining oʻchishi yoʻlidan boradi. Bola oʻziga qarata aytilgan soʻzlarni yaxshiroq tushunadigan boʻladi, yaʼni uning passiv lugʻati boyib boradi, lekin gapira olmaydi, boshqalarning soʻzlarini kuoʻproq eshitadi va nutq materiallarini singdirib borib shu materiallardan keyinchalik oʻz nutqida foydalanadi. Madomiki, shunday ekan pedagog – tarbiyachining vazifasi bolalar idrok qiladigan nutq materiallarining mumkin qadar boy rang – barang va toʻgʻri boʻlishga gʻamxoʻrlik qilishdir.

Nutqning oʻsishidagi ikkinchi davr odatda bola bir yarim yoshga toʻlgandan keyin boshlanadi. Bu davr asosan aktiv lugʻatning tez oʻsishi bilan xarakterlanadi. Bola aytadigan soʻzlarning miqdori birdaniga ortib ketadi. Bolaning katta odamlar

¹ Qayumova N.M. “Maktabgacha pedagogik” TDPU nashriyoti T.: 2006 y. 73-b

nutqiga taqlid qilishi yangi soʻzlarni bilib olishga juda muhim rol oʻynaydi. SHuni aytish kerakki, bola dastlabki soʻzlarni ham taqlid qilib oʻrganadi. Lekin endigi taqlid xarakteri keskin oʻzgardi. Ilgari bola koʻp jihatdan koʻr – koʻrona, yaʼni ongsiz ravishda taqlid qilar edi. Endi bolaning taqlidi aktivroq hamda mustahkamroq boʻla boradi. Ilgari bola yangi soʻzni anchagina qiyinlik bilan oʻzlashtirgan boʻlsa, endi oʻz lugʻatini osonlik bilan boyitib boradi. Ikki yoshga toʻlish oldidan bolaning nutqi maʼnoli boʻlib boradi. Ilgari bolaning soʻzlari asosan uning ehtiyojlarini ifodalagan boʻlsa, endi nutqning nom berishi funksiyasi tobora kuchayib boradi. Narsalarning oʻz nomi borligiga bola tajribada koʻrib ishonadi. Bolaning oʻta sinchkovligi “bu nima?” “nomi nima?” degan savollarida yaqqol koʻrinadi. Bundan tashqari bolaning miyasida narsa bilan uning nomi yaʼni soʻz oʻrtasida yangi assotsiatsialar paydo boʻladi.

Birinchi va ikkinchi signallar sistemalarining oʻzaro bogʻlanishlari tobora mustahkamlanib boradi. Maktabgacha ga tarbiya yoshida bola nutqining grammatik tomoni ancha oʻzgaradi. Dastlabki paytlarda narsalarning nomini bildiradigan otlar koʻproq ishlatiladi. Bola ikki yoshga toʻlish oldidan ish – xarakatning nomini bildiruvchi feʼllarni ham toʻgʻri ishlata boshlaydi. Ikki yoshga toʻlib uch yoshga qadam qoʻyganida esa bola fazoviy munosabatlarni bildiradigan baʼzi bir ravishlarni, masalan: “orqada”, “yuqorida”, “pastda” degan soʻzlarni bilib ishlatadigan boʻladi. Bola ikki yoshga toʻlganda tili ancha rosa chiqib uning nutqida bosh va ergash gapdan tuzilgan dastlabki qoʻshma gaplar ham paydo boʻla boshlaydi. Lekin Maktabgacha ga tarbiya yoshidagi bolalarning gaplaridagi soʻzlarning grammatik jihatidan bogʻlanishi ancha noaniq boʻladi. Biroq, grammatik formalarni shu tariqa bilishga intilish bola nutqining oʻsishida sifat jihatidan yangi bosqich hisoblanadi.

Maktabgacha taʼlim yoshining oxirigacha borib tevarak atrofdagilarning nutqini tobora mukammalroq tushunadigan boʻladi. Katta yoshli kishilarning aytib bergan hikoyalarini kichik sheʼrlarni, ashula va ertaklarni jon – dili bilan tinglaydilar. Bola oʻziga berilgan savollarni tushunib, ularga javob beradi. Bolaning oʻzi ham kattalrga tobora koʻproq savol beradigan boʻladi. SHunday qilib

kattalarning ma'qullashi, maqtashi, koyishi va taqiqlashiga to'g'ri munosabatda bo'la boshlaydi. Bola Maktabgacha yoshiga etgach, so'z boyligining ancha ortishi bilan birga ayrim jummalarni grammatik jihatdan to'g'ri ishlata boshlaydi. Agar 2 yashar bolaning so'z zapasi taxminan 250 tadan 400 tagacha bo'lsa, 7 yashar bolaning so'z zapasi 4000 tadan 5000 tagacha bo'ladi, uch yashar bolaning so'z zapasi 1000 tadan 1200 tagacha bo'ladi. Demak Maktabgacha yoshidagi davrda bolaning so'z zapasi juda tez ortadi. Bu yoshda bolaning nutqi faqat miqdor jihatdangina ortib bormay balki sifat jihatidan ham ancha takomillashadi. Masalan: yasli yoshidagi bolalar ancha so'z zonasiga ega bo'lishlarig qaramay, ayrim tovushlarni r, l, y,sh, z kabi yaxshi farqlay olmaydilar va shu tufayli so'zlarni noto'g'ri talaffuz etadilar. Bundan tashqari, maktabgacha yoshidagi bolalar o'z ona tillarining grammatik tuzilishini amaliy tarzda o'zlashtira boshlaydilar.

So'z zapaslari miqdor jihatidan maktabgacha yoshdagi bolalarning hammasida bir xil bo'lmaydi. Maktabgacha yoshidagi bolalar so'z zapasining miqdori asosan bola tarbiyalanib o'sayotgan oilaning madaniy saviyasiga bog'liqdir. Bir xil oilalarda bola nutqining o'sishi bilan maxsus ravishda shug'ullaniladi. Boshqa bir oilalarda esa bola nutqining o'sishi bilan mutlaqo shug'ullanmaydilar. Ana shuning natijasida maktabgacha yoshidagi bolalar so'z zapasi o'rtasida sezilarli farq yuzaga keladi. Agar yasli yoshidagi bolalarning nutqi asosan ular ayni shu chog'da idrok qilib turgan narsalar va harakatlar bilan bog'liq bo'lsa, Maktabgacha yoshidagi bolalarning nutqi hozir idrok qilib turgan narsalardan tashqari ilgari idrok qilingan narsalar hamda hayoliy narsalar bilan ham bog'liq bo'ladi. SHuning uchun Maktabgacha yoshidagi bolalar katta kishilar aytib yoki o'qib borgan ertaklarni sistemali va izchil ravishda qayta aytib bera oladilar. Maktabgacha yoshda bolalar nutqni faqat og'zaki nutqni juda tez egallaydilar. SHuning uchun ular o'z ona tillarining grammatik tuzilishini ham faqat og'zaki tarzda o'zlashtiradilar. Biroq shuni aytib o'tish kerakki, Maktabgacha yoshidagi bolalarning o'z ona tillari grammatikasini ayrim tomonlarini o'zlashtirishlari maktab bolalarining o'zlashtirishlaridan batamom farq qiladi. Maktabgacha yoshidagi bolalar grammatik qoidalarni o'qib o'rganib yodlarida

saqlab qolmaydilar. Ular ot, fe'l, sifat, olmosh, suffiks, kelishik kabi grammatik kategoriyalarning borligini ham, nima ekanligini ham bilmaydilar. SHuning uchun ular grammatikaning juda ko'p qo'llaniladigan eng sodda qoidalarini kattalarning nutqlari orqali mazmunli o'yinlarda taqlidiy yo'llar bilan amaliy ravishda o'zlashtira boradilar.

Ma'lumki nutqning o'sishi jarayonida bolalar so'z turkumlaridan otlarni tez o'zlashtiradilar. Bunga asosiy sabab shundaki, bolalar narsalarning nomlarini otlarini o'z nutqlarida ko'proq ishlatadilar. Maktabgacha yoshdagi bolalar so'z zapaslarining asosiy ko'pchiligi otlardan iborat ekanligi ajablanarli hol emas. o'rta va katta yoshdagi Maktabgacha bolalari otlarni ko'plik, birlik, bo'lishli, bo'lishsiz shakllarida va turli kelishiklarda to'g'ri ishlatadigan bo'ladilar. Katta guruh bolalari so'zlarni to'g'ri talaffuz eta oladilar. SHuning uchun ular o'zlaridan kichik yoshdagi bolalar gaplarini grammatik jihatdan xat so'zlaganlarida, "bunaqa deb bo'lmaydi" deb ularning nutqlarini to'g'rilaydigan bo'ladilar.

Otlardan so'ng bolalar so'z turkumlaridan fe'llarni va sifatlarni o'zlashtira boshlaydilar. Fe'llarning shaxs qo'shimchalarini osonlik bilan egallasalar ham, lekin fe'llarning zamonga qarab o'zgarishini hozirgi, o'tgan va kelasi darhol to'g'ri o'zlashtira olmaydilar. Maktabgacha yoshidagi kichik bolalarda turmush tajribasi juda oz bo'lganligi tufayli ularda o'tgan va kelasi zamon tushunchalar xali shakllanmagan bo'ladi. SHuning uchun ular o'z nutqlarida fe'llarning zamon qo'shimchalarini almashtirib yuboradilar. O'rta va katta guruh bolalari fe'llarning tuslanishi va zamonga qarab o'zgarib borishini ham amaliy tarzda to'g'ri ishlatadigan bo'ladilar.²

Tarbiyachi – pedagog bolalar nutqining rivojlantirish bilan shug'ullanar ekan, Maktabgacha yoshidagi bolalar ba'zi hollarda o'z nutq apparatlarini to'la idora eta olmasliklarini unutmaslik kerak. Bundan tashqari maktabgacha yoshidagi bolalarda murakkab nutq tovushlarini bir – biridan farq qilish qobiliyati xali to'la takomillashmagan bo'ladi. SHuning uchun maktabgacha yoshidagi ba'zi bolalar

² Qodirova R.M. O'zbekiston bolalar bog'chalari va maktablarida bolalarga 5-6 yoshdan boshlab rus tilida dialogik nutqni o'rgatish. -T.: O'qituvchi. 1993. 45-47 b.

ayrim nutq tovushlarini buzib talaffuz etadilar. Odatda bunday bolalarni tili chuchuk bolalar deb ham yuritiladi. Tili chuchuklik nuqson emas. Buni asta – sekin tuzatish mumkin. Tili chuchuklikni tuzatishning eng muhim shartlaridan biri bola bilan to‘la va to‘g‘ri talaffuz etib, ravon til bilan gaplashishdir. Tarbiyachi buni ota – onaga ham tushuntirishi kerak. CHunki, odatda ayrim ota – onalarga o‘z bolalarini ortiq darajada erkalab, ular bilan bolalarcha, ya’ni bolaga o‘xshab tilini chuchuklantirib gaplashadilar. Tili chuchuk bolalarning “tili shirin” deb uning talaffuziga moslashishga harakat qiladilar. Bunday qilish aslo yo‘l qo‘yib bo‘lmaydigan xatodir.

CHunki bolalar talaffuzidagi nuqson maktabga borgunlaricha to‘g‘rilanmasa, bu narsa bolalar nutqining umumiy o‘shiga ta’sir qilmasdan qolmaydi. Tili chuchuk bolalar nutqidagi bu nuqsonni tugatmay maktabga chaqirilsa, boshqa bolalar ularga “soqov” deb laqab qo‘yadilar. Natijada bunday laqabni xadeb eshita bermaslik uchun bunday bolalar kam gapiradigan, o‘zlarini chetga olib yuradigan bo‘lib qoladilar. Maktabgacha yoshdagi bolalarning nutqi yasli yoshdagi bolalar nutqiga nisbatan ancha taraqqiy etgan bo‘lsa ham xali ularning gaplashishlariga qarab turib nihoyat darajada so‘z etishmayotganini payqash oson. CHunonchi kichik va o‘rta yoshdagi Maktabgacha bolalarining jumllarida “anaqa”, “anu”, “nima”, “indin”, “keyin” kabi noaniq iboralar juda ham ko‘p bo‘ladi. Katta guruh bolalarida esa bunday iboralar kamroq uchraydi.

SHuni ham e’tirofdan chetga qoldirmaslik kerakki, nutq faqat boshqa odamlar bilan amalga oshiriladiganaloqa vositasigina bo‘lib qolmay, balki u bolalar uchun hulq – atvorlarini boshqarish vositasi hamdir. Turli yoshdagi Maktabgacha bolalari o‘z hulq – atvorlarini, ya’ni ma’lum ijtimoiy sharoitda o‘zlarini qanday tutishlarini tafakkur orqali o‘ylab idora qiladilar. Bunda nutqning roli birinchi darajali ahamiyatga egadir. Odatda kichik yoshdagi Maktabgacha bolalarining nutqlari ikkinchi bir odamga emas, balki o‘zlariga qaratilgan bo‘ladi. Masalan: “Anvar uxlaydi”, “Anvarning qorni ochdi” deb gapiradilar.³

³ Qodirova R.M. Maktabgacha yoshdagi bolalarda dialogik nutqni rivojlantirishning ruhiy omillari. - Sariog‘och. 1998. 18b.

Bolalarning ana shunday o‘zlariga qaratilgan nutqlarni egotsentrik nutq deb yuritiladi. Katta yoshli maktabgacha ta’lim muassasasi bolalarida egotsentrik, ya’ni o‘z – o‘ziga qaratilgan nutq tugallanib normal holga keladi.

SHunday qilib asosiy aloqa vositasi bo‘lgan nutq bola psixikasining taraqqiyotida benihoya katta rol o‘ynaydi. Maktabgacha ta’lim muassasasida va oilada to‘g‘ri yo‘lga qo‘yilgan ta’lim – tarbiya va xususan, Maktabgacha ta’lim muassasasida ona tilidan o‘tkaziladigan maxsus mashg‘ulotlar tufayli bola nutqini normal o‘stirish mumkin. Bola maktabgacha yoshning oxirgi bosqichiga kelganda og‘zaki nutqning hamma turlaridan erkin foydalana oladigan bo‘ladi. Bola nutqining bunday keyingi taraqqiyoti maktabda o‘qish protsessida amalga oshiriladi.

Go‘daklik davridan so‘ng rivojlanishning yangi davri ilk bolalik (1-3 yosh) davri boshlanadi. Ilk bolalik davri bola xayotidagi eng ahamiyatli, uning kelgusi psixologik rivojini belgilab beruvchi davr hisoblanadi. Bu rivojlanish asosini bolaning to‘g‘ri yurishini, muloqotga kirishini va predmetli faoliyatni egallagani tashkil etadi. Tikka va to‘g‘ri tik yura olish imkoni bolani doimiy ravishda yangi ma’lumotlarni egallashga olib keladi.

Bu yoshdagi bola o‘z xatti-xarakatlari jixatdan juda faol va kattalar bilan muloqotga kirishish uchun intiluvchan bo‘ladi. 1-3 yosh bola shakllanishda psixik rivojlanishning nixoyatda ahamiyati kattaligini inobatga olgan xolda ayrim psixologlar (m-n R.Zazzo) inson tug‘ilganidan to etuklik davrigacha bo‘lgan psixik rivojining taxminan o‘rtalari 3 yoshga to‘g‘ri keladi degan muloxazani beradilar. Bu yoshdan boshlab bolalar predmetlarni o‘rganish olamiga kadam qo‘yadilar. U endi kattalar bilan nutq orqali muomala-munosabatda bo‘la oladi va elementar axloq qoidalariga amal qila oladi. Kattalar bilan bo‘ladigan muloqot orqali bola atrof xayot xaqida boshqa yo‘nalishlarga qaraganda 10 xissa ko‘proq ma’lumot oladi. Nutq bu yoshda nafaqat muloqot balki tafakkurning rivojlanishi va o‘z-o‘zini shuningdek, bilish jarayonlarni boshqarish vositasi bo‘lib xizmat qiladi.⁴

⁴ Shodiyeva Q. S. “O‘rta guruh bolalari nutqini o‘stirish“ o‘quv qo‘llanma T.: “O‘qituvchi” 1993 y. 76-78 b.

Ilk davridagi bolalarning etakchi faoliyati predmetlarni o'rganish xisoblanadi. Go'daklik davridagi bolalarga nisbatan ilk bolalik davridagi bolalar narsalarga ko'proq qiziqish bilan qaraydilar. Agar go'dak bola qo'liga ushlagan narsani oddiy xarakatlantirib ko'rsa, 2-3yoshdagi bola shu predmet qismlarini diqqat bilan o'rganganidan so'nggina o'z amaliy faoliyatida ishlatadi. Bolani avvalo shu predmetning ishlatish vazifasi qiziqtiradi va u o'z savoliga javob olish uchun ko'pincha kattalarga «Bu nima?» degan savolni beradi. 3 yosh arafasida predmetlarning vazifalarini to'la o'zlashtirgan bolalar o'z o'yinlarida nafaqat shu predmetlardan foydalanadilar, balki ularni o'z vazifalariga ko'ra ishlatadilar ham. Predmetli faoliyatga kirishishi bolaning turli layoqatlari va qo'l xarakatlarini rivojlantiradi. Bolaning nutqi u to 1,5 eshga etgungacha ancha sekin rivojlanadi. Bu davr ichida u 30-40 so'zdan to 100 tagacha so'zni bila oladi, lekin ularni juda kam qo'llaydi. 1,5 yoshdan boshlab esa uning nutqi jadal rivojlanadi. Endi u nafaqat predmetlarning nomini aytishlarini so'rabgina qolmay bu so'zlarni talaffuz etishga ham xarakat qiladi. Nutqning rivojlanish darajasi juda jadallashadi. 2 yoshning oxirlariga borib bola 300 tagacha, 3 yoshning oxirlagiga borib esa 500 dan to 1500 tagacha so'zni ishlata oladi. SHuningdek so'zlarni ham aniq talaffuz etib, jummalarni to'g'ri tuza oladilar.

SHuni alohida ko'rsatish joizki 1,6-3 yosh bu nutq rivojlanishi uchun senzitiv davr hisoblanadi. Bu davr aqliy rivojlanish asosini idrok va tafakkur xarakatlarining yangi ko'rinishlari tashkil etadi. 1 yoshli bola xali predmetlarni ketma-ket, sistemali ravishda ko'rib chiqa olmaydi. U asosan predmetning qandaydir bir ko'zga tashlanib turadigan belgisiga o'z e'tiborini qaratadi va predmetlarni shu belgilariga ko'ra taniydi. Keyinchalik yangi idrok xarakatlarini egallanishi bolaning predmetli xarakatlarini bajarishdan ko'z bilan chamalab xarakat qilishiga o'tishda namoyon bo'ladi endi u predmetning bo'laklarini ushlab ko'rmasdan chamalab idrok eta oladi. 2,5-3 eshli bola kattalarning bergan namunasi rangin shakli va kattaligiga ko'ra aynan shunday predmetlarni chamalab idrok etgan xolda to'g'ri topa oladi. Bolalar avval shakliga, so'ngra kattaligiga va

shundan so'ngina rangiga qarab ajrata oladilar. Bu jaraenda bola bir xil xususiyatga ega bo'lgan juda ko'p predmetlar borligini tushuna boshlaydi. Lekin bola rasm chizishni boshlaganida predmetlarni rangini e'tiborga olmaydi va o'ziga yoqadigan ranglardan foydalanadi. Tadqiqotlarning ko'rsatishiga 2,5-3 yoshli bola 5-6 ta shaklni (doira, kvadrat, uchburchak, to'g'riburchak, ko'pburchak) va 8 xil rangni (qizil, qovoq sariq, sariq yashil, ko'k, siexrang, oq, qora) idrok etishi mumkin. Rang va shakllarning ishlatilishi jixatidan turli xil narsalarda turlicha bo'lishi sababli bu eshdagi bolalar ularni idrok etganlari bilan nomlarini aniq bilishlari va o'z nutqlarida ishlata olishlari birmuncha qiyinroq. Kattalarning bu yoshdagi bolalardan shu rang va shakllarni eslab qolishini talab etishlari noto'g'ri bo'lib, buning uchun mos davr bu 4-5 esh xisoblanadi. Bu eshdagi bolalar so'zlardagi barcha tovushlarni idrok eta oladilar.

Bola 3 yoshigacha o'zlashtirgan so'zlar asosan predmet va xarakatlarning nomlarini bildiradi. Nomlar asosan uning funksiyasini anglatib bu predmet yoki xarakatning tashqi ko'rinishi o'zgarsa ham uning nomi o'zgarmaydi. SHuning uchun ham bola predmetlarning nomlarini ishlatilishini funksiyalariga bog'lagan xolda tez o'zlashtiradi.⁵

Ilk bolalik davrining boshlariga kelib bolada birinchi tafakkur operatsiyalari yuzaga keladi. Buni biz biron bir predmetni olishga xarakat qila olganidan so'ng esa uni sinchiklab o'rganishida ko'rishimiz mumkin. Ularning tafakkurlari asosan ko'rgazmali xarakatli bo'lib, u atrof olamdagi turli bog'liklarni o'rganishga xizmat qiladi. O'zidan uzoqroq turgan koptokni biron bir uzunroq narsa bilan itarib yuborish mumkinligini ko'rgan bola endi mustakil ravishda divan tagiga kirib ketgan koptokni kaltak erdamida olish mumkinligini tafakkur eta oladi. Bu davrdagi bolalar tafakkurida umumlashtirish katta o'rin tutadi. Umumlashtirishda nutq asos hisoblanadi. Masalan, soat deyilishi bola qo'l soati, osma soat, shuningdek budilnikni ham tushunishi kerak. Lekin ular turlicha bo'lgani sabab ularda umumiylikni topish bola uchun birmuncha qiyinroq xisoblanib, bu borada

⁵ Qodirova. F.R. Qodirova R.M. Bolalar nutqini rivojlantirish nazariyasi va metodikasi T.: "ISTIQLOL", 2006y. 23-24 b.

fikrlash yordamga keladi va umumlashtirishni tashkil etadi. 2-3 yoshli bolalar ma'lum bir predmetlarning o'rniga ularning o'rnini bosishi mumkin deb xisoblagan boshqa narsalardan ham foydalanadilar. Masalan, o'yin jarayonida bola cho'pni qoshiq yoki termometr o'rnida, yog'ochdan krovat yoki mashina o'rniga foydalanishi mumkin. Bir predmetni boshqasi o'rnida qo'llash mumkinligini bilish bola atrof olamni bilishi, o'rganishidagi ahamiyatli burilish xisoblanadi va u dastlabki tasavvurlarni yuzaga keltiradi.

Bu yoshdagi bolalar endi asta-sekinlik bilan kattalar aytib berayotgan ertak, voqea, hikoyalarni, shuningdek rasmda chizilgan narsalarni tasavvur eta oladilar. Ertak eshitish jarayonida bola ertak qaxramonlarini kimgadir o'xshatishga xarakat qiladi, u o'zi mustaqil ertak yoki hikoyalarni to'qiy olishi ham mumkin. Go'dak yarim yoshida ular bilan muloqotga kirishish jarayoni ikki xil xususiyat kasb etadi. Avval muloqot bir tomonlama, faqat ta'sir o'tkazish bilan chegaralansa, endi teskari munosabat ham vujudga keladi. Bola kattalarning kiyimini tortqilaydi. Ularga qichqiradi va boshqa harakatlardir. Mazkur holat bolaning kattalar bilan muloqoti rivojlanishining yuqori bosqichga ko'tarilishidan dalolat beradi. Bola hayotining ikkinchi yarim yilligida kattalar nutqini idrok qilish va uni tushunishi rivojlanadi. Bolaning hamkorligidagi o'yin faoliyati ham his –tuyg'uga berilishi ham nutq va faoliyati bilan chambarchas bog'liq bola juda ko'p harakatlarni taqlid asosida egallaydi. Bolani 5-6 oylikdan nutqni tushunishga o'rgatish lozim. Buning uchun bolaga o'yinchoq yoki biror narsaning bir necha marta nomini aytib ko'rsatish kerak.

Keyinchalik bolaga ba'zi narsalarning nomi aytilganda, u ko'zlari bilan shu narsani qidirib topadi. Masalan chapak –chapak deb, takrorlab turib chapak chalinsa bola shu so'z aytilishi bilan chapak chaladigan yoki bolaga “assalomu alaykum” ta'zim qilib ko'rsatilsa, bola so'zni eshitishi bilan ta'zim qiladigan bo'ladi.

Bola ayrim so'zlarga tushuna boshlagach, kattalar bilan ko'proq aloqada bo'lishni hohlaydi. Bundan foydalanib bola bilan ko'proq munosabatda bo'lishga uni nutqini o'stirishga harakat qilish kerak. Buning eng oson yo'li u bilan o'yin

o‘ynashdir. Masalan kuchukni rasmini ko‘rsatib “mana vov-vov” , xo‘roz yoki tovuqning rasmini ko‘rsatib “Kuk-kuk” deyish mumkin, bunda bolalar shu kabi elementlarni ravon talaffuz qilishga o‘rganadi. Bundan tashqari 9-10 oylik bolalarda o‘z tana a‘zolarining nomlarini o‘rgatish lozim. Bolaga “mana og‘zi, mana ko‘zi” deb bir necha marta takrorlab ko‘rsatilgandan keyin bola o‘z a‘zolarining nomini aytish bilan birin- ketin ko‘rsatadigan bo‘ladi. Xali yoshiga to‘lmagan bolalar har bir so‘zni shu so‘z orqali foydalangan aniq narsalar bilan bog‘lay olmaydilar. Bunda nutqni assotsiativ tarzda bog‘lash orqali emas, balki intonatsiya va imo –ishoralar orqali tushunadi. O‘zgarlar nutqini tushunish ko‘rish idrokining zamirida vujudga keladi. Bunda katta odam o‘zi jism va rasmlarga bolaning diqqatini jalb etadi.

Agar go‘dak 3-4 oylikidan gu-gulashga intilsa 5-6 oylikida ayrim tovushlarni qiyqiriq orqali ifodalaydi. Nutqni idrok qilishni va tushunishni oxirgi bosqichi 9-10 oylikidan boshlanadi.

Tadqiqotchil F.I.Fratkina kattalarning go‘dakka qaratilgan nutqidan quydagicha ta’sirlanish holatlarini aniqlagan:

- 1) nomi aytilgan buyumga javob tariqasida burilib qarash.
(7-8 oylikida)
- 2) turmush tajribasida egallagan harakatlarini kattalar eslatishi bilan bajarishga intilish (8-9 oylikida)
- 3) kattalarning nutq orqali ko‘rsatmasidan oddiy nutq topshriqlarini bajarish (9-10 oylikida)
- 4) kattalarning nutq orqali ko‘rsatmasi bo‘yicha zarur predmetni tanlab olish (10-11 oylikida)
- 5) mumkin emas ta’qiqlovchi so‘z yordamida harakatni to‘xtatish (12 oylikida)

Go‘dakdan o‘zgarlar nutqini idrok qilish va unga javob berishga intilishi harakatni amalga oshirishi murakkablashib boraveradi. Bular aqliy imkoniyatlar darajasiga bevosita bog‘liq. 1 yoshgacha davrni nutqqacha davr deb atash odat bo‘lib qolgan. Bu davrda go‘dak bosh miya yarim sharlari po‘stida ikkinchi

signallar sistemasi faoliyati bilan bog‘liq anchagina ishlarni ya’ni nutq taraqqiysi bilan bog‘liq bo‘lgan ko‘nikma va malakalarni amalga oshiradi.⁶

Nutqni tushunib idrok qilish kun sayin ortadi. U bir nimani olishni so‘rashni, aytishni hohlaydi, asta-sekin birinchi so‘zlar 10-12 ta gacha paydo bo‘ladi. Bolalar nutqining o‘sishi ular idroki, xotirasi, tafakkuri, xayoli va irodasi kabi yuksak psixik jarayonlarning rivojlanishiga yordam beradi.

Go‘daklik ma’lum bir maqsadga qaratilgan ongli faoliyatida tom ma’noga ega bo‘lgan irodasi bo‘lmaydi. Go‘dak harakatlari juda ixtiyorsiz bo‘lib, unda harakatlarni nazorat qilish zaif holatda bo‘ladi, lekin irodaviy harakatning ba’zi ko‘rinishlari bor. Bolani mustaqil harakatlarini tashkil etishdan e’tiboran, unda irodaviy hislatlar tarbiyalana boshlaydi. Sochilgan o‘yinchoqlarni yig‘ishtirib, o‘z joyiga qo‘yishning o‘ziyoq bola uchun muhim topshiriqdir. SHunga o‘xshash topshiriqlar bolani mustaqillikka va matonatlilikka o‘rgatadi.⁷

Go‘dakni o‘z irodasini tarbiyalash uchun unga sharoit yaratish lozim. Unga irodaviy xislatlar faqat doimiy ravishda mashq qilish orqali tarbiyalanadi. Masalan, ovqatlanish, onasi alla aytganda orom olish, odamlar orasida o‘z yaqinlarini yoki onasini ko‘rganda unga talpinish kabilardir.

SHunday qilib, ilk yoshdagi bolaning psixikasining aktiv faoliyati, turli – tuman harakati o‘z atrofidagi narsalarni ko‘proq bilib olishi jarayonida rivojlanar ekan, uning erkin harakatlari uchun qulay sharoit yaratish lozim. Bola harakatlarini cheklash esa psixikasining normal rivojlanishiga ma’lum darajada zarar etkazadi.

Bu yosh davrida bolani ham jismoniy, ham ruhan sog‘lom qilib o‘stirish, keyingi davrlar psixik taraqqiyoti uchun muhim zamin yaratadi.

Ilk bolalik davrida xotira bilishdagi asosiy funktsiya xisoblanib, u bilishning barcha ko‘rinishlarini rivojlanishida ishtirok etadi. Bu davrda bolaning xotirasi

⁶ Qodirova. F.R., Qodirova R.M. Bolalarni chet tilga o‘rgatish nazariyasi va metodikasi. T.: “Sano-standart” 2009y.31-33 b.

⁷ Qodirova R.M. Maktabgacha yoshdagi bolalarda dialogik nutqni rivojlantirishning ruhiy omillari. - Sariog‘och. 1998. 42-33 b.

jadal rivojlanadi. Bolaning xayotiy tajribalarni o‘zlashtirishida avvalo xarakterli, emotsional va obrazli xotira ishtirok etadi. Bu borada xarakterli va emotsional xotira ustunlik qiladi. Xotira bu yoshda asosan ixtiyorsiz bo‘ladi. Bu davrdagi bolalarga ko‘p kitob o‘qib berish natijasida ular uzun ertak va she‘r xikoyalarni eslab qoladilar, lekin bunday eslab qolish bolaning umumiy aqliy rivojlanishidan ham, xotirasining individual xususiyatidan ham dalolat bermaydi. Bu ilk bolalik davridagi bolalarning barchasiga xos bo‘lgan nerv sistemasining umumiy egiluvchanligi natijasidir. O‘zi va atrof xayot xaqidagi voqea va xodisalarda ketma-ketlik borligi uchun ham ularni xali to‘liq ravishda xotirasida saqlab qola olmaydi.

Maktabgacha yosh davrida bolalar nutqining rivojlanishi va uning o‘sishi jadal kechadi. Agar 2 yashar bolaning so‘z zapasi taxminan 250 tadan 400 tagacha bo‘lsa, 3 yashar bolaning so‘z zapasi 1000 tadan 1200 tagacha va 7 yashar bolaning so‘z zapasi 4000 taga etadi. Demak, Maktabgacha yoshi davrida bolaning nutqi ham miqdor, ham sifat jihatidan ancha takomillashadi. Maktabgacha yoshidagi bolalar nutqini o‘sishi oilaning madaniy saviyasiga bog‘liq. Kattalar bolalar nutqini o‘stirish bilan shug‘ullanar ekanlar, Maktabgacha yoshidagi bolalar bahzi xollarda o‘z nutq sifatlarini to‘la idrok eta olmasliklarini unutmasliklari kerak. Bundan tashqari, bolalarda murakkab nutq tovushlarini bir-biridan farq qilish qobiliyati ham xali to‘la takomillashmagan bo‘ladi. Tili chuchuklikni tuzatishning eng birinchi shartlaridan biri bola bilan tula va to‘g‘ri talaffuz etib, ravon til bilan gaplashishdir.

Maktabgacha davrda ahloqiy tushunchalar borgan sari qat‘iylasha boradi. Ahloqiy tushunchalar manbai bo‘lib ularning ta‘lim –tarbiyasi bilan shug‘ullanayotgan kattalar, shuningdek, tengdoshlari ham bo‘lishi mumkin. Ahloqiy tajribalar asosan muloqot, kuzatish, taqlid qilish jarayonida, shu bilan birga kattalarning ayniqsa onalarning maqtovi va tanqidlari orqali o‘tadi va mustahkamlanadi. Bola doimo baho, ayniqsa maqtov olishga harakat qiladi. Bu baho va maqtovlarning bola shaxsidagi muvaffaqiyatga erishishga harakat

hususiyatining rivojlanishida, shuningdek, uning shaxsiy hayoti, hamda kasb tanlashida ahamiyati juda katta.⁸

Maktabgacha yoshdagi davrda bolalarda muloqotning yangi motivlari yuzaga keladi. U shaxsiy va ishbilarmonlik motivlaridir. SHaxsiy muloqot motivlari bu –bolaning tashvishga solayotgan ichki muammolari bilan bog‘liq, ishbilarmonlik motivlari esa u yoki bu ishni bajarish bilan bog‘liq bo‘lgan motivlardir. Bu motivlarga asta –sekinlik bilan bilim, ko‘nikma va malakalarni egalash bilan bog‘liq bo‘lgan o‘qish motivlari qo‘shiladi. Bu motivlar ilk bolalik davrdan boshlanib yuzaga keladigan bolalarning tabiiy qiziquvchanligi o‘rnida paydo bo‘ladi. O‘zini ko‘rsatish motivlari ham bu yoshda yaqqol namoyon bo‘ladi


Kichik va o‘rta maktabgacha yoshda bola xarakterining shakllanishi davom etadi. U asosan bolalarning kattalar harakterini kuzatishlari asosida tarkib topadi. SHu yillardan boshlab bolada ahamiyatli hisoblangan –iroda, mustaqillik va tashabbuskorlik kabi ahamiyatli shaxsiy hususiyatlar rivojlana boshlaydi. Katta maktabgacha yoshda bola atrofdagi odamlar bilan turli faoliyatlarda muloqot va munosabatlarga kirishishga o‘rgana boshlaydi. Bu esa unga kelajakda odamlar bilan til topishishda, ish bo‘yicha va shaxsiy munosabatlarni normal ravishda o‘rnata olishida foyda keltiradi. Bu yoshdagi bolalar shaxsining shakllanishida ularning ota –onalari xaqidagi fikrlari va ularga beradigan baholari nihoyatda ahamiyatlidir.

⁸ Sodiqova.S Maktabgacha pedagogika. Toshkent., 2013 yil.89-92 b.

1.2 MAKTABGACHA TA'LIMGA QO'YILADIGAN DAVLAT TALABLARIDA NUTQ , O'QISH VA SAVODGA TAYYORGARLIK YO'NALISHI MAZMUNI

Davlat talablari maktabgacha ta'lim tizimida, shuningdek har bir oilada 7 yoshgacha bo'lgan bolani tarbiyalash, rivojlantirish, maktabga samarali tayyorlash hamda unga ta'lim berishda qo'llanilishi majburiydir.

Davlat talablari asosida, bolaning bilim, ko'nikma va malaka mezonlari hamda ularning o'sish dinamikasi va rivojlanish holatlari aniqlanadi, bolalarning rivojlanganligi va yutuqlari baholab boriladi, bolaning individual rivojlanishi ta'minlanadi, kadrlar tayyorlash sifati, ta'lim mazmuniga nisbatan qo'yiladigan talablar, maktabgacha yoshdagi bolalarning rivojlanish darajasi hamda ota-onalarning bola rivojlanishiga oid ko'nikma va malakalari belgilanadi. Ta'lim, fan va ishlab chiqarishning samarali integratsiyasini ta'minlash, bolalarning rivojlanishi va ularni maktab ta'limiga tayyorlashga oid bilim, malaka va ko'nikmalarga ega bo'lishlarida ota-onalarga ko'maklashish, maktabgacha ta'lim tizimi sifatini oshirish.⁹




Nutq, o'qish va savodga tayyorgarlik yo'nalishi

Mazkur yo'nalishda rivojlanish jarayoni quyidagi bosqichlar orqali kechadi:

⁹ Maktabgacha yoshdagi bolalarga qo'yiladigan davlat talablari. T. 2012 yil.

nutq — bunda bola so‘zlashuv tiliga zarur darajada ta’sirlanadi, so‘zlarni tushuna boshlaydi va atrofdagilar bilan muloqotga kirishadi;

o‘qish va savodga tayyorgarlik — bunda bolada bosma materiallar, yozuv belgilari va harflarga bo‘lgan qiziqish rivojlanadi.



O‘qish va savodga tayyorgarlik bosqichida bola:

bosma materiallar, harflar va belgilarga qiziqish bildiradi;

yo‘zishga oid ko‘nikmalar hosil qiladi.

6 oylikkacha bo‘lgan bolalarning nutqni tinglash, tushunish va muloqot yuritish qobiliyatiga egaligi ularda nutq rivojlanishining talabi hisoblanadi.

Quyidagilar 6 oylikkacha bo‘lgan bolalarda nutq indikatorlari hisoblanadi:

turli nutq va kuylarga emotsional munosabatini namoyon etish;

bolalar qo‘shiqlari va aytishuvlarini tinglash;

turli ovozlarga taqlid qilish;

so‘zlarning dastlabki bo‘g‘inlarini hamda «ma», «ka», «ba» kabi oddiy bo‘g‘inlarni bayon qilish.

Bola bilan munosabatlarda quyidagilarga amal qilish lozim:

bola bilan ko‘proq so‘zlashish, unga she’rlar, latifalar aytib berish;

musiqa va bolalar ashularini tinglashni rag‘batlantirish;

alla aytish;

muntazam ravishda quvnoq hikoyalar o‘qib va aytib berish;

bola bilan muloqot yuritayotganda so‘zlarni bir necha marta takrorlash;

bolaning tashabbuskorligini ragʻbatlantirish va uning eʼtiboriga javob qaytarish;

chiroyli rasmlarni koʻrsatish va ularning nomini aytish.

Bola bilan xotirjam va doʻstona ohangda muloqot qilish, shuningdek u turgan xonada tinch va xotirjam sharoitlarni taʼminlash zarur.

6 oylikkacha boʻlgan bolalarning bosma materiallar, harflar va ramzlarga qiziqish bildirishi hamda yozish koʻnikmalarini oʻrganishi, ularda oʻqish va savod malakalari rivojlanishining talablari hisoblanadi.

Quyidagilar 6 oylikkacha boʻlgan bolalarda oʻqish va savod malakalari indikatorlari hisoblanadi:

qogʻoz yoki gazetani gʻijimlab tashlash;

rangli kitoblarni tomosha qilish;

devordagi rasmlar va plakatlarni tomosha qilish;

ikki qoʻli bilan yozuv asboblarini (uchi ochilmagan rangli qalamlar, yopiq ruchkalar, rangli markerlar) ushlab turish va ular bilan oʻynash.

6 oylikkacha boʻlgan bolalar bilan quyidagi mashqlarni muntazam ravishda bajarib turish lozim:

bolaga qogʻoz parchasi berish va bolaning undan qanday foydalanishini kuzatib turish;

bolaga chiroyli bezatilgan kitob berish va uning kitobni tomosha qilishini ragʻbatlantirish;

bolaning oldiga tartibsiz ravishda bir necha rasmlarni qoʻyish;

bolaga katta marker yoki flomaster berish va ularni qoʻlida ushlab turishga undash.

Bolaning xavfsiz yashashi va harakatlanishini taʼminlash uchun uning turli buyumlarni ogʻziga solmasligini kuzatib turish lozim.

6 — 12 oylik bolalarning nutqni tinglash, tushunish va muloqot yuritish qobiliyatiga egaligi ularda nutq rivojlanishining talabi hisoblanadi.

Quyidagilar 6 — 12 oylik bolalarda nutq indikatorlari hisoblanadi:

yangi soʻzlarga oson taqlid qilish, odamlarning ovozi tanish, oʻz ismini eshitganda javob qaytarish, buyumlarni koʻrsatish;

bolalar qoʻshiqlari, aytishuvlari, ertaklarini, qisqa va oddiy hikoyalarni tinglash;

aytilgan obʻektga qarab oʻgʻirish;

oddiy savollarga «ha» yoki «yoʻq» deb javob berish uchun boshini silkitish;

«yoʻq» soʻzining maʼnosini bilish;

uzoq vaqt chugʻurlash;

soʻzlarning birinchi boʻgʻinlarini hamda eng oddiy nom va soʻzlarni aytish;

katta yoshdagilar bilan muloqot qilish uchun bir xil soʻzni ishlatish.

6 — 12 oylik bola bilan munosabatlarda quyidagilarga amal qilish lozim:

bola bilan koʻproq soʻzlashish, unga sheʼrlar, latifalar aytib berish;

parvarishlash jarayonida (ovqatlantirish, choʻmiltirish, uxlatish) u bilan gaplashish, tana aʼzolari va kiyimlarining nomini aytib turish;

turli hikoyalar, ertaklar aytib berish, bola bilan rang-barang kitoblarni tomosha qilish, oʻqib berish va uning diqqat bilan tinglashini ragʻbatlantirish;

hikoyalardagi muhim va ahamiyatli jihatlarga bolaning eʼtiborini qaratish;

bola bilan muomalada boʻlganda unga oddiy savollar berish va maʼnosi boʻyicha toʻgʻri keladigan javob qaytarishga undash;

kishi atrofida harakatlanayotganda yoki oldida oʻynayotganda uning ketidan kuzatish, «yoʻq» deyilganda bola oʻyinini toʻxtatishi lozimligini oʻrgatish;

bolaga javoban bidirlash, uning ovozlari taqlid qilish, uni uzoq vaqt bidirlashini ragʻbatlantirish va toʻxtatmaslik;

bola aytayotgan barcha narsalarni qaytarish, u chiqarayotgan har bir tovushni rivojlantirish, unga savol berish, soʻng unga toʻgʻri javobni qaytarib aytish;

bolaning talablariga ijobiy javob berish.

6 — 12 oylik bolalar bilan munosabatlarda quyidagilarni inobatga olish lozim:

katta yoshdagilarning nutqi toʻgʻri, ravon, turli ohangda boʻlishi lozim;

bolaning e'tiborini 1-1,5 daqiqa davomida jamlab turish mumkin.

6 oylikkacha bo'lgan bolalarning bosma materiallar, harflar va ramzlarga qiziqish bildirishi hamda yozish ko'nikmalarini o'rganishi, ularda o'qish va savod malakalari rivojlanishining talablari hisoblanadi.

Quyidagilar 6 oylikkacha bo'lgan bolalarda o'qish va savod malakalari indikatorlari hisoblanadi:

qog'oz yoki gazetani g'ijimlab tashlash;

rangli kitoblarni tomosha qilish;

devordagi rasmlar va plakatlarni tomosha qilish;

ikki qo'li bilan yozuv asboblarini (uchi ochilmagan rangli qalamlar, yopiq ruchkalar, rangli markerlar) ushlab turish va ular bilan o'ynash.

6 oylikkacha bo'lgan bolalar bilan quyidagi mashqlarni muntazam ravishda bajarib turish lozim:

bolaga qog'oz parchasi berish va bolaning undan qanday foydalanishini kuzatib turish;

bolaga chiroyli bezatilgan kitob berish va uning kitobni tomosha qilishini rag'batlantirish;

bolaning oldiga tartibsiz ravishda bir necha rasmlarni qo'yish;

bolaga katta marker yoki flomaster berish va ularni qo'lida ushlab turishga undash.

Bolaning xavfsiz yashashi va harakatlanishini ta'minlash uchun uning turli buyumlarni og'ziga solmasligini kuzatib turish lozim.

12 — 24 oylik bolalarning nutqni tinglash, tushunish, so'zlashish va muloqot qilishga qodirligi ularda nutq rivojlanishining talabi hisoblanadi.

Quyidagilar 12 — 24 oylik bolalarda nutq indikatorlari hisoblanadi:

kundalik turmushda uchraydigan ma'lum harakatlarni ifodalaydigan so'zlarni tushunish;

eshitgan oddiy, qisqa murojaatlarni qaytarish va ularni bajarish;

so'zlashganda taqlid qilish;

rasmdagi narsalarni tanish;

2-3 ta soʻzdan iborat gaplarni tuzish;

rasmni yoki fotosuratni 2-3 ta soʻz yordamida tushuntirish, taʼriflash.

Bola bilan quyidagi mashqlarni olib borish lozim:

bola bilan oʻynayotganda va muomala qilayotganda uning qisqa maʼlumotlarni qaytarishini ragʻbatlantirish;

bolaga koʻproq predmetlar va oʻyinchoqlarni koʻrsatish, nomlarini aytish, ularni maʼlum harakatlar bilan bogʻlash;

bolaga ravon va toʻgʻri gapirish, koʻproq savol berish;

bolani hikoya oʻqish va suhbatlashish bilan qiziqtirish, uning barcha savollariga javob qaytarish;

bola bilan birga rasm va fotosuratlar koʻrish, rasmlarga mos keladigan soʻzlarni topishga yordam berish;

savollar va buyruqlar oʻrtasidagi mutanosiblikka eʼtibor qaratish;

oʻyin, mashq, nutqni rivojlantirish mashgʻulotlari va barmoqlar teatrini oʻtkazish;

bola bilan katta yoshdagilar ovozlariga taqlid qiladigan oʻyinlarni oʻynash.

12 — 24 oylik bolalar bilan munosabatlarda quyidagilarni hisobga olish lozim:

ushbu davrning bola nutqi rivojlanishida muhim davr ekanligini hamda har qanday kuchli ruhiy taʼsir (qoʻrquv, choʻchish) ushbu jarayonning toʻxtab qolishiga yoki kechikishiga sabab boʻlishini mumkin;

oʻyinchoqlar ovozining baland chiqishining oldini olish.

12 — 24 oylik bolalarning bosma materiallarga qiziqish bildirishi, harflar va ramzlarni ajrata olishi hamda yozish koʻnikmalarini oʻrganishi ularda oʻqish va savod malakalari rivojlanishining talablari hisoblanadi.

Quyidagilar 12 — 24 oylik bolalarda oʻqish va savod malakalari indikatorlari hisoblanadi:

yorqin rasmlar bilan bezatilgan kitoblarni tomosha qilish, rasmlarda aks ettirilgan buyumlarni koʻrib tanish;

logotiplarni koʻrib tanish;

yoʻzma matn, harflar va raqamlarga qiziqish bildirish;

qalam va ruchka yordamida gorizonta, doirasimon va vertikal chiziqlarni chizish;

qalam yoki moʻyqalam bilan rasm chizish.

12 — 24 oylik bolalar bilan quyidagi mashqlarni olib borish lozim:

bolani bolalar kitoblari bilan taʼminlash, oʻqib berish va rasmlarini koʻrsatish;

bolani rasmlarda aks ettirilgan narsalarning nomini toʻgʻri aytishga oʻrgatish;

bolaga qalam, flomaster va katta qogʻoz parchasi berish, uning koʻnikmalari rivojlanishi uchun zaruriy sharoitlarni yaratish.

Bosma materiallar sanitariya va gigiena talablariga javob berishi lozim.

Quyidagilar **2 yoshdan 3 yoshgacha** boʻlgan bolalarda nutq rivojlanishining talablari hisoblanadi:

tinglash va tilni tushunishga qodirlik;

soʻzlash va muloqot qilish qobiliyatiga ega boʻlish;

talaffuzni yaxshilash;

soʻz boyligini oshirib borish;

nutqning grammatik tuzilishini shakllantirish;

bogʻlanishli nutqni shakllantirish.

Quyidagilar 2 yoshdan 3 yoshgacha boʻlgan bolalarda nutq indikatorlari hisoblanadi:

yoshini soʻraganda barmoqlari bilan koʻrsatish;

katta yoshdagilar tomonidan aytilgan soʻzlarni toʻgʻri tushunish;

oddiy ogʻzaki buyruqlarni toʻgʻri bajarish;

«kim?», «nima?» kabi savollar berish;

katta yoshdagilarning bir yoki ikki harakatlardan iborat boʻlgan koʻrsatmalarini bajarish;

juda qisqa (ikki yoki toʻrt misradan iborat) sheʼrlarni bayon etish;

buyumlar va ular qismlarining nomlanishini, harakatlari va xususiyatlarini aytib berish;

rasmlar, uy-ro'zg'or buyumlarini ko'zdan kechirayotganda, ularning nomlarini bildiruvchi so'zlarni to'g'ri ishlatish;

nutqda otlarni ko'plikda to'g'ri ishlatish, sifatlarni ot bilan shaxs va sonda moslashtirish, fe'llarni o'tgan va kelasi zamonda ishlatish;

o'yinchoq, buyum va rasm mazmuni bo'yicha 2-3 ta gap tuza olish;

katta yoshdagilar va tengdoshlari bilan muloqotga kirishish, iltimos bilan murojaat qilish, o'z harakatlariga e'tibor qaratish;

3 — 5 so'zdan iborat iboralarni aytishga harakat qilish, nutqida kishilik olmoshlarini ishlata boshlash;

«rahmat», «marhamat» kabi so'zlardan foydalanish;

muloqot qilish, ertaklarni o'qish vaqtida «nima?», «nima uchun?» degan savollar berish.

2 yoshdan 3 yoshgacha bo'lgan bolalar ta'limiga quyidagicha yondashish lozim:

boladan yoshini so'rash, o'z yoshini barmoqlari yordamida ko'rsatishini rag'batlantirish;

boladan bir necha topshiriqdan iborat bo'lgan ko'rsatmani bajarishni iltimos qilish;

bolani buyruqlarga to'g'ri munosabat qilishga o'rgatish;

bolaning doimo kerakli so'zlardan foydalanishini rag'batlantirish;

bolaning savollariga javob berish, muloqot to'xtab qolayotganda unga savol berish;

bolani savollar berishga rag'batlantiradigan o'yinlarni o'ylab topish.

2 yoshdan 3 yoshgacha bo'lgan bolalar o'z vaqtida nutqni tushunish ko'nikmalarini orttirmasa, nafaqat mustaqil nutqni rivojlantirishda, balki umuman psixologik rivojlanish bo'yicha orqada qolishi mumkinligini doimo yodda tutish lozim.

Quyidagilar 2 yoshdan 3 yoshgacha bo'lgan bolalarda o'qish va savod malakalari rivojlanishining talablari hisoblanadi:

alohida soʻz va iboralarni ifodalay olish;
 harakatlar bilan bajariladigan ermaklarni ijro etish;
 bosma materiallarga qiziqish bildirish, harflar va ramzlarni ajrata olish;
 yozish koʻnikmalarini oʻrganish.

Quyidagilar 2 yoshdan 3 yoshgacha boʻlgan bolalarda oʻqish va savod malakalari indikatorlari hisoblanadi:

turli bosma materiallarni tomosha qilish;
 oʻzining sevimli kitobini va eng yoqtiradigan rasmlarini tanish;
 matn va boshqa tasvirlar oʻrtasidagi farqni bilishga qodir boʻlish;
 kitobdagi rasmlarga qarab badiiy asarning mazmunini gapirib bera olish;
 ikki soʻzdan iborat gap tuza olish;
 qalam yordamida egri chiziqlar, doiralar, turli satrlarni chizish;
 uchi oʻtkir buyum bilan qumda turli shakllarni chizish;
 biror-bir oʻyinni oʻynash vaqtida turli narsalarni yozishga taqlid qilish.

2 yoshdan 3 yoshgacha boʻlgan bolalar taʼlimiga quyidagicha yondashish lozim:

bolaga kitob, jurnal, turli taomlar tasvirlarini tomosha qilishni taklif etish;
 har qanday bosma materiallardan misollar keltirish;
 yozilgan soʻzlarning muhimligini tushuntirish;
 kitobning rasmi varagʻini ochib, boladan matn va rasmlarni koʻrsatishni iltimos qilish;

bolaga bosma harf va rasmlar, shuningdek raqamlar va harflarni ajratishga yordam berish;

bolaning ishlashi uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish;

boladan keng, tekis joyda yoki qum ustida choʻp bilan doiralar chizishni soʻrash;

bolaning matn yozayotgan kishiga taqlid qilishiga ruxsat berish, unga qogʻoz, qalam yoki ruchka berish.

Bola foydalanadigan bosma materiallar sanitariya va gigiena talablariga muvofiq boʻlishi zarur.

Quyidagilar 3 yoshdan 5 yoshgacha bo'lgan bolalarda nutq rivojlanishining talablari hisoblanadi:

- nutqni tinglash va tushuna olish;
- so'zlashish va muloqot yuritishga qodir bo'lish;
- nutq tovush madaniyatini shakllantirish;
- so'z boyligini rivojlantirish;
- nutqning grammatik tuzilishini shakllantirish;
- bog'lanishli nutqni shakllantirish.

Quyidagilar 3 yoshdan 5 yoshgacha bo'lgan bolalarda nutq indikatorlari hisoblanadi:

- muloqot qilish, nutqdan o'z xatti-harakatlarini tartibga solish, o'zi va o'z harakatlarini baholash, o'zining turli ehtiyojlarini qondirish uchun foydalanish;
- uy-ro'zg'or buyumlari nomini bilish, tabiat va jamiyat hayotidagi hodisalarni aytib berish, fe'llardan faol foydalanish;
- rasmlarni, uy-ro'zg'or buyumlarini ko'zdan kechirayotganda, ularning nomlari, vazifalari va ba'zi xususiyatlarini bildiruvchi so'zlarni to'g'ri ishlatish;
- nutqda otlarni ko'plikda to'g'ri ishlatish, sifatlarni ot bilan shaxs va sonda moslashtirish, fe'llarni o'tgan va kelasi zamonda ishlatish;
- o'yinchoq, buyum va rasm mazmuni bo'yicha 2-3 ta gap tuza olish;
- o'yinchoqlar, turli buyumlar va fasllar bo'yicha tasvirlovchi hikoya tuza olish;
- buyumlarning (kiyim, idish-tovoq, mebel) nomini, belgisi va vazifalarini aytib, tarbiyachining savollari va namunalari asosida kichik-kichik tasviriy hikoyalar tuza olish;
- yaxshi tanish bo'lgan ertaklar mazmuni bo'yicha savollarga javob berish, rasmlarga qarab ularning asosiy mazmunini ayta olish;
- hikoyalarni tinglash va eshitgan, ko'rganlariga nisbatan o'z munosabatini bildirish, qo'shimcha izohlab berishni so'rash;
- bir necha oddiy gaplardan o'z bayonlarini shakllantirish;
- kitobdagi rasmlarga asoslanib, adabiy asarning mazmunini so'zlab berish;

muhokama qilish va savollar berish;

«r», «l» kabi ayrim tovushlarni talaffuz etishda ma'lum qiyinchiliklarga uchrashi mumkinligini hisobga olmaganda ovozli talaffuzni shakllantirish.

3 yoshdan 5 yoshgacha bo'lgan bolalar ta'limiga quyidagicha yondashish lozim:

nutqni rivojlantiruvchi muhit yaratish;

bola bilan nutqni rivojlantiruvchi mashqlarni o'tkazish, didaktik o'yinlarni o'ynash;

bolaga turli rasmlar, albomlarni ko'rsatish;

bola bilan birga tavsiflovchi hikoyalarni tuzish;

bolaning ertaklarni tinglashini rag'batlantirish;

bolaning boshqa odamlar bilan rolli o'yinlar o'ynashini rag'batlantirish;

bolaga kitoblarni ovoz chiqarib o'qib berish;

bolaga ko'proq qiziqarli va kulgili hikoyalarni aytib berish;

bolaning she'r yodlab olishini rag'batlantirish;

bolaning yaqin atrofidagi narsalar to'g'risida so'zlab berishini rag'batlantirish;

bolani imkoniyat bo'lganda doimo suhbatlarga jalb qilish;

bolani ko'rgan va eshitganlariga nisbatan o'z munosabatini bildirish hamda o'zi tushungan narsalarni bayon etishga rag'batlantirish;

bolaga hikoyalar, ertaklarning boshi va eng muhim jihatlarini ajratishga yordam berish.

3 yoshdan 5 yoshgacha bo'lgan bola bilan munosabatlarda quyidagilarga rioya qilish lozim:

bolaga taqdim etiladigan material uning yosh xususiyatlariga mos kelishi zarur;

bolani so'zlashishda shoshiltirmaslik;

mazkur yoshda hissiyotlar nutqdan ustun turishi sababli, bola o'zining nutqdagi bilim va ko'nikmalarini namoyish etayotganda, uning qo'liga biror-bir buyum berish kerak.

Quyidagilar 5 yoshdan 7 yoshgacha bo‘lgan bolalarda nutq rivojlanishining talablari hisoblanadi:

- nutqni tinglash va tushunish;
- so‘zlashish va muloqot yuritishga qodir bo‘lish;
- nutq-tovush madaniyatini shakllantirish;
- oddiy tahlil va sintez qilish ko‘nikmalarini rivojlantirish;
- so‘z boyligini faollashtirish;
- nutqning grammatik tuzilishini shakllantirish;
- bog‘lanishli nutqni shakllantirish;
- ijodiy hikoya qilishni shakllantirish.

Quyidagilar 5 yoshdan 7 yoshgacha bo‘lgan bolalarda nutq indikatorlari hisoblanadi:

- musobaqalar va munozalarda ishtirok etish, u erda eshitgan ko‘rsatmalarini to‘g‘ri bajarish;
- ayrim maxsus so‘zlarning ma’nosini bilish;
- eshitgan hikoyalarni osonlikcha bayon qilish;
- ona tilini juda yaxshi bilish, fikrni oddiy va umumiy foydalanishdagi gaplar yordamida ifodalash;
- mavjud til tizimi (tovush, so‘z, gap) to‘g‘risida elementar (oddiy) tasavvurga ega bo‘lish;
- so‘zdan tovushni, unli va undosh tovushlarni ajrata olish;
- narsalarning nomlarini to‘g‘ri aytish, bir-biri bilan solishtirib, ayrim farqlarini tushunish;
- o‘z nutqida uyushiq bo‘lakli, sodda, yoyiq va qo‘shma gaplarning turli xillaridan foydalana olish;
- o‘yinchoqlar va buyumlar haqida hikoya tuza olish;
- shaxsiy tajriba, mazmunli rasmlar asosida hikoya tuza olish;
- gaplarni grammatik jihatdan to‘g‘ri tuza olish;
- surat (rasmlar) bo‘yicha mazmunli hikoya tuzish;
- umumlashtiruvchi so‘zlar, antonimlar, solishtirmalardan foydalanish;

harakatlarni rejalashtirish uchun nutqdan foydalanish;

o‘z tuyg‘ulari va niyatlarini nutq yordamida ifodalab, tengdoshlari va katta yoshdagilar bilan muloqotda ishtirok etish;

turli hikoyalarni so‘zlab berish, hikoyalarni o‘ylab topishga harakat qilish, qofiya va so‘z o‘yiniga qiziqish bildirish;

kitoblar, teleko‘rsatuvlardan nutqning turli parchalarini yodlab olish va ishlatish.

Quyidagilar 3 yoshdan 5 yoshgacha bo‘lgan bolalarda o‘qish va savod malakalari rivojlanishining talablari hisoblanadi.

bosma materiallarga qiziqish bildirish, harflar va ramzlarni ajrata olish;

«so‘z», «tovush» so‘zlarini tushunish;

yo‘zish ko‘nikmalarini o‘rganish.

Quyidagilar 3 yoshdan 5 yoshgacha bo‘lgan bolalarda o‘qish va savod malakalari indikatorlari hisoblanadi:

kitobdagi rasmlarga asoslanib, adabiy asarning mazmunini aytib berish;

asarning bir parchasini tinglab, bu qanday asarligini aytib berish;

she‘rlarni yoddan o‘qib berish;

rasmga qarab, so‘z birikmalari, 2-3 ta so‘zdan iborat gap tuzish;

tez-tez uchratadigan ramzlar, so‘zlar, logotiplarni tanish;

kichikroq yoshdagi bolalar yoki o‘yinchoqlar uchun kitob o‘qib berishga taqlid qilish;

kitob o‘qib berilayotganida, sahifani gorizonta yo‘nalish bo‘ylab kuzatib borish;

rasmlarning ma‘nosini anglab olish;

«so‘z», «tovush» so‘zlarini tushunish, ularni o‘yinlarda, amaliy mashqlarda qo‘llay olish;

so‘zdagi tovushlarni to‘g‘ri talaffuz etish;

oddiy chiziqlar, ilgaklar, belgilar nusxalarini ko‘chirish;

o‘zining atrofidagi ob‘ektlar yoki odamlarning rasmini chizish.

3 yoshdan 5 yoshgacha bo‘lgan bolalar ta‘limiga quyidagicha yondashish lozim:

guruhda bolalar adabiyotidan iborat kichik kutubxona tashkil etish;

bolani qo'g'irchoq teatrlariga tez-tez olib borish;

bolani turli, jumladan nasriy, she'riy adabiyotlar, hikoyalar bilan tanishtirish;

bolaning ayrim bosma so'zlar, ramzlarni tanishini rag'batlantirish;

bolaning salohiyatini rivojlantiruvchi muhit yaratish;

bolaga yaxshiroq chizishi uchun yordam berish;

bolani varaqda yozilgan harflarni ko'chirishiga yordam berish.

3 yoshdan 5 yoshgacha bo'lgan bolaning xavfsiz yashashi va harakatlanishi uchun quyidagilarga rioya qilish lozim:

bola yozish va o'qishni xohlamasa, uni bunga majburlamaslik;

ko'rish gigienasiga amal qilish;

bolani maxsus belgilangan ob'ektlarda rasm chizishga o'rgatish

5 yoshdan 7 yoshgacha bo'lgan bolalar ta'limiga quyidagicha yondashish lozim:

musobaqa, munozara va boshqa tadbirlarni tashkil etish, savollar berish va bolani to'g'ri javob berish yoki ko'rsatmalarni bajarishga rag'batlantirish;

bolaning yangi so'zlardan foydalanish va ularning ma'nosini bilish istaklarini rag'batlantirish;

bolaga muntazam ravishda hikoyalar aytib turish, teatrga olib borish, bola bilan taassurotlarini muhokama qilish;

rasmga qarab mazmunli hikoya tuzish, nutqni rivojlantirish bo'yicha maxsus trening va o'yinlar o'tkazishga yordam berish, qofiya va so'z o'yinlari, she'rlarni ifodali o'qish, ertaklarni aytib berish, shaxsiy hayotdan hikoya tuzishga ko'maklashish;

bolani ijodiy dramatik, rol ijro etiladigan o'yinlarda ishtirok etishga jalb qilish.

5 yoshdan 7 yoshgacha bo'lgan bola bilan munosabatlarda samimiyat, do'stonalik va himoya etilganlik muhitini saqlab turish lozim.

Quyidagilar 5 yoshdan 7 yoshgacha bo'lgan bolalarda o'qish va savod malakalari rivojlanishining talablari hisoblanadi:

bosma materiallarga qiziqish bildirish, harflar va ramzlarni ajrata olish;
 yozish ko'nikmalarini o'rganish;
 oddiy tahlil va sintez qilish ko'nikmalarini rivojlantirish.

Quyidagilar 5 yoshdan 7 yoshgacha bo'lgan bolalarda o'qish va savod malakalari indikatorlari hisoblanadi:

ko'p vaqt davomida kitob bilan o'tirib, uni tomosha qilish, kitobni to'g'ri holatda ushlash;

ayrim ma'lumotlarni yig'ish uchun kitoblardan foydalanish;
 bir necha mashhur asarlar va adabiy qahramonlarni aytib berish;
 adabiy asarlarning ayrim parchalarini so'zlab berish;
 alifboni bilish;

bo'g'inlar bo'yicha o'qishi mumkinligi;

ilmoq, gajak, chiziqchalar, tayoqchalar kabi yozish elementlarining barchasini bilish;

yoziq ko'nikmalarini o'rganish;

namunadan 2-3 ta so'zlarni olib yoziq va chiziq;

o'z ismini va 2-3 ta so'zlarni bosma harflarda mustaqil ravishda yoziq;

gapni so'zlarga, so'zlarni bo'g'inlarga bo'lish;

ma'lum tovushlarning o'rnini aniqlay olish;

so'zda tovushlar ketma-ketligini aniqlash;

bo'g'inlardan so'zlar, so'zlar ishtirokida gap tuza olish;

tovushlarni eshitib farqlay olish.

5 yoshdan 7 yoshgacha bo'lgan bolalar ta'limiga quyidagicha yondashish lozim:

bolaga kitoblar berish, kitobni to'g'ri yo'nalishda ko'rishga odatlantirish;

bolani uni qiziqtiradigan ma'lumotlarni rasmlar bilan bezatilgan kitoblardan topishga yo'naltirish;

bolaga kitoblar to'g'risidagi ma'lumotlarni berish;

bolaning atrofida mavjud buyumlarni ramziy nomlash bo'yicha harflar bilan maxsus o'yinlarni o'tkazish;

bolalar uchun mo'ljallangan namunalarda harflar yoki so'zlarni chizish va bolaning mustaqil yozishini rag'batlantirish hamda kuzatish;

bolani o'z harakatlari va hissiyotlarini tasvirlashga o'rgatish;

bolaning turli qahramonlarga maktub «yozishi» va «olishiga» yordam berish;

bolaning rasm chizishini rag'batlantirish va rasmlarni unga ma'lum ob'ektlarda chizishga ko'rsatma berish.

5 yoshdan 7 yoshgacha bo'lgan bolaning xavfsiz yashashi va harakatlanishi uchun quyidagilarga rioya qilish lozim:

kitoblarning estetika talablariga javob berishiga e'tibor qaratish;

yo'zuv-chizuv jihozlarini ularning texnik parametrlariga qarab xarid qilish.

"Bolajon" tayanch dasturi maktabgacha ta'lim tizimidagi barcha muassasalar uchun

bajarilishi zarur bo'lgan dastur hisoblanadi.

Tayanch dasturning maqsadi "Maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan davlat talablari"ning bajarilishiga erishishdan, ya'ni maktabga jismonan sog'lom, aqlan va ma'nan etuk, jamiyatning turli a'zolari bilan muloqotda bo'la oladigan, borliqni aniq idrok etadigan, hayotga ijtimoiy jihatdan moslashuvchi, umummilliy qadriyatlarimizni qadrlaydigan, shuningdek, mustaqil va ongli yashaydigan bolani tayyorlashdan iborat.

Dasturning vazifasi bolalarni jismoniy, aqliy hamda ijtimoiy-hissiy jihatdan kamol toptirish va ularning sog'lig'ini muhofaza qilish; bolalarning erkin fikrlash, ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish, axloqiy va ma'naviy jihatdan barkamol, shuningdek, kepajakda mustaqil va ongli yashaydigan komil insonlar etib voyaga etkazish uchun shart-sharoitlar yaratishdan iboratdir.¹⁰

Ilk yosh davrida nutq, o'qish va savodga tayyorgarlik

Nutq. Kattalarning nutqini tushunish, so'z bo'laklarini va 1-2 bo'g'indan iborat oddiy so'zlarni ayta olish.

¹⁰ "Bolajon" tanch dastur. T., 2010 yil

Predmetlarning nomlarini aytish va ular bilan harakat qilish (bu “ninni”, “ninni ux”), “ninni qani?” kabi savollarni berish, rasmda predmetlarni tanish (Bu bo-bov), o‘z harakatlarini so‘z bilan ifodalash, murakkab bo‘lmagan harakatlarni bajarish (kubikni olib kel).

Badiiy adabiyot bilan tanishtirish. Bolalarda badiiy adabiyotga nisbatan qiziqish uyg‘otish. Ularga doimiy ravishda xalq og‘zaki ijodidan: alla, erkalama (“Hamma gulni gul desam...”, “Mening qizim oppoqqina...”, “Akbarjonim otlidur...” v.b.); ovutmacholqlar (“Yig‘lama-ey, yig‘lama”, “Voy, yig‘lama jon o‘g‘lim...” v.b.); olqish qo‘shiq-lari (“YUgursa onasi ko‘rsa...”, “Oymoma illa...”, “Aylanayin oqchamdan...” v.b.) aytish. Qisqa she‘rlarni ifodali o‘qib berish.

O‘qish va savodga tayyorgarlik. Kitobdagi rasmlarni tomosha qilib, tasvirlangan predmetlarni nomlash, qalam va ruchka yordamida gorizont-al, doirasimon va vertikal chiziqlarni chizish.

2-3 yoshda nutq, o‘qish va savodga tayyorgarlik

Bolalarda katta yoshli kishilarning nutqini tinglash va tushunish, kattalar va tengdoshlari bilan muloqotga kirishish, kattalarga iltimos orqali murojaat qilish “Kim?”, “Nima?”, degan savollar berish, alohida so‘z va qisqa–qisqa jum-lalarni tushunishdan kattalarning og‘zaki ko‘rsatmasini bajarish, mustaqil o‘yinlarda bola o‘z harakatlarini nutq orqali ifodalash, predmetlar va ularning bo‘laklarini va sifatlarini aytib berish (mashina, unda rul, g‘ildiraklar bor, u yuradi, u katta), turli buyumlar va rasmlarni diqqat bilan ko‘rish malakasini hosil qilish.

Nutqda tovush madaniyatini tarbiyalash. So‘zga taqlid qiluvchi tovushlardan foydalanib, unli (*e, i, a, o, u, o‘*) va undosh (*m, n, b, p, t, d, k, g, f, v*) tovushlarni to‘g‘ri talaffuz etishni mashq qildirish. Bolalarga berilgan savollarga javob berishni o‘rgatish. To‘g‘ri jumla tuzishlariga e‘tibor berish. Bolalarda ermak, ovutmacholq va she‘rlarni qaytarish ko‘nikmasini tarkib toptirish, ularda chiroyli, to‘g‘ri gapirish ishtiyoqini tarbiyalash.

Lug‘at ishi. Tovushga taqlid qilishdan odatdagi so‘zlarni talaffuz qilishga o‘tkazishni davom ettirish: tovushga taqlid qiluvchi (“vov-vov”, “chiq-chiq”) kabilarni osonlashtirilgan to‘g‘ri so‘zlar (kuchuk, soat) bilan almashtirish, taqlid

qilishni o‘stirish, ya’ni “ayt”, “qaytar” kabi topshiriqlarni bajartirish, bu bilan so‘zlarni tushunish bolaga turli tovush, bo‘g‘in va so‘zlarni talaffuz etib mashq qildirish orqali so‘z boyligini orttirish.

Bolalarning so‘z boyligini buyumlar nomini anglatadigan otlar (kiyim, idish-tovok, mebel, o‘yinchoqlar), o‘simliklar (daraxt, o‘t, gul va b.), sabzavot (sabzi, pomidor, bodring va b.), mevalar (olma, olcha va b.), uy hayvonlari (xo‘roz, tovuq, sigir, it, mushuk va b.), ularning bolalari (jo‘ja, buzoqcha, kuchukcha va b.) bilan ayrim harakatlarni ifodalovchi fe’llar (yugurmoq, artmoq, kir yuvmoq, dazmollamoq, ekmoq va b.), sifatlar (katta, kichik, qizil, sariq, ko‘k, oq, qora, issiq, sovuq, shirin, achchiq, dumaloq), ravishlar bilan (uzoq, yaqin, past, baland) boyitish.

Katta-kichik, baland-past, ko‘p-kam kabi so‘z birikmalarini bolalar lug‘atiga kiritish.

Lug‘atni faollashtirish. Rasmlarni, uy-ro‘zg‘or buyumlarini ko‘zdan kechirayotganda ularning nomlarini, vazifalarini va ba’zi sifat xususiyatlarini bildiruvchi so‘zlarni to‘g‘ri ishlatishga o‘rgatish.

Bolalarning o‘z nutqlarida o‘rgangan so‘zlarini so‘z o‘yinlari orqali mustahkamlab borish.

Nutkning grammatik tuzilishini shakllantirish. Hayvon va parrandalarni birlik va ko‘plikda ifodalashga o‘rgatish. Ayrim hayvonlar bolalarini bildiruvchi so‘zlarning yasaliş yo‘llariga e’tiborini qaratish. Bolalarga voqeaning vaqtini, joyini ifodalaydigan so‘zlarni, sodda gaplarning tuzilishini o‘zlashtirib olishlarida yordam berish.

Bog‘lanishli nutqni shakllantirish. So‘zlashuv nutqini o‘stirish. Bolalarda tarbiyachining nutqini tinglash va tushunish, berilgan savollarga tortinmasdan javob berish malakasini shakllantirishni davom ettirish. Ularni savol bilan murojaat etishga o‘rgatish.

Bolalarni tanish hikoya va ertak (tarbiyachining savollari va kitobdagi rasmlar yordamida, keyinchalik mustaqil)larni qayta hikoya qilishga o‘rgatish.

O'yinchok, buyum va rasm mazmuni bo'yicha hikoyani (3-5 so'zlar orqali) takrorlash ko'nikmasini tarbiyalash.

Tanish ertaklardan olingan parchalarni sahnalashtirishda qatnashishga undash.

Badiiy adabiyot bilan tanishtirish. Bolani kitobni ko'rishga bo'lgan qiziqishini uyg'otish, unga ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo'lishni tarbiyalash.

Bolalarda hajmi katta bo'lmagan ertak, ermak, she'rlarni berilib tinglash, tushunish, voqealar rivojini diqqat bilan kuzatish ishtiyoqini tarbiyalash.

Bolalarga doimiy ravishda o'zbek xalq bolalar qo'shiqlarini aytish: erkalamalar ("Gulijon o'zi-o'zi...", "Mening o'g'lim o'tlanadur..."), mavsum qo'shiqlari ("Boychechagim xillolik...", "Laylak kelsa, soz bo'lar..."), aytishmalar ("Quyoning-quyoning", "Adajon, hormang..."). Ixcham she'rlar bilan tanishtirish (A.Obidjon. "Bahoroyning ashulasi", H.Rahmat "Quyoncha", O.Mahkamov. "Kapalak") orqali she'riy ohangning jozibadorligidan zavqlanish, shodlanish kabi his-tuyg'ularni tarkib toptirish.

Bolalar tushunchasiga mos qisqa, sodda ertak va hikoyalarni ("Ikki echki", "Ochko'z it", M.Murodov. "Velosiped haydagan qo'g'irchoq", A.Irisov. "Bilmay qolib" v.b.)tinglash va tushunish kabi dastlabki ko'nikmalarni tarkib toptirish. Bolalarni asta-sekin asar voqealari asosida berilgan oddiy, sodda savollarga javob berishga o'rgatish. Ularning e'tiborini asar mazmuni asosida ishlangan rasmlarga qaratish, diqqat bilan tomosha qilishga odatlantirish.

O'qish va savodga tayyorgarlik. Bolalarda tanish asarlarda alohida so'z va iboralarni ifodalay olishga o'rgatish. Voqealardagi murakkab bo'lmagan dialoglarni takrorlash, harakatlar bilan bajariladigan ermaklarni ijro etish ko'nikmalarini uyg'otish.

Qalam yordamida egri chiziqlar, doiralarni chizish.

3-4 yoshda nutq, o'qish va savodga tayyorgarlik

Bolalarda katta yoshli kishilarning nutqini tinglash va tushunish, o'zining ehtiyojini qondirish uchun murojaat qilish ("Qo'g'irchoqni ber", "Ovqat eyman"), savol berish, o'zining hatti harakatlarini boshqarishini so'z bilan ifodalash ("Men

qilaman”), o‘zini va o‘zining faoliyatini so‘z bilan ifodalash (“Men yaxshiman”, “CHiroyli bo‘ldi”) kabi iboralar bilan ifodalashga, turli buyumlar va rasmlarni diqqat bilan ko‘rish malakasini hosil qilish.

Nutq tovush madaniyatini tarbiyalash. Bolalarning anik, shoshilmay, etarlicha baland ovozda gapirishlarini kuzatish. So‘zga taqlid qiluvchi tovushlardan foydalanib, bu so‘zlarni har xil balandlikda va tezlikda, unli (e, i, a, o, u, o‘) va undoshlar (m, n, b, p, t, d, k, g, f, v)ni to‘g‘ri talaffuz etishni mashq qildirish. Havoni og‘izdan bir tekisda va cho‘zib chiqarishni o‘rgatish. Bolalarga berilgan savollarga javob berishni o‘rgatish, biror voqeani (rasmda ko‘rgan yoki eshitgan) so‘zlab berishga undash. To‘g‘ri jumla tuzishlariga e‘tibor berish. Bolalarda ermak va she‘rlarni aytish ko‘nikmasini tarkib toptirish, ularda chiroyli, to‘g‘ri gapirish ishtiyoqini tarbiyalash.

Lug‘at ishi. Bolalarning so‘z boyliklarini buyumlarning nomini anglatadigan otlar (kiyim, idish-tovoq, mebel, o‘yinchoqlar), o‘simliklar (daraxt, o‘t, gul va b.), sabzavot (sabzi, karam, sholg‘om, pomidor, bodring va b.), mevalar (olma, nok, olcha, limon va b.), uy hayvonlari (xo‘roz, tovuq, ot, sigir, it, mushuk va b.), ularning bolalari (jo‘ja, toycha, buzoq, kuchukcha va b.) bilan ayrim harakatlarni ifodalovchi fe‘llar (yugurmoq, artmoq, pishirmoq, tayyorlamoq, kir yuvmoq, dazmollamoq, ekmoq va b.) sifatlar (katta, kichik, qizil, sariq, ko‘k, zangori, oq, qora, issiq, sovuq, shirin, achchiq, dumaloq) bilan vaqtni belgilaydigan ravishlar bilan (kecha, bugun, ertaga, uzoq, yaqin, past, baland) boyitish.

Bolalarning tevarak-atrofdagi narsa va hodisalar haqidagi tasavvurlarini kengaytirish, so‘zlarning ma‘nolarini asta-sekin chuqurlashtirib borish asosida so‘z boyligini orttirish (buyumlarning sifati va xususiyatlarini, rangi, katta-kichikligi).

Katta-kichik, baland-past, ko‘p-kam, ko‘p-bitta kabi so‘z birikmalarini bolalar lug‘atiga kiritish.

Lug‘atni faollashtirish. Rasmlarni, uy-ro‘zg‘or buyumlarini ko‘zdan kechirayotganda ularning nomlarini vazifalarini va ba‘zi sifat xususiyatlarini bildiruvchi so‘zlarni to‘g‘ri ishlatishga o‘rgatish. Bolalarning o‘z nutqlarida o‘rgangan so‘zlarini so‘z o‘yinlari, topishmoqlar orqali mustahkamlab borish.

Nutqning grammatik tuzilishini shakllantirish. Bolalarga otlarni ko‘plikda to‘g‘ri ishlatishni, sifatlarni ot bilan shaxs va sonda moslashuvini, fe‘lning o‘tgan va kelasi zamonda ishlatilishini mashq qildirish, ularni so‘roq so‘zlarning intonatsiyasini egallashga tayyorlash. Otlarni kelishik qo‘shimchalari bilan to‘g‘ri turlashga (Anvarni, Anvarning, Anvarga), fe‘llarni shaxs-zamon qo‘shimchalari bilan to‘g‘ri tuslashga (oldim, olding, oldi) o‘rgatish. Hayvon va parrandalarni birlik va ko‘plikda ifodalashga o‘rgatish. Ayrim hayvonlarning bolalarini bildiruvchi so‘zlarning yasaliş yo‘llariga e‘tiborini qaratish. Bolalarga voqeaning vaqti, joyini ifodalaydigan so‘zlarni sodda va qo‘shma gaplarning tuzilishini o‘zlashtirib olishlarida yordam berish.

Uyushiq bo‘lakli gaplar tuzishga o‘rgatish (Sobir koptok, ko‘g‘irchoq, bayroqchani oldi).

Bog‘lanishli nutqni shakllantirish.

So‘zlashuv nutqini o‘stirish. Bolalarda tarbiyachining nutqini tinglash va tushunish, berilgan savollarga tortinmasdan javob berish malakasini shakllantirishni davom ettirish. Ularni savol bilan murojaat etishga o‘rgatish.

Bolalarni tanish hikoya va ertak (tarbiyachining savollari va kitobdagi rasmlar yordamida, keyinchalik mustaqil)larni qayta hikoya qilishga o‘rgatish.

O‘yinchoq, buyum va rasm mazmuni bo‘yicha hikoyani (2-3ta gapdan iborat) takrorlash ko‘nikmasini tarbiyalash, tanish ertaklardan olingan parchalarni sahnalashtirishda qatnashishga undash.

4-5 yoshda nutq, o‘qish va savodga tayyorgarlik

Tevarak-atrofdagi bilim va tasavvurlarni chuqurlashtirish asosida bolalarning so‘z boyligini oshirish va faollashtirish. Bolalarni o‘zining ehtiyojini qondirish uchun murojaat qilish, savol berish, o‘zining hatti harakatlarini boshqarish, faoliyatini so‘z bilan ifodalash, tabiat hodisalarini ifodalay olish, bir qancha sodda gaplardan hikoya tuza olish, turli buyumlar va rasmlarni diqqat bilan ko‘rish malakasini hosil qilish.

Nutqni rivojlantiruvchi muhitni yaratish maqsadida ta‘limiy o‘yinlar o‘tkazish.

Tovush madaniyatini tarbiyalash. Bolalarning *h, k, o', e, r, l, s* kabi tovushlarni aniq, to'g'ri talaffuz etishlarini mustahkamlash. Ona tilidagi barcha tovushlarni aniq, to'g'ri talaffuz etish. So'zlarni o'rtacha balandlikda, dona-dona talaffuz etish, jumla oxirida to'xtab, bir me'yorda gapirish malakalarini o'stirishni davom ettirish. Fonetik idrokni, eshitib, tovush va so'zlarni farqlashni shakllantirish. So'zlarni adabiy talaffuz qoidalariga rioya etgan holda aytishlarini takomillashtirib borish. Bolalarga turli suhbatlarda ishtirok etish, suhbat mavzui bo'yicha berilgan savollarga to'g'ri javob qaytarish va savollarni to'g'ri bera bilish kabilarni o'rgatishni davom ettirish.

Lug'at ishi. Tevarak-atrofdagi narsa-hodisalar haqidagi bilim va tasavvurlarini chuqurlashtirish va kengaytirish asosida bolalar lug'atiga buyumlar, ular qanday mahsulotlar (yog'och, temir, chinni, plastmassa)dan tayyorlanganligi, sifati va ularning vazifasini bildiruvchi so'zlarni kiritish. SHu bilan birga turli kasblarni bildiruvchi nomlar: oshpaz, enaga, sotuvchi, quruvchi, haydovchi. Ularning bajaradigan ishlari: pishiradi, boqadi, sog'adi, quradi, haydaydi. Buyumlarning joylashish o'rni: o'ngda, chapda, o'rtasida, orqasida, yaqinida, yonida. Vaqt jihatdan har bir kun turli qismlarga bo'linishi: ertalab, kunduzi, kechqurun, kechasi va b. Insonlarning holat va kayfiyatlarini (xafa, xursand), qarama-qarshi ma'noni bildiruvchi so'zlar (antonimlar): katta-kichik, uzun-qisqa, qorong'i-yorug' kabi so'zlardan foydalanishga o'rgatish. Turkum tushunchalarini anglatuvchi so'zlar: sabzavot, meva, mebel, poyafzal kabilarni tushunish va qo'llash malakalarini o'stirishni davom ettirish.

Lug'atini faollashtirish. Bolalarning o'z nutqlarida o'rgangan so'zlaridan, ayniqsa, buyumlarning nomi, qismlarini bildiruvchi otlardan, ularning rangi, tusi va xossalarini anglatuvchi sifatlardan: silliq, g'adir-budur, og'ir, engil, sinadi, sinmaydi kabi ko'p foydalaniladigan fe'l va ravishlardan mustaqil, erkin, to'g'ri foydalanish malakalarini o'stirish.

Nutqning grammatik tuzilishini shakllantirish. Bolalarni gapirganda, hikoya qilganda so'zlarni grammatik jihatdan to'g'ri o'zlashtirishga, ya'ni otni kelishik jihatdan to'g'ri turlashga – qo'g'irchoq, qo'g'irchoqni, qo'g'irchoqning,

qo'g'irchoqqa, qo'g'irchoqda, qo'g'irchoqdan kabi, birlik va ko'plikda to'g'ri aytishga - koptok-koptoklar, kitob-kitoblar kabi; fe'llarni shaxs va zamonda to'g'ri tushlashga – o'ynadim, o'ynading, o'ynadi, o'ynadingiz o'ynadilar kabi; ayrim so'zlarning yasaliş usullarini (qand-qanddon, gul-guldon, tuz-tuzdon kabilarni) o'rgatish, Bolalarning jumlani to'g'ri tuzishlariga, gapning har xil turlaridan (sodda, qo'shma) o'rinli foydalanishlariga e'tibor berish.

Bog'lanishli nutqni shakllantirish. Bolalarning so'zlashuv va hikoya qilib berish nutqini o'stirish. Ularni suhbat paytida faol ishtirok etishga undash. Bolalarda savollarga javob berish, savol berish malakalarini o'stirish, mavzu bo'yicha berilgan savollarga tushunib, qisqa va to'liq javob berish, o'rtoqlarining berayotgan javoblariga e'tibor berish malakasini takomillashtirish.

Bolalarni hikoya qilish malakasini shakllantirishda tanish hikoya va ertaklarni mustaqil holda qayta hikoya qilishga, voqealarni ketma-ket bog'langan holda, grammatik jihatdan to'g'ri jumlar tuzib bayon qilishga o'rgatish. Bolalarning badiiy asarlarni qayta hikoya qilish malakasini o'stirish. Adabiy asarlari mazmunli, mantiqiy izchillikda, asar qahramonlarining suhbatini ifodali so'zlab berishga o'rgatish.

Mashg'ulotlarda birinchi marta o'qib berilgan kichik ertak va hikoyalarning mazmunini qayta hikoya qilishga, o'rtoqlari hikoya qilayotganda e'tibor bilan tinglashga undash.

O'yinchoqlar, turli buyumlar va fasllar bo'yicha tasvirlovchi (avval tarbiyachining savollari, so'ngra u bergan namuna va reja asosida) hikoya tuzishga o'rgatish.

Bolalarga tanish ertak va hikoyalarni tinglashni, ularda ishtirok etuvchi personajlarning gaplarini o'ziga xos xususiyatlarini tushunib, ifodali tarzda hikoya qilayotgan o'rtoqlarining nutqini diqqat bilan eshitishni, asar matni noto'g'ri aytilgan joylarni payqashga o'rgatishni davom ettirish.

Buyumlarning (kiyim, idish-tovoq, mebel) nomini, belgisi va vazifalarini aytib, tarbiyachining savollari va namunalari asosida kichik-kichik tasviriy hikoyalar tuzishga o'rgatish. Voqeband(syujetli) rasmlar bo'yicha ham kichik

hikoyalar tuzish malakalarini shakllantirishni davom ettirish. Bolalarni mustaqil hikoyalar tuzib, o'z fikrlarini erkin va izchil bayon etishga o'rgatish.

5- 6 yoshda nutq, o'qish va savodga tayyorgarlik

Bolalarni ona tilida bemalol so'zlasha olish, keng tarqalgan sodda gaplarni ishlatish, murakkab gapni grammatik jihatdan to'g'ri tuza olish, rasmlar ustida hikoya tuza olish, antonim, sinonim va qiyosiy so'zlarni ishlatishga, tengdoshlari va kattalar bilan o'z his tuyg'ularini bildirib diologda qatnashishga o'rgatib borish.

Nutqning tovush madaniyatini shakllantirish. Ona tilidagi barcha tovushlarni to'g'ri talaffuz etish malakalarini mustahkamlash Fonetik idrokni o'stirishda davom etish. Bolalarga *s-z, p-f, t-d, p-b, l-r, u-o', x-h, k-g* tovushlarini to'g'ri talaffuz etish va ularni farqlashni; ovoz sifatlarini (baland, o'rtacha, past, yo'g'on, ingichka, juda ingichka), nutq sur'atini (tez, o'rtacha, sekin) tarbiyalash, so'zda tovush o'rnini belgilashga o'rgatish (m-m-m-mu-shuk, m-u-u-u-shuk, mu-sh-sh-sh-uk; "tovush" iboralari bilan tanishtirish va ularni farq qilishga, mashqlarda, o'yinlarda ularni qo'llashga o'rgatish. Adabiy nutqni tarbiyalashni davom ettirish.

Tovushlarni to'g'ri talaffuz etishni, ayrim unli va undosh tovushlarini o'zlashtirishni mustahkamlash. Bolalar eshitganda va talaffuz etganda tovushlarni (uzun-qiska, jarangli-jarangsiz) ajrata olishni mashq qildirish tovush talaffuzidagi nuqsonlarni yo'qotish. So'zlayotganda to'g'ri nafas olishni rivojlantirish.

Bolalarning so'zlarni adabiy til normalari asosida orfoepik jihatdan to'g'ri, aniq, dona-dona qilib talaffuz etishlarini takomillashtirish. Ovoz kuchining past-balandligini nutq sur'atiga nutq munosabati sharoitga qarab o'zgartira bilishni shakllantirish, ohang vositalaridan to'g'ri foydalanishga o'rgatish.

Bolalarga qattiq va yumshoq undosh "h" va "x" tovushlarini ajratish va to'g'ri talaffuz etish mashqlarini bajartirish (bu tovushlar ustida ishlash keyinchalik ham davom ettiriladi).

Bolalarning so'zlarni aniq va burro talaffuz etishlarini mashq qildirishni davom ettirish. Bunda adabiy til normalariga asoslanib so'zlarni to'g'ri talaffuz

etish, soʻzlashuv mavzusi boʻyicha tasviriy vositalardan, ovozning past-balandligi, nutq surʼatidan toʻgʻri foydalanish malakasini tarkib toptirish.

Lugʻat ishi. Bolalarning tevarak–atrofdagi hodisalar haqidagi bilimlarini aniqlash, mustahkamlash va kengaytirish asosida ularning nutqini boyitish va faolligini oshirish. Bolalar lugʻatiga respublika, mustaqil davlatlar hamdoʻstligi, shahar, qishloq va koʻchalar, kasb-hunarga oid (gʻisht teruvchi, boʻyoqchi, duradgor, paxtakor, gʻallakor, chorvador, oʻqituvchi, tarbiyachi), qurilish va qishloq xoʻjaligida foydalaniladigan mashinalar (ekskavator, koʻtarma kran, traktor, kombayn...), narsalarning oʻziga xos muhim belgilari va rangi (yorqin, ochiq, odmi, pishiq, puxta va shu kabilar, odamlarning oʻz mehnatiga nisbatan munosabatini ifodalovchi (betartib, ehtiyotkor, tadbirli, sinchkov, saramjom-sarishta va shu kabi) nom va soʻzlarni kiritish mumkin.

Xalq maqollari, matallari va iboralarini tushuntirish (“Kattaga hurmat, kichikka izzatda boʻl”, “Birni kessang, oʻnni ek”, “Doʻst boshga ish tushganda sinaladi”, “YAxshi soʻz bilan, yomon musht bilan”, ”YOlgʻon gapirmasang, xijolat chekmaysan" va boshqalar).Qarama-qarshi maʼnoli (antonim) soʻzlarni (uzun-qiska, kecha-kunduz, kuchli-kuchsiz, past-baland) maʼnosi bir xil, ammo aytilishi xilma-xil boʻlgan soʻzlar (sinonim)ni (xursand, shod, quvnoq; bahor, koʻklam, navroʻz, koʻrkam, chiroyli, goʻzal va boshqalar), aytilishi bir xil, ammo maʼnolari xilma-xil boʻlgan soʻzlar (omonim)ni (oʻt-maysa, oʻt-ariqdan oʻtish, oʻt-olov va boshqalar) tushunib, oʻz oʻrnida toʻgʻri qoʻllash malakalarini mustahkamlash.

Lugʻatni faollashtirish. Bolalarning narsalarning nomlarini toʻgʻri aytishga oʻrgatish, bu narsalarni bir-biri bilan solishtirib, ayrim farqlarini tushunish va shu orqali ularning lugʻat boyligini oshirish. Masalan, narsalarning nimadan qilinganligi, shakli, rangi, sifati, oʻlchovi, xossalarini anglatuvchi soʻzlarni oʻrgatish.

Soʻz turkumlari haqidagi tushunchalarni bolalar qay darajada tushunishlari va qoʻllashlarini aniqlash. Umumlashtirilgan soʻzlarni toʻgʻri tushunishlariga, ulardan oʻz nutqlarida foydalanishlariga eʼtibor berish.

Buyumlarning nimadan yasalganini bildiruvchi soʻzlar (chinni loy, metall, plastmassa, gazlama va boshqalar)ni oʻzlashtirishlari, bu oʻzlashtirishning davom etishiga ahamiyat berish.

Bolalarda ona tiliga nisbatan muhabbat, toʻgʻri gapirishga oʻrganish istagini tarbiyalash va mustahkamlash.

Nutqning grammatik tuzilishini shakllantirish. Bolalarda oʻz nutqi va boshqalar nutqiga nisbatan tanqidiy munosabatni tarbiyalash, ularni toʻgʻri gapirishga oʻrgatish, gapirganda soʻzlarni bir-biriga bogʻlab, jumlar tuzish malakasini mustahkamlash. Ot, sifat, feʼllarning murakkab grammatik shakllaridan foydalanishni mashq qildirish. Jonivorlar, narsalar, idish-tovoqlar, kasblar boʻyicha shaxslarning nomlarini topib aytishga oʻrgatish.

Oʻz nutqida uyushiq boʻlakli, sodda yoyiq va qoʻshma gaplarning turli xillaridan foydalanish malakasini mustahkamlash, (bogʻlangan qoʻshma gap, ergashgan qoʻshma gap. Masalan: Malika keldi va biz birga kitob koʻrdik. Madina qoʻrqdi, shuning uchun biz argʻimchoq ucha olmadik. Bunda koʻmakchi va bogʻlovchi soʻzlardan foydalanishga oʻrgatish). Bolalarni ravishdan foydalanishga oʻrgatish (tez yurdi, sekin gapirdi), soʻz yasash malakalarini mustahkamlash (Oʻqit-oʻqituvchi, baliq-baliqchi, baliqlar va boshqalar).

Bir fikrni turli vositalar bilan bayon qilishga, (SHahzoda xursand boʻldi, SHahzoda quvondi) bir-birining oʻrnini, bosadigan gaplarni (Biz gul ekmaymiz, chunki yomgʻir yogʻa boshladi. YOmgʻir yogʻa boshlagani uchun biz gul ekmaymiz) tuzishga oʻrgatish.

Bolalarga toʻgʻri grammatik shakllarni mashq qildirishda koʻproq ogʻzaki mashq va oʻyinlardan foydalanishga oʻrgatish. Masalan: “Ayt-chi qanday?” ogʻzaki oʻyini: “Qor qanday?” Oppoq, muzday, sovuq, mayda; “Gul qanday?” CHiroyli, qizil, xushboʻy...

Bolalarni sodda (Qizil olma) va qoʻshma gaplar (Biz polizga ekin ekdik) tuzishga (avval namuna asosida, keyin mustaqil), bunda barcha soʻz turkumlaridan foydalanishga oʻrgatish.

Bolalarni gapirganda sonni otga (stol ustida beshta nok va ettita olma bor), sifatni otga (chiroyli ko‘ylak, qizil olma), sifatni fe‘lga (qo‘shiqni yoqimli kuylaydi, rasmni chiroyli chizadi) to‘g‘ri bog‘lash, hayvonlarning bolalarini bildiruvchi otlarni ko‘plik sonida (toychoqlar, qo‘zichoqlar, buzoqchalar) to‘g‘ri ishlatish malakalarini takomillashtirish. Bolalarni turli usullar bilan yangi so‘zlar yasash (gul-guldon, gulzor, gulchi, Gulnora, qand-qanddon, suv-suvli, suvchi va boshqalar)ga, nutqda sifatdoshlardan (o‘qiyoggan bola, o‘ynayotgan kapalak) foydalanishga o‘rgatish.

Bog‘lanishli nutqni shakllantirish. Bolalar bilan og‘zaki nutqning ikki shakli-so‘zlashuv va hikoya qilib berish nutqini o‘stirishni davom ettirish. Ularni suhbat paytida faol ishtirok etishga undash, mavzu bo‘yicha berilgan savollarga tushunib, qisqa va to‘liq javob berish o‘rtoqlarining berayotgan javoblariga e‘tibor berish malakasini takomillashtirish.

Bolalarni nutqning ifodali vositalari: imo-ishora, yuz harakatlari, ovoz sifatleri (baland, o‘rtacha, past, juda past va hokazo)dan foydalanishga o‘rgatish, nutqiy muloqot madaniyatini tarbiyalash. Badiiy asarni qayta hikoya qilish, mustaqil hikoyalar tuzishda voqealarni ketma-ket bog‘langan holda, grammatik jihatdan to‘g‘ri jumlar tuzib bayon qilishga o‘rgatish. Bolalarning badiiy asarlarni qayta hikoya qilish malakasini o‘stirish. Adabiy asarlari mazmunli, mantiqiy izchillikda, aniq va tasviriy ifodalardan foydalangan holda hikoya qilishga o‘rgatish.

Tarbiyachi qayta hikoya qilishni o‘rgatayotganda bolalar diqqatini, ayniqsa, ertakning boshlanishi, takrorlanishi, xulosa qismiga, hikoyalardagi ikki kahramonning o‘zaro nutqi kabilarga qaratishi lozim.

Bolalar asar voqealarini so‘zlayotganda ovoz ohangining xilma-xil turini (so‘roq, his-hayajon, xayratlanish, iltimos) kabilarni qo‘llay bilishlariga erishish.

Bolalarga o‘yinchoqlar va buyumlar haqida hikoya tuzishni o‘rgatayotganda o‘yinchoqlarni ta‘riflab berishga, o‘yinchoqlarning o‘ziga xos xususiyatlarini ko‘rsatuvchi belgilarini (rangi, shakli, qanday o‘ynalishi va boshqalar) aniq so‘zlar orqali ifodalashga o‘rgatish.

Ijodiy hikoya qilish. Bolalarni tarbiyachi tomonidan aytilgan hikoya yoki ertakni nihoyasiga etkazish, jummalarni qisqa, lo‘nda tuzish, tasviriy vositalardan foydalanishga o‘rgatish.

Bolalarni shaxsiy tajribalari asosida, tarbiyachi taklif etgan hayotiy mavzular bo‘yicha mantiqiy rivojlanib boruvchi hikoya yoki ertak tuzish qobiliyatlarini rivojlantirish. “Lolaning maktabgacha ta’lim muassasasidagi birinchi kuni”, “Metroda”, “Sirkda”, “Bizning oila”, “Bizning jonli burchagimiz”, “Men qushlarni ovqatlantirdim”, “Men archa bayramini qanday o‘tkazdim”, “Dam olish kuni”, “Bizning maktabgacha ta’lim muassasasi”, “Gulzorimizdagi gullarni qanday etishtirdik”, “Tanlangan o‘yinchoqlar bo‘yicha hikoya tuzish”, “Bog‘chamda yoqtirgan o‘yinlarim”, “Eng yaqin o‘rtog‘im”, “Dadamlarga qarashdim”, “Zo‘r multfilm ko‘rdim”, “Ko‘g‘irchoq teatriga bordik” va boshqalar.

Bolalarning qahramonlarning ruhiy kechinmalarini ta’sirchan bera bilishga o‘rgatish. “Qish”, “Birinchi qor”, “YAngi yil bayrami”, “Qorbobo”, “Eng yaxshi fasl”, “Men onamga yordamchi”, “Men dadamga yordamchi”, “Onamlarning bayrami”, “Men Navro‘z bayramini qanday o‘tkazdim?” kabilar.

Bolalarga mazmunli rasmlarda aks ettirilgan voqealarni izchil bayon qilishni, persanajlarning hatti-harakatlariga nisbatan o‘z munosabatlarini bildirish, hikoyani mantiqli tugalashni, topishmoqlar o‘ylab topishni o‘rgatish.

Suratlar bo‘yicha so‘zlab, hikoya qilishda, bolalarga suratda tasvirlangan voqealarga munosabat bildirib, mustaqil hikoya tuzishga o‘rgatiladi. Jumlani grammatik jihatdan to‘g‘ri tuzishlariga, tovushlarni aniq talaffuz etishlariga e’tibor beriladi. SHu bilan birga rasmda aks ettirilgan mazmunli voqeaga qarab, ilgari nima bo‘lganini va keyin nima bo‘lishi mumkinligi haqida fikr yuritishga undash mumkin. Tabiat manzaralari aks ettirilgan suratga qarab tasviriy hikoya tuzishga o‘rgatish. SHu bilan birga tarbiyachi bolalarga o‘zlari tuzgan hikoyalaridagi persanajlarga qisqacha ta’rif berishlariga, ularning xatti-harakatlariga o‘z munosabatlarini bildirib o‘tishlariga ham diqqatini qaratish va o‘rgatib borish lozim. Mustaqil tanlangan mavzu bo‘yicha hikoya aytilayotganda voqealarning izchilligi,

tugal mantiqqa ega bo'lishi, tasviriy ifoda vositalaridan o'rinli foydalanishlariga ahamiyat berish. Bolalarni taqqoslash usulidan foydalanib topishmoqlar o'ylab topishga o'rgatish.

Unli va undosh tovushlar haqida tushunchalarni mustahkamlash.

6-7 yoshda nutq, o'qish va savodga tayyorgarlik

Tovush madaniyatini shakllantirish. Ona tilidagi barcha tovushlarni to'g'ri talaffuz etish malakalarini mustahkamlash Fonetik idrokni o'stirishda davom etish. Bolalarga *s-z, p-f, t-d, p-b, l-r, u-o', x-h, k-g* tovush guruhlarini to'g'ri talaffuz etish va ularni farqlashni, ovoz sifatlarini (baland, o'rtacha, past, yo'g'on, ingichka, juda ingichka), nutq sur'atini (tez, o'rtacha, sekin) tarbiyalash, so'zda tovush o'rnini belgilashga o'rgatishni davom etish.

Bolalarga bir bo'g'inli so'zlardan va bo'g'indan tovushni ajratib olishga, bo'g'inlarning tovushlardan tuzilganligi, nutqning eng kichik qismi tovush ekanini, uning xususiyatlari, tovushlarning turi, tovushni nusxada belgilash haqida ma'lumot berish. Tovushlarning to'g'ri talaffuzi ustida ishlash.

So'zdan tovushni ajratish. Tovush so'z yoki bo'g'inlardan ajratilishi haqida tushuncha berish.

Tovushga xos xususiyatlarni (Tovushlarni talaffuz qilish, ya'ni aytish va eshitish) tushuntirish.

Unli va undosh tovush haqida tushuncha berish. Unli va undosh tovushlarning talaffuzini bolalarga mashq qildirish.

Lug'at ishi. Bolalarning atrof-olamdagi hodisalar haqidagi bilimlarini aniqlash, mustahkamlash va kengaytirish asosida ularning nutqini boyitish va faolligini oshirishda davom etish. Bolalar lug'atini Vatan, Vatanimiz ramzlari: bayroq, gerb, madhiya, Vatan himoyachilari, shahar, qishloq, mahalla va ko'chalar, yodgorliklar, maydonlar, bayramlar haqida so'zlar bilan kengaytirish, kasb-hunarga oid (uchuvchi, fazogir, shifokor, misgar, ganchkor, o'ymakor, naqqosh, muhandis, paxtakor, g'allakor, chorvador, o'qituvchi, tarbiyachi), qurilish va qishloq xo'jaligida foydalaniladigan mashinalar, transport va aloqa vositalari haqidagi bilimlarini kengaytirish, bolalarning lug'atini ularning tevarak olamdagi voqelik bilan bevosita tanishishlari

asosida, bilish faoliyatlari jarayonida: kuzatishlar, koʻzdan kechirish, surat asosida olib boriladigan suhbatlar, sayohatlar va hokozolar vaqtida boyitib borish. Yangi oʻzlashtirgan soʻzlardagi tovushlarni toʻgʻri talaffuz etilishiga eʼtibor berish.

Narsalarning oʻziga xos muhim belgilari va rangi (yorqin, ochiq, odmi, pishiq, puxta va shu kabilar), odamlarning oʻz mehnatiga nisbatan munosabatini ifodalovchi nom va soʻzlarni kiritish.

Xalq maqollari, matallari va topishmoklarini tushuntirishni davom ettirish (“Qushni asragan, odamni asragan bilan barobar”, “YAxshidan rahmat, yomondan laʼnat”, “Bugungi ishni ertaga qoʻyma”, “Kuch-birlikda”, “Bulbul chamanni, odam Vatanni sevar”, “Birlashgan oʻzar, birlashmagan toʻzar” va boshqalar). Qarama-qarshi maʼnoli (antonim) soʻzlarni (uzun-qiska, kecha-kunduz, kuchli-kuchsiz, past-baland maʼnoli bir xil, ammo aytilishi xilma-xil boʻlgan soʻzlar (sinonim)ni (xursand, shod, quvnoq, bahor, koʻklam, navroʻz, koʻrkam, chiroyli, goʻzal va boshqalar), aytilishi bir xil, ammo maʼnolari xilma-xil boʻlgan soʻzlar (omonim)ni (oʻt-maysa, oʻt-ariqdan oʻtish, oʻt-olov va boshqalar) tushunib, oʻz oʻrnida toʻgʻri koʻllash malakalarini mustahkamlashda davom etish.

Lugʻatni faollashtirish. Bolalarga narsalarning nomlarini toʻgʻri aytishga oʻrgatish, bu narsalarni bir-biri bilan solishtirib, ayrim farqlarini tushunish va shu orqali ularning lugʻat boyligini oshirishda davom etish. Masalan, buyumlarning xossalari va holatini ifodalovchi sifatlovchi soʻzlar (masalan shisha idish, yupka, tiniq, moʻrt, tez sinadigan) nimadan qilinganligi, shakli, rangi, sifati, oʻlchovi, xossalari, vazifalarini anglatuvchi soʻzlarni oʻrgatishda davom etish.

Jins va turni bildiruvchi tushunchalarni bolalar qay darajada tushunishlari va qoʻllashlarini aniqlash. Umumlashtirilgan soʻzlarni toʻgʻri tushunishlariga, ulardan oʻz nutqlarida foydalanishlariga eʼtibor berish.

Buyumlarning qaysi jismdan yasalganini bildiruvchi soʻzlar (chinni loy, metall, plastmassa, gazlama va boshqalar)ni oʻzlashtirishlari, bu oʻzlashtirishning davom etishiga ahamiyat berish.

Bolalarda ona tiliga nisbatan muhabbat, to‘g‘ri gapirishga o‘rganish istagini tarbiyalash va mustahkamlash.

Nutqning grammatik tuzilishini shakllantirish. Bolalarda o‘z nutqi va boshqalar nutqiga nisbatan tanqidiy munosabatni tarbiyalash, ularni to‘g‘ri gapirishga o‘rgatish, gapirganda so‘zlarni bir-biriga bog‘lab, jumlar tuzish malakasini mustahkamlash. Ot, sifat, fe‘llarning murakkab grammatik shakllaridan foydalanishni mashq qildirish. Jonivorlar, narsalar, idish- tovoqlarning, kasblar bo‘yicha shaxslarning nomlarini topib aytishga o‘rgatish.

O‘z nutqida uyushiq bo‘lakli, sodda, yoyiq va qo‘shma gaplarning turli xillaridan foydalanish malakasini mustahkamlash, (bog‘langan qo‘shma gap, ergashgan qo‘shma gap. Masalan: Lola keldi va biz o‘ynadik. YOmg‘ir yog‘di, shuning uchun biz sayohatga bora olmadik. Bunda ko‘makchi va bog‘lovchi so‘zlardan foydalanishga o‘rgatish). Bolalarni ravishdan foydalanishga o‘rgatish (tez yurdi, sekin gapirdi); so‘z yasash malakalarini mustahkamlash (O‘qit-o‘qituvchi, baliq-baliqchi, baliqlar va boshqalar).

Bir fikrni turli vositalar bilan bayon qilishga o‘rgatish. Ra‘no kasal. Ra‘no betob. Ra‘noning boshi og‘riyapti. Ra‘noning mazasi qochib qoldi.

Bolalarni bir-birining o‘rnini, bosadigan gaplarni tuzishga o‘rgatish. Masalan: Biz sayohatga bormaymiz, chunki yomg‘ir yog‘a boshladi. YOmg‘ir yog‘a boshlagani uchun biz sayohatga bormaymiz.

Bolalarga to‘g‘ri grammatik shakllarni mashq qildirishda ko‘proq og‘zaki mashq va o‘yinlardan foydalanish. Masalan: “Ayt-chi qanday?” og‘zaki o‘yini: Qor qanday? Oppoq, muzday, sovuq, mayda”; Gul qanday? CHiroyli, qizil, xushbo‘y.

Bolalarni gapirganda sonni otga (stol ustida beshta nok va ettita olma bor), sifatni otga (chiroyli ko‘ylak, qizil olma), sifatni fe‘lga (qo‘shiqni yoqimli kuylaydi, rasmni chiroyli chizadi), to‘g‘ri bog‘lash; hayvonlarning bolalarini bildiruvchi otlarni ko‘plik sonida (toychoqlar, qo‘zichoqlar, buzoqchalar) to‘g‘ri ishlatish malakalarini takomillashtirish.

Bog‘lanishli nutqni shakllantirish. Bolalarni suhbat paytida faol ishtirok etishga undash, mavzu bo‘yicha berilgan savollarga tushunib, qisqa va to‘liq javob berish o‘rtoqlarining berayotgan javoblariga e‘tibor berish malakasini takomillashtirish.

Qayta hikoya qilishni o‘rgatayotganda bolalar diqqatini, ayniqsa, ertakning boshlanishi, takrorlanishi, xulosa qismiga, hikoyalardagi ikki qahramonning o‘zaro nutqi kabilarga qaratish.

BIRINCH BOB BO‘YICHA XULOSA

Bolalarning nutqni egallashlari ikki davrga ajratiladi. Birinchi davr bir yoshdan bir yarim yoshgacha davom etadi. Bu davrda bolalar yigirmata – o‘ttiztacha so‘zlarni biladilar. Masalan: “oyi”, “aya”, “bobo”, “dada” kabi. Ana shu so‘zlar bilan bog‘liq bo‘lgan so‘zlarni ham biladilar. CHunonchi “ma”, “ol”, “ber” kabi so‘zlar. Bola odatda afrim so‘zlarni uzuk – yuluk, imo – ishora bilan bir amallab aytib beradi. Bunday nutqni “situativ nutq” deb ataladi. CHunki bunday chala – chulpa nutqning ma’nosini bolaga eng yaqin odamgina, ya’ni uning onassi yoki dadasigina tushuntirib bera oladi.

Bola nutqining taraqqiyotidagi bu davrning xarakterli belgisi shundan iboratki, bola aytib bera oladigan so‘zlar miqdori juda kam bo‘ladi. CHunki uning aktiv lug‘ati juda sekinlik bilan boyib boradi. Bola kishilar nutqini tushunish qobiliyatining o‘chishi yo‘lidan boradi. Bola o‘ziga qarata aytilgan so‘zlarni yaxshiroq tushunadigan bo‘ladi, ya’ni uning passiv lug‘ati boyib boradi, lekin gapira olmaydi, boshqalarning so‘zlarini kuo‘proq eshitadi va nutq materiallarini singdirib borib shu materiallardan keyinchalik o‘z nutqida foydalanadi. Madomiki, shunday ekan pedagog – tarbiyachining vazifasi bolalar idrok qiladigan nutq

materiallarining mumkin qadar boy rang – barang va to‘g‘ri bo‘lishga g‘amxo‘rlik qilishdir.

Nutqning o‘shidagi ikkinchi davr odatda bola bir yarim yoshga to‘lgandan keyin boshlanadi. Bu davr asosan aktiv lug‘atning tez o‘shishi bilan xarakterlanadi. Bola aytadigan so‘zlarning miqdori birdaniga ortib ketadi. Bolaning katta odamlar nutqiga taqlid qilishi yangi so‘zlarni bilib olishga juda muhim rol o‘ynaydi. SHuni aytish kerakki, bola dastlabki so‘zlarni ham taqlid qilib o‘rganadi.

Davlat talablari maktabgacha ta‘lim tizimida, shuningdek har bir oilada 7 yoshgacha bo‘lgan bolani tarbiyalash, rivojlantirish, maktabga samarali tayyorlash hamda unga ta‘lim berishda qo‘llanilishi majburiydir.

Davlat talablari asosida, bolaning bilim, ko‘nikma va malaka mezonlari hamda ularning o‘shish dinamikasi va rivojlanish holatlari aniqlanadi, bolalarning rivojlanganligi va yutuqlari baholab boriladi, bolaning individual rivojlanishi ta‘minlanadi, kadrlar tayyorlash sifati, ta‘lim mazmuniga nisbatan qo‘yiladigan talablar, maktabgacha yoshdagi bolalarning rivojlanish darajasi hamda ota-onalarning bola rivojlanishiga oid ko‘nikma va malakalari belgilanadi. Ta‘lim, fan va ishlab chiqarishning samarali integratsiyasini ta‘minlash, bolalarning rivojlanishi va ularni maktab ta‘limiga tayyorlashga oid bilim, malaka va ko‘nikmalarga ega bo‘lishlarida ota-onalarga ko‘maklashish, maktabgacha ta‘lim tizimi sifatini oshirish.

bilish jarayoni va atrof muhit to‘g‘risidagi bilimlarga ega bo‘lish.

Nutq, o‘qish va savodga tayyorgarlik yo‘nalishi

Mazkur yo‘nalishda rivojlanish jarayoni quyidagi bosqichlar orqali kechadi:

nutq — bunda bola so‘zlashuv tiliga zarur darajada ta‘sir lanadi, so‘zlarni tushuna boshlaydi va atrofdagilar bilan muloqotga kirishadi;

o‘qish va savodga tayyorgarlik — bunda bolada bosma materiallar, yozuv belgilari va harflarga bo‘lgan qiziqish rivojlanadi.

Nutq bosqichida bola:

- nutqni tinglashi va tushuna olishi;
- gapirishi va so‘zlasha olishi lozim.

O‘qish va savodga tayyorgarlik bosqichida bola:

bosma materiallar, harflar va belgilarga qiziqish bildiradi;
yozishga oid ko‘nikmalar hosil qiladi.

II.BOB: MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALAR NUTQINING RIVOJLANISHIDA O‘YINLARNING AHAMIYATI

2.1 MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALAR RIVOJLANISHIDA O‘YINLARNING O‘RNI

Go‘dakning bir yoshgacha davrdagi psixologik xususiyatlarini o‘rganish bo‘yicha qator tadqiqotlar mavjud. SHular orasida N.L.Figurin, M.P.Denisova, M.YU.Kistyakovskaya, A.Vallon, D.B.Elkonin, E.A.Arkin, S.Fayans, SH.Byuler, F.I.Fradkinalarning asarlari aloqida aqamiyatga molikdir. S.Fayans tajribasida go‘dakka chiroyli va jozibador o‘yinchoqlar 9 sm masofadan ko‘rsatilganda u butun vujudi bilan ularga intilgan, keyinchalik oraliq 60 sm bo‘lganida bolaning intilishi, qo‘l cho‘zishi, sustlashgan, cho‘zilishi, itiyorsiz qarakati mutlaqo so‘ngan. U o‘yinchoq bilan bir qatorda turgan katta kishiga qam ana shunday befarq qaragan. Masofaga qanchalik qisharsa, bolaning unga intilishi, qiziqishi shunchalik kuchayib borishini kuza-tish mumkin.

Tadqiqotchi A.V.YArmolenko yarim yoshlik go‘daklarda jozibali narsalarning o‘zaro qiyosiy tasnifini tadqiq qilgan. Muallif olgan ma‘lumotlarga qaraganda go‘dak beqisob jismlar orasida insonni (katta yoshli odamlarni) tobora

aniqroq, ravshanroq ajrata boshlagan. SHu bilan birga qarakatsiz ko'ruv qo'zqatuvchisiga diqqatni to'plash 26 sekunddan 37 sekundgacha qarakat qilmayotgan odamga bolaning tikilishi, 34 sekunddan 38 sekundgacha, xarakatdagi ko'ruv qo'zqatuvchisiga qarashi 41 sekunddan 78 sekundgacha, harakatdagi insonga e'tibor berishi 49 sekunddan 88 sekundgacha ortgan. Tajribada go'dakning xarakatlanayotgan odamga diqqatini to'plab turishi 4 marotaba ortgani aniqlangan. Go'dak jonsiz narsalarga qaraganda odamga diqqatini barqaror qaratishi uning kattalarga munosabati o'zgarganidan emas balki ular bilan aloqaga kirishganda sust retseptor o'rmini faolroqi egallaganidandir. Go'dakda fazoviy tassavurning boyishida jummalarning idrok qilishidagi farqlashning takomillashuvi muqim vosita xisoblanadi. qayot tajribasi ortib borishi mashqlar natijasida jismlarning alomatleri va belgilarni o'quvi paydo bo'ladi.

Olimaning fikricha 3- oydan 6 oylikkacha bolada katta yoshdagi odamlar bilan tanlab munosabatda bo'lishi vujudga keladi. Uch oylik go'dak begonalar orasidagi tuqqan onasini ajrata olsa, yarim yoshdan boshlab esa begonalar ichidagi qarindoshlarini qam farqlay boshlaydi. M.YU.Kistayakovskaya ma'lumotiga ko'ra, 5-6 oylikda u muomala qilayotgan notanish shaxsga bir oz tikiladi, keyin yo kulimsiraydi yoki undan yuzini o'giradi, xatto, qo'rqib yiqlab yuboradi. Bolada o'zini parvarish qilayotgan yaqin kishilariga boqlanib qolishi sodir bo'ladi. Ana shu sababli onasini yoki enagasini ko'rsa qiyqirib qarshilaydi, unga talpinadi, qo'l-oyoqini ixtiyorsiz tipirchilatadi. U yarim yoshga to'lganda atrofdagi yaqin kishilari, qarindosh-uruqlariga, xatto qo'ni -qo'shnilarga qam boqlanib (o'rganib) ko'nikib qoladi. Taxminan 8-9 oyligidan kattalar bilan dastlabki o'yin faoliyatini boshlaydi. O'yin faoliyatidagi tabassum, jonlanish, shodlik, tuyqulari avval faqat kattalar ishtirokida namayon bo'ladi, vaqt o'tishi bilan uyinning o'zi bolaga quvonch baqishlaydi. Go'dak bir yoshga yaqinlashgan sari kattalarning xatti-xarakatlarini izchil kuzatishdan tashqari unda asta-sekin ularning ko'mak berish ishtiyoqi tuqiladi. Natijada bola individual faoliyat turidan qamkorlikdagi faoliyatga qam o'ta boshlaydi. Ma'lum, qamkorlikdagi faoliyat muloqot ko'lamini kengaytirishga yordam beradi.

Bolaning umumpsixologik taraqqiyoti faqat o‘yin jarayonidagi (A.Leontev) amalga oshishini inobatga olib ularning o‘yinlarining mazmunan boyitishiga katta e’tibor qaratishimiz lozim.

Bog‘cha yoshidagi bolalarning suyuq va rollarga bo‘linib, o‘ynaladigan o‘yinlari deyarli q amma vaq t jamoa q olda amalga oshiriladi. Syujetli va rollarga bo‘linib o‘ynaladigan o‘yinlar bolalarning ko‘pgina psixik jarayonlari va shaxsiy psixologik sifatlarini rivojlan-tirishga yordam beradi. O‘yin sharoitining o‘ziyoq bolalar diq q atini atrofdagi narsa va q odisalarga faol yunaltiri shini talab q iladi. Bu esa, o‘yin faoliyati davomida bola-larni niq oyatda faollashtiradi, ya’ni ular kuzatuvqcqan, tez esda olib q oladigan, q ar bir narsani atroflicqa va cquq ur taq lil q iladigan bo‘ladilar.

Syujetli va rollarga bo‘linib, o‘ynaladigan o‘yinlar.O‘yin jarayonida bolalarning bir birlari bilan faol munosabatda bo‘lishlariga imkon yaratadi. Bu bolalar nutqining tez rivojlanishiga olib keladi. Ma’lumki, syujetli va rollarga bo‘linib o‘ynaladigan o‘yinlarning o‘z qonun - qoidalari mavjud. Bu qonun - qoidalarga rioya q ilishda bolalar o‘z iroda kuchlarini ishga soladilar. Binobarin, o‘yin faoliyati davomida bolalarning irodaviy sifatleri ham rivojlanadi. Turli yoshdagi boshqa bolalarining o‘yin faoliyatlari ularning barcha aks ettirish, ya’ni psixik jarayonlarini, aqliy imkoniyatlarini, shaxsiy psixologik sifatlarini, harakter xislatlarini tarkib toptirib, rivojlantiradi. SHu narsa xarakterliki, bog‘cha yoshidagi bolalarning turli - tuman o‘yin faoliyatlari sekin - astalik bilan ularni o‘q ish faoliyatiga tayyorlaydi.

Rolli o‘yin mazkur yosh davirdagi bolalarning eng muhim faoliyati bo‘lib, ular bunday o‘yinda go‘yo katta yoshdagi odamlarning barcha vazifali va ishlarni amalda bevosita bajaradilar.shu boisdan o‘yin voqealari ,oilaviy turmush hodisalari shaxslararo munosabatlarni umumlashtirgan holda aks ettirishga harakat qiladilar . Bolalar kattalarning turmush tarzi , his-tuyg‘u , o‘zaro muomala va mullaqatlarning xususiyatlarni o‘ziga va o‘zgalarga atrof muhitiga munosabatlarni yaqol voqelik tarzida ijro etishi uchun turli o‘yinchoqlardan, shuningdek, ularning vazifasini o‘tovchi narsalarda hamfoydalaniladi.Bolaning ongida uni

qurshab turgan voqeolik to'g'risidagi xilma xil o'yin faoliyatni takomillashtiradigan sharoitlarni tadqiq qilgan N.M .Aksarinaning ta'kidlashicha o'yin o'z- o'zidan vujudga kelmaydi buning uchun kamida uchta sharoit bo'lishi lozim bunga

- 1) taasurotlar tarkib topish.
- 2) har –xil ko'rinishdagi o'yinchoqla va tarbiyaviy ta'sir vositalarning muhayyoligi.
- 3) bolalarning kattalar bilan tez-tez muomala va muloqatga kirishuvi .Bunda kattalarning bolaga bevosita ta'sir ko'rsatish uslubi hal qiluvchi rol o'ynaydi.

D.B.Elkonin o'z tadqiqotida rolli o'yinning syujeti bilan bir qatorda ,uning mazmuni ham mavjud ekanini yozadi .Uning fikricha o'yinda bola kattalar faoliyatining asosiy jihatini aniqroq aks ettirishi o'yinni mazmunini A.P.Usovaning tadqiqotlarida ta'kitlanishicha , rolli o'yin ishtirokchilarni safi yosh ulg'ayishiga qarab jinsiy tofovutlariga binoan kengayib boradi.uch yoshli bolalar iiki uchtadan guruhga birlashib ,uch besh daqiqqa birga o'ynab oladilar 4-5 yoshli guruhi 2-3 tadan ishtirokchidan iborat bo'lib ularning hamkorligidagi faoliyati 40-50 daqiqa davom etadi o'yin davomida qatnashchilar soni ham ortib boradi:6-7 yoshli bolalarda roli o'yini guruh yoki jamoa bo'lib birga o'ynash istagi vujudga keladi avval rolar taqsimlanadi o'yining qoidalari va shartlari tushinriladi (o'yindavomida bolalar bir –birlarni harakatini qatitq nazorat qiladilar).

D.B.Elkonin uz tadjkotida rolli o'yinning syujeti bilan bir katorda, uning mazmuni xam mavjud ekanini yozadi. Uning fikricha, o'yinda bola kattalar faoliyatining asosiy jixatini anikrok aks ettirishi o'yinning mazmunini tashkil kiladi.

A.P.Usovaning tadqiqotlarida ta'kidlanishicha, rolli o'yin ishtirokchilarining safi yosh ulgayishiga karab, jinsiy tafovutlarga binoan kengayib boradi:

- a) uch yoshli bolalar 2-3 tadan guruxga birlashib, 3-5 dakika birga uynay oladilar;
- b) 4-5 yoshlilar guruxi 2-5 ishtirokchidan iborat bulib, ularning xamkorlikdagi

faoliyati 40-50 dakika davom etadi, o'yin davomida katnashchilar soni ortib xam boradi;

v) 6-7 yoshli bolalarda rolli o'yinni gurux yoki jamoa bulib birga uynash istagi vujudga keladi, natijada avval rollar taqsimlanadi, yyinning koidalari va shartlari tushuntiriladi (yyin davomida bolalar bir-6irlarining xarakatini katgik nazorat kiladilar)

D.B.Elkonin harakatli o'yinning qoidalari mazmuni o'zaro bog'liqligidan kelib chiqib ularni besh guruhga ajratadi: 1) harakatga taqlid qilish; 2) muayyan syujetni drammalashtirilgan o'yinlar; 3) syujeti oddiy o'yinlar; 4) syujetsiz qoidali o'yinlar; 5) aniq maqsadga qaratilgan mashqlardan iborat sport o'yinlari.

Bolani o'yinga undamagan omil uning katta yoshdagi odamlarning borliq to'g'risidagi va shaxslararo munosabati haqidagi tasavvuri va ularni o'z shaxsiy faoliyatida sinab ko'rish istagidir, shuningdek, jamoa bo'lib o'ynayotgan tengqurlari bilan bevosita muloqotga kirishish ishtiyoqidir. Bolalar psixologiyasi fanida to'plangan ma'lumotlar tahliliga asoslanib, mazkur yosh davri bo'yicha quyidagi xulosani chiqarish mumkin: 1) o'yin faoliyatida bola turli harakatlarni to'laligicha namoyish etishga, ularni bajarish usullarini ko'rsatishga ishtiyoqmand bo'ladi; 2) keyinchalik esa barcha xatti-harakatlarni umumlashtirib aks ettirishga urinadi.

Bola o'sib borgan sayin narsalar va o'yinchoqlarning nomini o'zgartirish, yangi nom bilan atash engillashadi. SHuningdek faqat yangi vaziyatda jismlar nomini o'zgartirish bilan kifoyalanib qolmay, ularni yangi nomga muvofiq qo'llash imkoniyati ham vujudga keladi. o'yin faoliyatida foydalaniladigan narsalarni yangicha nomlash qator muammoli vaziyatlarni vujudga keltiradi.

o'yin faoliyatida narsalar nomini o'zgartirish o'zining psixologik mlhiyati bilan murakkab holat hisoblanadi. Ayniqsa, so'z bilan predmetning o'zaro munosabatida ularga uzviy bog'liq harakatlar alohida ahamiyat kasb etadi.

YUqoridagi mulohazalar asosida aytish mumkinki, katta kishilar hayoti va faoliyatining o'rnini bosuvchi ashyolar ularning harakatini umumlashgan holda ifodalashning moddiy tayanchi hisoblanadi. SHunday ekan, o'yin faoliyatida bola

harakatining rivojlanishi o‘yin mazmuniga ko‘proq bog‘liqdir. Chunki bolaning xatti-harkati qanchalik ihcham va umumlashgan bo‘lsa, u kattalarning faoliyati mazmunini aks ettirishdan shunchalik yiroqlashadi. Binobarin, u odamlarning narsalarga va bir-biriga munosabatini amalda bajarishga o‘tadi va shuning uchun narsalar bilan harakat qilishda kattalarning ijtimoiy munosabatlarini to‘g‘ri ifodalashga intiladi.

Har qanday o‘yinning va o‘yin faoliyatining markazida bola katta kishilarning faoliyati va o‘zaro munosabatini, muomalasini o‘ziga xos tarzda aks ettirishi, takrorlashi imkoniyati turadi. Shunga ko‘ra o‘yin ijtimoiy ahamiyat kasb etib, bola insoniyat tomonidan asrlar davomida yarailgan qimmatli bilimlar, amaliy ko‘nikmalar, malakalar va odatlarni o‘rganishga imkon yaratadi, oqibatda uni shaxslararo muloqotning mohiyatiga olib kiradi.

SHunday qilib, psixolog adabiyotlar tahliliga tayanib maktabgacha yoshdagi bolalarning o‘ziga xos xususiyatlari qatoriga quyidagilarni kiritish mumkin:

- 1) bola odamlarning faoliyati, ularning predmetlarga munosabati va o‘zaro muomalasiga qiziqadi;
- 2) bolalar rolli o‘yinda atrofdagi voqelikning eng tashqi ifodali, jo‘shqin xis-tuyg‘uli jihatlarini aks ettiradilar;
- 3) rolli o‘yinda bola kattalar bilan bir xil sharoitda, yagona zaminda yashayotganini his etgan holda o‘z istagini amaliyotga tadbiq qiladi;
- 4) kattalar hayoti va faoliyatiga kirish bolaning tasavvuri timsollari tariqasida namoyon bo‘lsa ham, umuman uning chinakam shaxsiy hayotida o‘chmas iz qoldiradi.

Bola psixikasining taraqqiy etishda o‘yinning roli beqiyosdir. Biz bolaning psixik taraqqiyotini o‘yinsiz tasavvur qilishimiz qiyin. Chunki, o‘yin orqali bola faqat jismoniy tomondan emas, balki psixologik tomondan ham rivojlanadi. O‘yin orqali bola olamni, undagi narsa hodisalarni, ularga xos xususiyatlarni o‘rganibgina qolmay, balki nutq so‘zlashga, mustaqil fikrlashga xayol qilishga, ijod qilishga, muomala madaniyatiga o‘rganadi.

Ko'pchilik psixologlar hamda pedagoglar o'yinning psixologik masalalari bilan bevosita shug'ullanib, o'yinlarning bolani psixik kamol toptirishdagi ahamiyatiga alohida to'xtalib o'tganlar. Ma'lumki, o'yin bola uchun voqelikni aks ettirishdir. Bu voqelik bolani qurshab turgan voqelikdan ancha qiziqarlidir. o'yinning qiziqarliligi uni anglab etishning osonligidadir. Kattalar hayotida faoliyat, xizmat, yumush qanday ahamiyatga ega bo'lsa, bola hayotida o'yin ham xuddi shunday ahamiyat kab etishi mumkin.

Jahon psixologiyasi fanida to'plangan boy ma'lumotlarga asoslanib, quyidagicha mulohaza yuritish mumkin. Masalan, eng sodda psixik jarayondan eng murakkab psixik jarayongacha hammasining eng muhim jihatlarini shakllantirishda o'yinlar katta rol o'ynaydi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarda harakatning o'sishiga o'yinning ta'siri haqida gap borganda avvalo shuni aytish kerakki, birinchidan, o'yinni tashkil qilishning o'ziyoq mazkur yoshdagi bolaning harakatini o'stirish va takomillashtirish uchun eng qulay shart-sharoit yaratadi. Ikkinchidan, o'yinning bola harakatiga ta'sir etishining sababi va xususiyati shuki, harakatning murakkab ko'nikmalarini sub'ekt aynan o'yin paytida emas, balki bevosita mashg'ulot orqali o'zlashtiradi. Uchinchidan, o'yinning keyinchalik takomillashuvi barcha jarayonlar uchun eng qulay shart-sharoitlarni vujudga keltiradi. SHu boisdan o'yin faoliyati xatti-harakatni amalga oshirish vositasidan bolaning faolligini ta'minlovchi mutaqqil maqsadga aylanadi. Negaki, u (o'yin) sub'ekt (jonzot) ongining dastlabki ob'ekti darajasiga o'sib o'tadi. Maktabgacha yoshdagi bola muayyan xususiyatga ega bo'lgan rolni tanlaydi, shu bilan birga u yoki bu personajga xos qat'iy yurish-turishni ongli ravishda ijro etishga intiladi. SHunday ekan, o'yin mazkur bola uchun eng zarur faoliyatga aylana boradi va yangi shakldagi harakatlarni, takomillashtirish, ularni anglagan holda esga tushirish ehtimoli yaqqol voqelikka aylana boshlaydi. Mazkur harakatlarni egallash bolada jismoniy mashqlarni ongli ravishda bajarish imkoniyatini vujudga keltiradi (A.V.Zaporojets).

Bolaning o'yinlar shart-sharoitidan kelib chiquvchi ongil maqsadi harakatlarni bajarish kezida o'z ifodasini topadi va uning o'z oldiga qo'ygan maqsadi esda olib qolish va esga tushirish jarayonlariga aylanadi.

Bolaning laboratoriya sharoitiga nisbatan o'yinlarda ko'proq so'zlarni eslab qolish va esga tushirish imkoniyatiga ega bo'ladilar, bu esa ixtiyoriy xotira xususiyatini chuqurroq ochishga yordam beradi. Tajribada yig'ilgan ma'lumotlarni tahlil qilish quyidagicha xulosa chiqarish imkonini beradi: a) o'yinda bola tomonidan ma'lum rol tanlash va uni ijro etish jarayoni bir talay axborotlarni eslab qolishni talab qiladi; b) shu boisdan personajning nutq boyligini egallash, xatti-harakatini takrorlashdan iborat ongli maqsad bolada olinroq paydo bo'ladi va oson amalga oshadi.

O'yin faqat bilish jarayonlarini takomillashtirib qolmay, bolaning xulq-atvoriga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Maktabgacha yoshdagi bolalarda o'z xulqini boshqarish ko'nikmalarini tarkib toptirishga bog'liq psixologik muammoni o'rgangan Z.V.Manuylenkoning fikricha, biror maqsadga yo'naltirilgan mashg'ulotga nisbatan o'yinda xulq ko'nikmalarini oldindan va osonroq egallash mumkin. Ayniqsa, bu omil maktabgacha yoshdagi bolalarda yosh davrining xususiyati sifatida o'zining ifodasini topadi. Katta maktabgacha yoshdagi bolalarda o'z xulqini o'zi boshqarish ko'nikmasi o'yin faoliyatida ham, boshqa sharoitlarda qariyb baravarlashadi. Ba'zan ular ayrim vaziyatlarda, masalan, musobaqa paytida o'yindagiga qaraganda yuqoriroq ko'rsatkichga ham erishishlari ham mumkin. Yuqoridagi mulohazalar asosida umuman aytganda, o'yin va o'yin faoliyati bolada o'z xulqini boshqarish ko'nikmalarini shakllantirish uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

Bolaning aqliy o'sishi to'g'risida fikr yuritilganda, oldingi bobda qayd qilinganidek, shuni aytish ham kerakki, narsalarni yangi nom bilan atashda yoki yangicha nomlash holatidan kelib chiqib, sub'ekt o'yin paytida faol harakat qilishga urinadi. CHuniki u moddiy narsalarga asoslangan harakat rejasidan tasavvur qilinayotgan, fikr yuritilayotgan jismlar mohitini aks ettiruvchi harakat rejasiga o'tadi. Bola jismlarning moddiy shaklidan birdaniga hayoliy ko'rinishiga

o'tishida unga tayanch nuqtasi bo'lishi kerak, vaholanki shunday tayanch nuqtasi vazifasini o'tuvchi narsalarning aksariyatidan o'yinga bevosita ob'ekt sifatida foydalaniladi. o'yin faoliyatida mazkur jismlar qandaydir alomatlarni aks ettiruvchi sifatida emas, balki ana shu tayanch narsalar to'g'risida fikrlash uchun xizmat qiladi, shuningdek, tayanch nuqtasi harakatning yaqqol narsa bilan bog'liq jihatini aks ettiradi. YUqorida aytilganidek, narsa bilan o'yin harakatlarining takomillashuvi harakat shakli, xususiyati boshichi kabilarni qishartirish va umumlashtirish hisobiga amalga oshiriladi. o'yin harakatlarining qisharishi va umumlashuvi ularning aqliy ko'rinishdagi mantiqan izchil, yig'iq shaklga o'tishning asosini tashkil qiladi.

Psixolog J.Piaje o'yinda jismlarga yangi nom berish omiliga jiddiy e'tibor bilan qarab, bu ish ramziy ma'noli tafakkur shakllanishining tayanchi, degan xulosaga keladi. Lekin bu xulosa vaziyatni aks ettirishning birdan-bir to'g'ri yo'li ekanligini bildirmaydi. SHuning uchun narsaning nomini o'zgartirish bilan bolada tafakkur va aql-zakovat o'sishini kutish ham mantiqqa mutloqa ziddir. Aslida narsalarni qayta nomlash emas, balki o'yin harakatlarining xususiyatini o'zgartirish bolaning aqliy o'sishiga sezilarli ta'sir o'tkaza oladi. Darhaqiqat, o'yin faoliyatida bolalarda harakatning yangi ko'rinishi, ya'ni uning fikriy , aqliy jihati namoyon bo'ladi va shuning uchun o'yin harakatlarini shakllantirish jarayonida bolada fikrlash faoliyatining dastlabki ko'rinishi vujudga keladi. Bolaning aqliy kamol topishida yoki uning umumiy kamolotida o'yinning muhim ahamiyat kasb etishi xuddi mana shu dalil orqali o'z ifodasini topadi.

Bola o'yin faoliyatida maktab ta'limiga tayyorlanib boradi, shu boisdan, unda aqliy harakatlarning yaqqol shakllari tarkib topa boshlaydi. Lekin o'yin faoliyatida bolaning aqliy o'sishini chuqurroq izohlab berish hali etarli tajriba ma'lumotlari mavjud emas.

Rolli o'yin faqat alohida olingan psixik jarayon uchun ahamiyatli emas, bolada shaxsiy xususiyat va fazilatlarni shakllantirishda sham zarurdir. Binobarin, katta yoshdagi odamlar rolini tanlab, uni bajarish bolaning his-tuyg'usini qo'zg'atuvchilar bilan uzviy bog'liq holda namoyon bo'ladi. CHunki o'yin

davomida bolada har xil xohish va istaklar tug'ila boradi, bular boshqa narsalarning tashqi alomatlari, o'ziga rom etishi sababli hamda bolaning ixtiyoridan tashqari, tengdoshlarining ta'siri ostida tug'iladi.

Ma'lumki bolaning yoshi ulg'ayib, mustaqil harakat qilish imkoniyati oshgan sari uning atrofdagi narsa va hodisalar dunyosi ham kengayib boradi. Bolaning maktabgacha yoshdagi davrida, uning faoliyat doirasiga atrofidagi kuchi etadigan, qo'ldan keladigan narsalardan tashqari, kattalarning faoliyatlariga doir, yani ularning hali mutlaqo aqlari etmaydigan, jismoniy jihatdan kuchlari etmaydigan narsalar ham kiradi. Chunki ular turmush tajribalarining ozligi va binobarin, haddan tashqari qiziquvchanliklari tufayli atrofdagi hamma narsa va hodisalarni bilishga intilaveradilar.

Maktabgacha yoshdagi bolalar uchun mavxum nazariy faoliyatning, ya'ni nazariy yo'l bilan bilish faoliyatining bo'linishi mumkin emas. Bu yoshdagi bolalarning atrofdagi narsalarni bilish faoliyatlari faqat bevosita harakat shaklida bo'ladi. Maktabgacha yoshdagi bolalarning haddan tashqari faol (betinim, harakatchan) ekanliklarining sababi ham shundadir.

Maktabgacha yoshdagi bola atrofidagi narsalar dunyosini bilish jarayonida shu narsalar bilan bevosita amaliy munosabatda bo'lishga intiladi. Bu o'rinda shu narsa e'tiborliki, bola bilishga tashnaligidan atrofdagi o'zining kuchi, aqli etadigan narsalar bilangina emas, balki kattalar uchun mansub bo'lgan, o'zini kuchi ham, aqli ham etmaydigan narsalar bilan ham amaliy munosabatda bo'lishga, ya'ni bilib olishga intilaveradi. Buning natijasida bolaning xaddan tashqari tez ortib borayotgan turlari ehtiyojlari bilan ularning tor imkoniyatlari o'rtasida keskin qarama – qarshilik yuz beradi. Masalan bola avtomashinani, tramvayni o'zi xaydagisi, rostakam otga minib yurgisi, uchuvchi bo'lib samolyotda uchkisi, rostakam militsioner bo'lgisi keladi. Biroq, bola o'zidagi bunday ehtiyojlarni birortasini ham xaqiqiy yo'l bilan qondira olmaydi. Chunki bu yoshdagi bolada bunday kasblarga mansub bo'lgan murakkab ko'nikma va malaka yo'k, bo'lishi ham mumkin emas.

Rus pedagogi A.S. Makarenko “Bola o‘yinda qanday bo‘lsa, o‘sib ulg‘aygach ishda ham ko‘pincha, ko‘p jixatdan shunday bo‘ladi” –deb to‘g‘ri aytgan edi. A.M. Gorkiy “O‘yin bolalar yashayotgan va o‘zgartirishi ish lozim bo‘lgan dunyoni bilish yo‘lidir”-deb bejiz aytmagan.

O‘yin fakat bilish jarayonlarini takomillashtirib qolmay balki bolaning xulq-atvoriga xam ijobiy ta’sir kursatadi. Bogcha yoshidagi bolalarda uz xulkini boshqarish kunikmalarini tarkib toptirishga boglik psixologik muammoni urgangan Z.V.Manuylekoning fikricha, biror maksadra yu-naltirilgan mashgulotga nisbatan yyinda xulk kuknikmalarini oldinroq va osonroq egallash mumkin. Ayniksa, bu omil bogcha yoshi davrining xususiyati sifatida uzining yorkin ifodasini topadi. Katta maktabgacha yoshdagi bolalarda uz xulkini uzi boshqarish kunikmasi yyin faoliyatida xam, boshqa sharoitlarda xam qariyb baravarlashadi. Ba’zida ular ayrim vaziyatlarda, masalan, musobaqa paytida yyindagiga qaparanda yuqoriroq kursatkichga ham erishishlari mumkin. Yuqoridagi mulohazalar asosida umuman aytganda, yyin va yyin faoliyati bolada uz xulqini boshqarish ko`nikmalarini shakllantirish uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

Bolaning aqliy usishi haqida fikr yuritilganda, shuni ham aytib utish kerakki narsalarni yangi nom bilan atashda yoki yangicha nomlash xolatidan kelib chiqib, sub’ekt yyin paytida faol qapakat kilishga urinadi. CHunki u moddiy narsalarga asoslangan xarakat rejasidan tasavvur qilinayotgan. fikr yuritilayotgan jismlar moxiyatini aks ettiruvchi xarakat rejasiga utadi. Bola jismlarning moddiy shaklidan birdaniga xayoliy kyrinishga utishida unga tayanch nuqtasi bulishi kerak, voxolanki shunday tayanch nuqtasi vazifasini o`tovchi narsalarning aksariyatidan yyinda bevosita, ob’ekt sifatida foydalaniladi. O‘yin faoliyatida mazkur jismlar kandaydir alomatlarni aks ettiruvchi sifatida emas, balki ana shu tayanch narsalar tugrisida fikrlash uchun xizmat kiladi, shuningdek, tayanch nuqtasi xarakatning yakkol narsa bilan boglik jixatini aks ettiradi.YUKorida aytilganidek, narsa bilan yyin xarakatlarining takomillashuvi xarakat shakli xususiyati, boskichi kabilarni qishartirish va umumlashtirish xisobida amalra oshiriladi. O‘yin xarakatlarining kisharishi va umumlashuvi ularning akliy


kurinishidagi mantikan izchil yigiq shaklga utishning asosini tashkil qiladi.

Psixolog J.Piaje yyinda jismlarga yangi nom berish omiliga jiddiy e'tibor bilan qarab, bu ish ramziy ma'noli tafakkur shakllanishining tayanchi, degan xulosaga keladi. Lekin bu xulosa vaziyatni aks ettirishning birdan-bir tugri yuli ekanligini bildirmaydi. SHuning uchun narsaning nomini uzgartirish bilan bolada tafakkur va akl zakovat usishini kutish xam mantiqqa mutlaqo ziddir. Aslida narsalarni qayta nomlash emas, balki yyin xarakatlarining xususiyatini uzgartirish bolaning akliy usishiga sezilarli ta'sir utkaza oladi. Darxakiqat, o'yin faoliyatida bolalarda xarakatning yangi kurinishi, ya'ni uning fikriy, akliy jixati namoyon buladi va shuning uchun yyin xarakatlarini shakllantirish jarayonida bolada fikrlash faoliyatining dastlabki kurinishi vujudga keladi. Bolaning akliy kamol topishida yoki uning umumiy kamolotida yyinnin muxim axamiyat kasb etishi xuddi mana shu dalil orkali uz ifodasini topadi. Bola yyin faoliyatida maktab ta'limiga tayyorlanib boradi, shu boisdan, unda akliy xarakatlarning yakkol shakllari tarkib topa boshlaydi. Rolli yyin faqat aloxida olingan psixik jarayon uchun axamiyatli emas, balki bolada shaxs xususiyat va fazilatlarini shakllantirishda xam zarurdir. Binobarin, katta yoshdagi odamlar rolini tanlab, uni bajarish bolaning xissiy-tuygularini kuzgatuvchilar bilan uzviy boglik xolda namoyon buladi. CHunki yyin davomida bolada xar xil xoxish va istaklar tugila boradi, bular boshqa narsalarning tashki alomatlari uziga rom etishi sababli xamda bolaning ixtiyoridan tashqari, tengdoshlarining ta'siri ostida tugiladi.

Maktabgacha yoshdagi bolalar o'yin faoliyati bilan birga ta'limiy mashg'ulotlarda ham ishtirok etadilar. Maktabgacha tarbiya yoshi davridagi ta'limiy mashg'ulotning asosiy mazmuni bolani atrof hayotdagi narsa va hodisalarning asosiy xususiyatlari bilan tanishtirish, og'zaki nutqni lug'at boyligi, tovushlarni to'g'ri talaffuz qilish, grammatik tomondan to'g'ri so'zlashlikka o'rgatish, bog'lanishli nutqni shakllantirishdan iborat, elementar mavhum tushunchalarga ega bo'lish, jismoniy tarbiya, tasviriy san'at qirqib yopishtirish, rasm, loy yoki plastilindan turli buyumlar yasash, qurilishi

materiallar bilan ishlash, muzika va boshqa mazmundagi mashg'ulotlar bolani aqliy jihatdan maktab ta'limini egallashga tayyorlash imkonini beradi.

Maktabgacha pedagogikada uyin nazariyasi ijtimoiy faoliyat hisoblanib, mehnatning tarixiy rivojlanish jarayonida paydo buladi. O'yin doimo hayotni aks ettiradi. SHuning uchun uning mazmuni ijtimoiy vokelikda uzgarib turadi. O'yin – maksadga karatilgan uylangan jarayondir. O'yin jarayoni asosida ukuv faoliyati rivojlanadi. Bola yoshligida kancha kup uynasa, maktabda yaxshi ukishiga va keyinchalik mehnat faoliyatiga ijobiy ta'sir ko`rsatadi



O'yin - buyumli-predmetli va ijtimoiy vokelikda harakat kilish va uni anglashga yunaltirilgan jarayondir. U uzining kelib chikishi kura, yunalish va mazmuniga kura ijtimoiy vokelik hisoblanadi. O'yin, bu bola faoliyatining yorkin turi. Unda maksadning mavjudligi, sabablar, amalga oshirish vositalarining rejali harakatlari natijaning mavjudligi uning uziga xosligidir. Xususiyatlarning orasida sabablarning uziga xosligi asosiy hisoblanadi. O'yin jarayonida bolaning psixik bilish jarayoni, irodasi, hissiyoti, ehtiyoji va kizikishlari, ta'sirchanligi – uning butun shaxsiyati shakllanadi.

Bola uyinda amaliy ehtiyojlarga karam bulmaydi. Bunda u uzining bevosita ehtiyoj va kizikishlaridan kelib chikadi. Bolalarning uyinlari uzining rang – barangligi bilan ajralib turadi. O'yin uz mazmuni va tashkil etilishiga kura, bolalarga ta'sir ko'rsatish darajasi, buyumlarning turlari va kelib chikishiga kura ijodiy va qoidali uyinlarga bulinadi.

Ijodiy uyinlar bu bolalarning mustakil ijodiy, o`zlari o`ylab chiqqan uyin majmuidir. Bunda bolalar uz taassurotlari, borlik hayotdagi tushunchalari va unga bo`lgan uz munosabatlarini aks ettiradilar. Ijodiy uyinlar quyidagi turkumlarga bulinadi:

- ijodiy;
- dramalashtirilgan;
- qurilish;
- tabiat materiallari bilan o`ynaladigan o`yinlar.


Ijodiy o`yinlar va ularga rahbarlik. Ijodiy uyinlar boshqa tur uyinlardan quyidagi xususiyatlari bilan ajralib turadi:

1. O`yin mazmunining uziga xosligi.
2. Rollarning mavjudligi.
3. Xayoliy vaziyatning mavjudligi.

O`yin mazmunining uziga xosligi uning eng muhim xususiyatlaridan biridir. Pedagog va psixologlarning tadbikotlari shuni ko`rsatadiki, kattalarning ijtimoiy hayoti uzining rang-barang kurinishlari bilan ijodiy uyinlarning mazmuni bulib xizmat kilar ekan. Ular bolalar kattalar ijtimoiy hayotining namunasini oladigan faoliyat turi uyin ekanligini asoslab berdilar.

Ijodiy uyinlar ijodiylari va mazmunining rang-barangligi, ularni tavsiflash zaruratini keltirib chikaradi. Ijodiy uyin faoliyati tizimida asosiy komponent sifatida uz ichiga personajni, hayotiy vaziyatni, harakat va personajlar munosabatini oladi. Ijodiy uyinlarda xayoliy vaziyatning mavjud bulishi bolaning tafakkurini ustirib ijodiy va rollar uyin mazmunini takomillashtiradi. Ijodiy ijodiy uyinlarning uziga xos sabablari mavjuddir. Buning eng asosiy sababi – bolalarning kattalar bilan birgalikda ijtimoiy xayot kechirishga intilishidir. Bu sabablar bolaning yoshiga karab, uyin mazmuniga karab uzgarib boradi. Kichik yoshdagi bolalarda asosiy sabab buyumlar bilan bajariladigan kizikarli harakatlar bulsa, bola katta bulgan sari uyindagi kattalar harakatlarini va munosabatlarini kayta aks ettirish asosiy sabab bulib xizmat kiladi. SHunga ko`ra, ijodiy o`yinlarni mazmuniga ko`ra 3 guruhga bulish mumkin.

1. Maishiy uyinlar (oila, bolalar bog'chasi va boshqa voqelikni aks ettiradigan).
2. Mehnat mavzuidagi uyinlar (oila va kattalar mehnatida ishtirok etish, uzuziga xizmat va boshq.).
3. Ijtimoiy mavzudagi uyinlar.



Bolalar rollarni tanlab o'ynaydilar. Ijodiy o'lyinlarda xatti-harakatlarni, koidalarni egallash asosida, rolda mujassamlashtirilgan axlokiy koidalar ham uzlashtiriladi. O'yinda kishilar turmushiga, ishlariga, jamiyatdagi xulk-atvor me'yor va koidalariga ijobiy munosabat shakllantiriladi. Xuddi shu jarayonda uyin muomala madaniyatini shakllantirish vositasi sifatida ham yuzaga keladi. Akliy tarbiyaning asosiy vositalaridan biri bu ijodiy uyin

hisoblanib, unda bola atrof-muhitdagi vokea va hodisalarni aks ettirib, xayolan ularni kayta tiklaydi. O'yinning xayoliy vaziyati bolaning akliy faoliyatining rivojlanishiga doimo ta'sir etadi.

B.Elkonin ijodiy uyinni birgalikda uynaladigan uyinda tasvirlanayotgan vokealarga, harakatlarga, buyumlarga nisbatan uz nukta nazarini boshqalar nuqta nazari bilan jamlash masalasi shakllanishi natijasida yalpi tafakkur boskichiga utishga imkon beruvchi bilishga oid jarayon yuz berishini ta'kidlab utgan.

O'yinning san'atga yaqinligi ijodiy uyinlardan estetik tarbiyada foydalanish imkonini yaratadi. Bola uyinidagi ijodkorlik bilan bog'lik bulgan tuyg'ular estetik tuyg'ularga yaqin turadi. O'yinda bolaning katta harakat tajribasi shakllanadi. Turli harakatlarni rivojlantirish va takomillashtirish uchun qulay sharoit yaratiladi, bola rolga kiradi, uz roliga oid xatti-harakatlarni amalga oshirish uchun tasvirlayotgan rollarning uziga xos xususiyatlarini ongli ravishda ifodalaydi.

Ikki yoshdagi bolalar hayotida ijodiy o'yinchoqlar bilan juda oddiy o'yinlar o'tkaziladi. Bolalar bu uyinchoklarni kulda ushlab yuradilar, sikib kuradilar, erga tashlab kuradilar, uyinchoklarni g'ildiratadilar, uyinchokda nima tasvirlanganligiga e'tibor bermaydilar. Bu yoshda kundalik hayotda tevarak – atrofdagi katta kishilar va bolalar harakatini kuzatib borishni, bu harakatlarni uz uyinlarida aks ettirishni urgatish lozim: kug'irchokni ovkatlantirish, uykuga yotkizish va boshk.

Bu yoshda buyumli uyin bir necha boskichda amalga oshiriladi:

- 1- boskichida bolalar uyinchoklar bilan kattalar harakatlariga taklid kiladilar.
- 2 - boskichda uzlashtirgan harakatlarni mustakil bajara boshlaydilar, sungra bu harakatlarni boshqa buyumlarga ko'chiradilar.
- 3- bosqichda tasviriy uyin vujudga keladi, uning mazmunini shartli kurollar bilan bajariladigan harakatlar tashkil qiladi.

Jamoa uyinining paydo bulishi uning mavzui va mazmunini ham, tuzilishini ham tez rivojlantirish va uzlashtirish imkonini yaratadi. Bolalar uyinlari

mavzuining uzgarishida maishiy uyinlardan mehnat, ishlab chikarish ijodiyiga ega bulgan uyinlarga, sung turli ijtimoiy hayot vokea va hodisalari aks ettiriladigan uyinlarga utiladi. O'yinning mazmuni ham rivojlanadi.

Katta yoshli bolalar hayotida harakatlar katorida xilma - xil ijtimoiy munosabatlar, xatti-harakatlar ham aks eta boshlaydi. O'yinlar mavzui doirasining kengayishi, ular mazmunining teranlashuvi, uyin shakli va tuzilishining uzgarishiga olib keladi.

2.2 MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNI OG'ZAKI NUTQINI RIVOJLANTIRISHDA HARAKATLI O'YINLARDAN FOYDALANISH.

Og'zaki so'zli o'yinlari katta maktabgacha yoshdagi bolalar bilan o'tkaziladi. Ular bolaning eshita olish, zudlik bilan javob topa olish, uz fikrlarini tez va anik ifoda eta olishga o'rgatadi. Tadkikotchilarning fikricha, bunday uyinlar bolaning aqliy rivojlanishida katta ahamiyatga ega. Yuqorida ayatib utilgan uyin turlarida ijodiy maksad va uyin materiallarining mavjudligi muhim ahamiyat kasb etadi.

Qoidali-harakatli o'yinlar asosini bolaning jismoniy rivojlanishiga qaratilgan harakatlar tizimi egallaydi. Bunda asosan yurish, yugurish, sakrash, chirmashib chikish, uloktirish, emaklash kabi harakatlar uyin mazmunini belgilaydi. Qoidali-harakatli uyinlar kelib chikishiga kura: a) xalk milliy uyinlari; b) mualliflik uyin turlariga bulinadi.


Har ikkala uyin turida ham asosiy mezon uyin qoidasi bulib hisoblanadi. Harakatli uyinlar harakatlarning anikligi, ifodaliligi, bolalarda tezkorlik, epchillik, kurkmaslik, mardlik kabi olijanob fazilatlarni tarbiyalab boradi. Kupchilik harakatli uyinlar jamoa bulib uynashga mos bulib, bu jamoada uyushgan holatda harakat kilish kobiliyatini shakllantiradi. Qoidali harakatli uyinlarni utkazishda bolalarga rolni tug'ri taksimlash uyin jarayonini kuzatib borish, unga rahbarlik kilish, uz vaktida yaxshi harakatlarni rag'batlantirish uyin nufuzini oshiradi. O'yin jarayonida kuvnok kayfiyat, ijobiy his-tuyg'ular yuzaga keladi.

Kichik yoshdagi bolalar uchun uyin ijodiyi ochik xarakterga ega buladi.

Milliy harakatli o`yinlar.	Milliy xalq o`yinlari.
----------------------------	------------------------

Masalan, «To`pni quvla!», «To`pni ushlab ol!». Katta yoshdagi bolalar uchun uyin maksadi, koidasi va uyinni tashkil etish murakkablashadi. Qoidali-harakatli uyinlar avval jismoniy tarbiya mashg`ulotida urganiladi. Sungra boshqa jarayonlarda takroran uynatilishi lozim. «Uchinchi ming yillikning bolasi» dasturida turli yosh guruhlari bo`yicha o`tkaziladigan harakatli milliy o`yinlar turkumlari kiritilgan.

Milliy xalq o`yinlari ikki guruhga bulinadi:



Xalq milliy o`yinlarini maktabgacha ta`lim muassasalarida tashkil etishda quyidagi vazifalar amalga oshirilishi lozim:

- xalq milliy o`yinlarining turlari va ularni tashkil etish yo`llari, usullari hamda uslublarini ishlab chiqish;
- milliy o`yinlarni tashkil etishda ma`naviy kadriyatlar va urf-odatlarimizni kundalik hayot jarayoniga singdirib borish;
- maktabgacha yoshdagi bolalarni milliy istiklol ruhida tarbiyalashda xalk milliy o`yinlaridan maqsadli foydalanish;
- xalq ertaklari, xalq og`zaki ijodi durdonalaridan unumli foydalanish;
- bolalarning uynashlari uchun shart-sharoit (uyin uchun jihozlar, atributlar) yaratish;
- maktabgacha ta`lim muassasalari, oila va mahallalar o`rtasida milliy o`yinlar bo`yicha ko`rik tanlovlari va musobaqalar o`tkazish.

Milliy harakatli o`yinlar bolalarning yosh xususiyatlariga, o`yindagi harakatlar rivojiga qarab takomillashib boradi.

1-2 yoshli bolalar bilan o'ynaladigan o'yin turlari: «Barmoqqa-barmoq», «yoz-g'oz», «yoz tursin», «Bo'p-bo'p», «Toy-toy», «Poezd», «Achom-achom» o'yinlari, go'dak endi bir-ikki qadam tashlashni o'rganayotgan vaqtda gavdasini to'g'ri tutishga yordam beradigan o'yinlar hisoblanadi.

3-4 yoshli bolalar bilan uynaladigan uyin turlari: «Ot uyin», «Kesak qo'ydi», «Ko'z boylagich», «CHoriy chambar», «Avval akam», «Tayok irg'itish», «Qulok chuzish», «CHitti gul», «Xolam mehmonga keldi», «Uchdi-uchdi».

4-5 yoshli bolalar bilan uynaladigan uyin turlari: «CHir aylanma», «CHillak», «Tortishmachoq», «Lafta», «Dor uyin», «Kupkari», «Berkinmachoq», «Jami», «CHertan devor gir-gir aylan».

Katta yoshdagi bolalar uchun uyinlar «CHavandozlar», «Doiraga tort», «Duppi yashirma», «Sapalak», «Besh tosh», «Ok terak-mi kuk terak». Bu uyinlar orqali bolalarda chaqqonlik, uz-uzini boshqara olish va uziga ishonch tarbiyalanadi, qat'iyatlilik ko'nikmalari shakllanadi, fikrlashga urgatilib boriladi, topqirlik qobiliyatlari rivojlanadi, hozirjavob bulishga tayyorlanib boriladi.

Xalq harakatli o'yinlarini tashkil etish va bolalarga o'rgatishda quyidagi qoidalarga rioya qilish zarur.	
Bolani ruhiy jihatdan uyinga tayyorlash.	O'yin jarayonida bolalarning jismoniy tayyorgarligi va yosh xususiyatlariga e'tibor berish.
Har bir uyinning pedagogik tomonlarini nazardan kochirmaslik.	O'yinlarni ijtimoiy-foydali mehnat bilan bog'lagan holda hayotga tatbik etish
O'yin davomida o'zaro munosabatlarni yanada mustahkamlash, bolalarning og'zaki nutqini o'stirish.	Jamoa bulib birgalikda harakat kilish, jamoa manfaatiga hurmat va e'tiborli bulish.

Milliy harakatli o'yinlarning sport ko'rinishidagi turlaridan «Kurash», «CHavandozlar» bolalarda kuchli va chaqqon, halol harakat qilish malakalarini

orttiradi. O‘zbek xalkining ermak va ovutmachok o‘yinlaridan asosan bolaning ilk yosh davridan boshlab shug‘ullanib boriladi. Bu o‘yinlar asosan kattalarning bevosita rahbarligida harakat va so‘zlarning uyg‘unlashuvi bilan uynatiladi. Masalan, «Barmoklar», «Sichqon-sichqon» uyinlari orqali bolalarda xushchakchaklik kayfiyatlari hosil kilinib tasavvurlari usib boradi. Xalkimizda «Bolaning ilonni changallaydigan davri» degan ibora bor. Bu xikmat bola xali kurkish hissini bilmaydigan davrida, ya’ni yaxshi-yomonni ajrata olmaydigan vaqtida qo‘llaniladi. Xuddi shu davrda «Sichqon-sichqon» uyini qo‘l keladi.

Ilk yoshdagi bolalar dastrumoldan yasalgan «sichqon»ning harakatlanishidan qattiq zavqlanib, qiyqirib yayraydilar. «Sichqon»ni harakatlantiruvchi katta odam uning juda chaqqonligini namoyish etishi kerak. Bu ovutmachok go‘dakka sichqon shakli va uning juda yugurdakligi tug‘risida tasavvur hosil qilishga ko‘maklashadi.

IKKIINCHI BOB BO‘YICHA XULOSA

Bola psixikasining taraqqiy etishda o‘yinning roli beqiyosdir. Biz bolaning psixik taraqqiyotini o‘yinsiz tasavvur qilishimiz qiyin. Chunki, o‘yin orqali bola faqat jismoniy tomondan emas, balki psixologik tomondan ham rivojlanadi. O‘yin orqali bola olamni, undagi narsa hodisalarni, ularga xos xususiyatlarni o‘rganibgina qolmay, balki nutq so‘zlashga, mustaqil fikrlashga xayol qilishga, ijod qilishga, muomala madaniyatiga o‘rganadi.

Ko‘pchilik psixologlar hamda pedagoglar o‘yinning psixologik masalalari bilan bevosita shug‘ullanib, o‘yinlarning bolani psixik kamol toptirishdagi ahamiyatiga alohida to‘xtalib o‘tganlar. Ma’lumki, o‘yin bola uchun voqelikni aks ettirishdir. Bu voqelik bolani qurshab turgan voqelikdan ancha qiziqarlidir. o‘ymning qiziqarliligi uni anglab etishning osonligidadir. Kattalar hayotida faoliyat, xizmat, yumush qanday ahamiyatga ega bo‘lsa, bola hayotida o‘yin ham xuddi shunday ahamiyat kab etishi mumkin.

O‘yin faqat bilish jarayonlarini takomillashtirib qolmay, bolaning xulq-atvoriga ham ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Maktabgacha yoshdagi bolalarda o‘z xulqini

boshqarish ko'nikmalarini tarkib toptirishga bog'liq psixologik muammoni o'rgangan Z.V.Manuylenkoning fikricha, biror maqsadga yo'naltirilgan mashg'ulotga nisbatan o'yinda xulq ko'nikmalarini oldindan va osonroq egallash mumkin. Ayniqsa, bu omil maktabgacha yoshdagi bolalarda yosh davrining xususiyati sifatida o'zining ifodasini topadi. Katta maktabgacha yoshdagi bolalarda o'z xulqini o'zi boshqarish ko'nikmasi o'yin faoliyatida ham, boshqa sharoitlarda qariyb baravarlashadi. Ba'zan ular ayrim vaziyatlarda, masalan, musobaqa paytida o'yindagiga qaraganda yuqoriroq ko'rsatkichga ham erishishlari ham mumkin. Yuqoridagi mulohazalar asosida umuman aytganda, o'yin va o'yin faoliyati bolada o'z xulqini boshqarish ko'nikmalarini shakllantirish uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

III.BOB : MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNI OG'ZAKI NUTQINI RIVOJLANTIRISHDA HARAKATLI O'YINLARDAN FOYDALANISHNING AMALIY SHART-SHAROITLARI

3.1 MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNI OG'ZAKI NUTQINI RIVOJLANTIRISHDA HARAKATLI O'YINLARDAN FOYDALANISHGA QARATILGAN TAJRIBA-SINOV ISHLARI

Tajriba sinov ishlari Termiz shahar 25- sonli MTM ning "Katta guruhida" olib borildi. 2016 -yilning noyabr oyidan 2017- yil may oylarigacha davom etgan tajriba ishimizda katta guruh bolalarida og'zaki nutqini rivojlantirishda turli vositalar va usullardan foydalanishni belgilab oldik. Katta guruh bolalarida og'zaki nutqini rivojlantirishda harakatli o'yinlardan foydalandik.

Tajriba sinov ishlarini quyidagicha rejalashtirdik.

1. Katta guruhni kuzatish, bolalarni o`rganish
2. Mashg`ulotlar rejasi bilan tanishish chiqish.
3. Bolalari og'zaki nutqini rivojlantiruvchi o`yinlar tanlash.

4. Mashg`ulotlar jadvali asosida, mashg`ulotlardan tashqari vaqtlarda tajriba sinov ishlarini olib borish.

Elementar matematika”, “Tasviriy faoliyat”, “Nutq o`stirish” mashg`ulotlarda bolalarning nutqini o`stiruvchi o`yinlar, topishmoqlar, tez aytishlar, sherlar,ertaklardan foydalandik.

Harakatli o`yinlardan “ Oq terakmi – ko`k terak” , “ Gozlar- g`ozlar”, “ Tapur – tupur qaldirg`och”, CHitti gu”,”Xolam mehmonga keld”,”Uchdi-uchdi”, “CHoriy chamber”, “Poezd”, “Achom-achom” o`yinlaridan foydalandik.

Ermak uyinlardan «Oymoma», «Boqqa kirsam maylimi», «Alla», «Aji-aji», «Boylandi», «CHapakka-xo-chapakka» orqali bolalarni muloqotga o`rgatib boriladi. Bu jarayonda bolalarning eshitish, kurish, sezish, his kila olish kabi sensor holatlari faollashadi. Bolalarning nutq faolligini ustirish maqsadida aytishma uyinlaridan keng foydalaniladi. Bunday uyinlarga «Boylandi», «Xolam keldi», «Mundi-mundi», «Bulbulim-bulbulim», «Ko`z boylog`ich», «Oq sholi, ko`k sholi», «Ada xormang» lar kiradi. Yana, xalqimizda azal-azaldan o`ynab kelinadigan so`z o`yinlaridan «Yarashtirgich»lar hali-hanuzgacha bolalar orasida «tinchlik – yarashuv» timsoli sifatida qo`llaniladi.

“Minora quramiz “o`yinini olib borish

Agar sizda turli o`lchamda kubiklar bo`lsa bolalar bilan quyidagi o`yinni o`ynang shunday qilingki bola o`zi qurayotgan minorasi mustahkam pishiq bo`lishi uchun paski g`shti yirik bo`lishi shartligini tushunisin minora balandlashgan sari g`ishtchalari ham maydalashib borishi lozimligini anglagan bola o`z minorasini aynan shunday quradi.Unga minora qurish jarayonida har safar g`ishtchalarning eng yirigini olishni o`rgating.Ularni taqqoslash uchun bir-biriga qo`yib ko`rish kerak.Minorani haqiqiy gishtcha-kubiklardan qurib bo`lgach, karton g`ishtlardan ham shu tartibda yasashga o`tish mumkun.Agar bolaga qo`g`irchoq berib,u minoragacha yoki zinapoyaga qanday qilib ko`tarila olishni ko`rsatsangiz,bolaning qiziqishini yanada ortirgan bo`lasiz.Shuningdek.bola shakllarini ketma-ket joylashtirish mohiyatini ham anglab oladi.

Maktabgacha ta'lim muassasasiga borib o'rta guruh bolalariga "Minora quramiz" o'yinini o'ynatdim bolalar bu o'yin orqali ularning qiziqishlari juda ham ortdi. Bu o'yinda 8-ta bola o'ynashdi va o'yinda ular bir-birlariga nisbatan tezlik bilan bajarishga harakat qildilar. Keyin ular qurib bo'lgan minoralarga qo'llariga o'yinchoqlar olib kim tez olib borish o'yinni ham o'ynashdi. Ular bu o'yin orqali ham mehnat faoliyatini o'rganishadi, ham xotirasini mustahkamlashadi va ziyraklik, tashabbuskorlik, tezkorlik hamda ilg'or harakatlilik hislatlarini o'zida mujassamlanadi.

"Ketgankim" o'yini

Bolalar davra qurib yoki yarim doira shaklida turadilar. Tarbiyachi o'yinda qatnashayotgan bolalardan biriga o'z yonida turgan 5-6ta bolani eslab qolishni, keyin xonadan chiqib turishni yoki burilib, ko'zni yumib turishni taklif qiladi. Bolalardan biri yashirinib oladi. Keyin tarbiyachi "Qani, top-chi, kimy o'q" deydi. Agar bola topsa, uning o'rniga boshqa bola tayinlanadi. Agar topolmasa, yana o'girilib turadi va yashiringan bola joyiga qaytib kelib turadi. Keyin topuvchi bola uning nomini aytishi lozim. O'yin 5-6 marta takrorlanadi.

"Epchil quyon" o'yini

Bu o'yinda 14-15 nafar bola qatnashadi. Maydonning o'rtasidan orasi 60-70sm bo'lgan ikkita chiziq chiziladi. Ikki bola o'z vazifasini o'taydi, qolgan bolalar quyon bo'lib, shu chiziqdan o'tishi kerak. Bo'ri chiziqchada turadi. Bo'rilarga tutilmay o'tgan quyon "epchilquyon" hisoblanadi.

"Narsani almashtirish" o'yini

Maydonchanning bir chetidan 5-6 ta bola turadi, qo'llarida o'yinchoq, ikki chetda ustida bittadan kubik bo'lgan stellar turadi. Tarbiyachining "Yuguring" degan ishorasi bilan bolalar stellar turgan tarafga yuguradilar va o'yinchoqni qo'yib, kubikni olib, o'z joylariga qaytib keladilar. Birinch i ketgan bola belgilanadi. So'ngra yana 5-6 ta bola o'yinni davom ettiradi.

"*Kim chaqqon*" didaktik o'yinidan foydajandik. O'yin uchun kerakli bo'lgan tarqatma materiallarni tayyorlab oldik. Yil fasllari tasbirlangan rasmlar, har bir faslga taaluqli bo'lgan predmetlarning rasmlari. Yil fasllari tasbirlangan rasmlar

doskaga ilinadi, to`rtta bola shu fasllarga tegishli predmetlarning rasmlarini o`z o`rniga yopishtirishlari kerak. To`g`ri joylashtirgan, o`yinni oxirigacha to`g`ri bajargan bola g`olib sanaldi va rag`batlantirildi, O`yin su tariqa davom etadi.

“Qaysi kun” o`yinini o`tkazdim.. Hammamiz doira shaklida turib olib, Men esa o`rtaga turib qo`limdagi koptokni xohlagan bolaga otib uchta gapdan birini aytdim, ya`ni “BULUT”, “QUYOSH”, “BILMADIM” deya so`zlardan birini koptokni ilib olgan bolaga aytaman. U “BULUT” deganimda “kecha”, QUYOSH” deganimda “bugun”, “BILMADIM” deganimda esa “ertaga” deya javob berishi kerak. O`yin paytda so`zlarni adashtirgan bolalar o`yindan chiqib ketadi. O`yin oxirida qolgan ishtirokchimizni “g`olib” deb atab uni yulduzcha bilan rag`batlantirdim.

3.2 TAJRIBA -SINOV ISHLSRI NATIJALARI .

Tarbiyachi – pedagog bolalar nutqining rivojlantirish bilan shug`ullanar ekan, maktabgacha yoshidagi bolalar ba`zi hollarda o`z nutq apparatlarini to`la idora eta olmasliklarini unutmaslik kerak. Bundan tashqari maktabgacha yoshidagi bolalarda murakkab nutq tovushlarini bir – biridan farq qilish qobiliyati xali to`la takomillashmagan bo`ladi. SHuning uchun maktabgacha yoshidagi ba`zi bolalar ayrim nutq tovushlarini buzib talaffuz etadilar. Odatda bunday bolalarni tili chuchuk bolalar deb ham yuritiladi. Tili chuchuklik nuqson emas. Buni asta – sekin tuzatish mumkin. Tili chuchuklikni tuzatishning eng muhim shartlaridan biri bola bilan to`la va to`g`ri talaffuz etib, ravon til bilan gaplashishdir. Tarbiyachi buni ota – onaga ham tushuntirishi kerak. CHunki, odatda ayrim ota – onalarga o`z bolalarini ortiq darajada erkalab, ular bilan bolalarcha, ya`ni bolaga o`xshab tilini chuchuklantirib gaplashadilar. Tili chuchuk bolalarning “tili shirin” deb uning talaffuziga moslashishga harakat qiladilar. Bunday qilish aslo yo`l qo`yib bo`lmaydigan xatodir. CHunki bolalar talaffuzidagi nuqson maktabga

borgunlaricha to'g'rilanmasa, bu narsa bolalar nutqining umumiy o'sishiga ta'sir qilmasdan qolmaydi. Tili chuchuk bolalar nutqidagi bu nuqsonni tugatmay maktabga chaqirilsa, boshqa bolalar ularga "soqov" deb laqab qo'yadilar. Natijada bunday laqabni xadeb eshita bermaslik uchun bunday bolalar kam gapiradigan, o'zlarini chetga olib yuradigan bo'lib qoladilar.

Tez aytishlar

- B- S Boqi qoqini Soqiga sotdimi, Soqi qoqini Boqiga sotdimi?
 T -Tilim-tilim tilla qovunning To'rt tilimi tilimni tildi
 T-S Tovuq sovuqda sovqotadimi? Sovuqda tovuq sovqotadimi?
 O - Oydinga oynadan oy mo'ralaydi. Keyin oydinga oyisi mo'ralaydi.
 Q - Qishda kishmish pishmash, Pishsa kishmish qishmash.
 T - Temur bilan Yo'lchi – temir yo'lchi, Temir yo'lchilarga aytib ko'r-chi!
 T - Tushlikda teshik tishim tushmay, Kemtik tishim tushibdi.
- D -Darsda Nasim rasm soldi, Nasim rasimga razm soldi.
 - E- Ergash Erkinga ergashdimi, Erkin Ergashga ergashdimi?
 - S- Salim sumkasiga patirni soldi, Salima sumkasidan atirni oldi.
 - T - Tiyanshan tog'ining tagida Tursunboy tog'aning traktori to'rta tolni tortolmay trillab turibdi.
 - G - Gani gildirakni gizzillatib gildiratdi.
 - O -Osmonning osti yermi, yerning usti osmonmi?
 - K - Kitoblar kitobxonlarga kerak, kitobxonlarga kitoblar kerak.
 - O -Ortiqali oshpazning oshini yeganlar yuzdan osharmish.
 - B - Bedanalar bedanazorda sayrayverib, Berdiboyni bezor qildi.
 - B - Bashar bilan Yashar yarim yashil sharda yashashar
- Tovush talaffuzidagi ayrim tovushlarni noto'g'ri talaffuz qilish bolalarda ko'p uchraydi. Maktabgacha yoshdagi bolalar uchun qiziqarli va nutqidagi kamchiliklarni tuzatishga yordam beradigan sherlarni tavsiya etamiz.

Qarang, dumim popukday,

Quloqlarim ding-diring.

Yo'qdir chiroyli menday, - D

Bo'lsa toping, hidiring.

Munchayam «kak-ku, kak-ku»,
 Oram bermayapsan-ku!..
 O'zing hech uxlamaysan, - K
 Uxlaganni qo'yadaysan!

Quysangchi, ey Toshbaqa,
 Qilaverma vaq-vaha.
 Eyapmanmi noningni, -B
 Kuydirasan joningni

Qanday yaxshi dam olish,
 Bo'lca edi par bolish,
 Uxlab olardim picha,
 Oftob nari ketguncha...

Biz Sabzijon, Sabzijon,
 Bizensiz bo'lmas palovjon. -C -SH
 SHo'rvaning ham jonimiz,
 Vitaminlar konimiz.

Oh, sabzilar, sabzilar,
 Menta yoqasiz sizlar. - S
 Keling, keling, bir tishlay,
 Qornim to'yg'izib ishlay. - K

KARAMLAR

Karamxondir otimiz,
 Vitamindan zotimiz.
 Pishdik to'lib dalalar,
 Terib oling, bolalar!

BODRINGLAR

Diriig-diring bodring,
 Qani saflarga kiring.
 Qanor to'lib, qop to'lib, - R
 Turaylik biz shay bo'lib.

KARAMLAR

Karam-karam karammiz,
 Earam-garam karammiz, - K
 YUring ombor tomonga,
 O'ynab omon-omonga.

Taka tum-tum, taka-tum,
 Baka bum-bum, baka-bum.
 Erim! haydar Tuyajon,
 Etib tuprog'in qum, qum. - T
 Topsam yana bir malay,
 Polvonlikda tuyaday.
 Tular edi omborlar
 Hosil unib bir talay.

Qo'shiq

Kunduz ishlar tulporvoy,
 Kechalari Tuyavoy.
 Ekiladi ekinlar,
 YAllo qiling Quyonvoy.
 Mo'may hosil unadi,
 Xirmon-xirmon bo'ladi,
 Katta ombor to'ladi,
 YAllo diling Quyonvoy.

Ota-onalarga bola nutqini rivojlantirish uchun qanday usul va vosilardan foydalanish haqida tushunchalar berib o'tdik. Bitiruv malakaviy ishimizda keltirilgan tez aytishlar, qiziqarli she'rlar, suyuje'tli , harakatli o'yinlarni, badiiy adabiyatlar hamda ertaklar bilan bolalarni tanishtirib borishni tavsiya etdik. Ota-onalarga uslubiy ko'rsatmalar ham taqdim etdik.

Bolalar nutqi shakllanayotgan davrda bola bilan shug'ullanish, nutqida qisman o'zgarishlar sezilganda oldini olish kerakligi haqida suhbatlar tashkil etdik.

Bolaning kattalar bilan muomala vositalari etarli darajada har xil bo'lishi mumkin. Bu eng avvalo o'yin orqali muloqotdir. U go'dakni jonlantiradi, quvnoq kayfiyat baxsh etadi. Bu kayfiyat katta odam tomonidan bola uyg'oq bo'lgan har qanday paytda hosil qilinishi mumkin.

Kattalar bilan hazil-huzul, ijobiy hissiyotlarga to'la bo'lgan muloqotda bola o'yinchoqlar bilan o'ynashga kirishadi. Bu mohiyatan, bolaning o'z tashabbusi bilan vujudga keladigan birinchi o'yin shaklidir. Ko'l harakatlari uning nutqini rivojlantirishda alohida ahamiyatga ega. SHuning uchun bola bilan mulokot

kilishda ko‘prok hikoyalar, iboralar, topishmoklar, aytishuvlardan foydalanish lozim. Bu tovush va nutk muhitini boyitadi, nutkni o‘zlashtirishga yordam beradi, talaffuzni, she’riy so‘z jarangdorligini his kilishni rivojlantiradi.

O‘yinlar bolalar nutqini ham o‘stiradi. Buning uchun katta odam dastlab bir bolaga yangi o‘yinni o‘rgatadi, keyin esa boshqa bolalarga shu o‘yinni o‘ynashni taklif qiladi. O‘rgatilgan bola o‘ziga notanish bo‘lgan bolalar bilan o‘yinni yo‘lga ko‘yish uchun o‘yin mazmuni va qoidalarini tushuntirib berishga majbur. Tarbiyachi esa unga yo‘naltiruvchi savollarni berish orkali yordam beradi

Kooperativ tUSDagi asosiy faoliyat turi – syujetli-rolli o‘yinlardir. Maktabgacha davrdagi katta yoshda bu o‘yinlar xayolparastlik o‘yinlariga aylanadi, chunki unda bolalar sarguzashtlar to‘qiydilar va ularni tasavvur etish bilan cheklanadilar. Faoliyat birgalikda hikoya kilish tusini oladi. Bu o‘yin va nutk rivojining juda yukori darajasidir. Bolalar ko‘pincha yo‘naltiruvchi savollar beruvchi, syujetning davomini aytib turuvchi, navbat tashkil kilishga yordam beruvchi katta odam ishtirokiga ehtiyoj sezadilar.

Maktabgacha davrdagi katta yoshda kattalar va tengdoshlar bilan mulokot kilish, so‘zli o‘yinlar va mashg‘ulotlar nutkni rivojlantirishning asosiy omillari hisoblanadilar.

Badiiy adabiyot bolalarni har tomonlama tarbiyalashning ta’sirchan vositasi bo‘lib, u ular nutkini rivojlantirish va boyitishga ulkan hissa qo‘shadi

Badiiy adabiyot bilan tanishuv nutqni har tomonlama rivojlantirishga, ya’ni: tovush madaniyatiga, grammatik tuzilishiga, lug‘atga, ravon nutkka ta’sir ko‘rsatadi.

UCHINCHI BOB BO‘YICHA XULOSA

Ilk yoshlardagi va maktabgacha yoshdagi bolalar tarbiyachisining bolalarga ularning o‘z ona tilini o‘rgata olish qobiliyati uning kasbiy tayyorgarligining muhim ko‘rsatkichi hisoblanadi. Bolaga tabiat ato qilgan barcha akliy kobilyatlar ona tilini o‘zlashtirish, ayniksa uni maktabgacha yoshda o‘rganib olish tufayli yuzaga chikadi hamda rivojlanadi.

Dastlabki yosh bosqichlarida bola nutsini rivojllantirishga e‘tibor berish shuning uchun ham muhimki, ushbu davrda bola miyasi jadal sur‘atda o‘sib boradi va uning vazifalari shakllanadi. Fiziologlarga ma‘lumki, markaziy asab tizimi vazifalarini aynan ularning tabiiy shakllanish davrida osongina mashk kildirish mumkin. Mashklarsiz ushbu vazifalarning rivojlanishi sekinlashadi va hatto umuman to‘xtab ham kolishi mumkin.

«Nutm uchun rivojlanishning bunday «hal kiluvchi» davri bola hayotining dastlabki uch yili hisoblanadi: bu muddatga kelib miya nutkiy sohalarining anatomik pishib etilishi asosan nihoyasiga etadi, bola ona tilining asosiy grammatik shakllarini o‘zlashtirib oladi, katta so‘z zahirasini shakllantiradi. Agarda dastlabki uch yilda kichkintoy nutkiga etarlicha e‘tibor berilmagan bo‘lsa,

bu holda kelgusida uning o‘rnini to‘ldirish uchun juda ko‘p mehnat kilishga to‘g‘ri keladi

Nutkni shakllantirishning muhim vositasi bo‘lgan badiiy adabiyot bola nutkini rivojlantirishda alohida o‘rin tutadi. Bolalarning ushbu san’at turini kabul kilishidagi o‘ziga xosliklar, bolalar bog‘chasida kitob yordamida amalga oshiriladigan ishlar mazmuni va metodikasi tegishli mavzuda ochib beriladi

Nutkni zamonaviy va to‘lakonli rivojlantirish uchun atrofdagi odamlar bilan o‘zaro hamkorlik bolaning mulokotga bo‘lgan ehtiyoji tarkibini boyitishi zarur. Bolalarning nutkni egallab olishlarining sababi ularning mulokot faoliyatlarining asosini ehtiyoj-motivatsiya tashkil kilishi, uning tarkibi o‘zgarganligidadir.

Verbal bosqichda bolada sust nutk shakllanadi. Ushbu boskichga bo‘lgan davrning asosiy ahamiyati shundan iboratki, uning ichida navbatdagi boskich – faol nutq paydo bo‘lishi boskichiga o‘tish uchun zarur bo‘lgan sharoit vujudga keladi.

Nutqiy mulokotning asosiy shakli dialog hisoblanadi. Nutkning vaziyatga asoslanganligi unga xos va mosdir. Bolalardan «to‘lik javob» olishga intilmaslik darkor, bu mulokot mantig‘iga ziddir. Kachonki bola kundalik turmushda o‘zini kiziktirgan mavzu yuzasidan o‘z tashabbusi bilan fikr bildirsa - tarkiban rasmiylashtirilgan yoyik gaplar o‘z-o‘zidan yuzaga keladi.

Besh yoshga kelib bola bevosita vaziyatdan chetga chikadigan mavzular bo‘yicha kattalar bilan mulokot kila oladi; nutk yordamida o‘z tengdoshlari bilan syujet-rolli mustakil o‘yinda hamkorlikni yo‘lga ko‘yishga kodir; tilni o‘rganishda faol va mustakil, bu tovushlar, kofiyalar, so‘z ijodkorligida, buyumlarning nomlari va ularning kandy maksadlarda ishlatilishi hakidagi savollarda ko‘rinadi; tovushlarni asosan to‘g‘ri talaffuz kiladi («R»ni L ga almashtirish holatlari, «III» harfli so‘zlarni talaffuz kilishda ayrim noanikliklar bo‘lishi mumkin).

Harakatlanadigan suratlar bilan ishlash metodikasi kitobning o‘z shakli bilan belgilanadi. Bolalarga yaxshi tanish bo‘lgan ertaklar va hikoyalarga ishlangan diafilmlar va diapozitivlar bolalarga monologik nutkni o‘rgatish uchun ayniksa,

juda kulaydir. Dastlab bolalar ularni ko‘p marta tomosha qiladilar pedagog yoki ota-ona tomonidan kadrlarda tasvirlangan lavhalarni hikoya kilib berishiga o‘tiladi. Ravon nutkni o‘kitish vazifalari quyidagilardan iborat: Bolalarning o‘z tashabbusiga ko‘ra yoki kattalarning taklifiga ko‘ra hikoya kilib berishga kizikishini ko‘llab-kuvvatlash; ertaklar, suratlar va o‘z shaxsiy tajribasiga oid taassurotlarning so‘zdagi mazmunini kiska hikoya, mulohaza, tavsiflar yordamida ifodalashni o‘rgatish.

XULOSA VA TAVSIYALAR

Bolalar maktabgacha yoshning oxirigacha borib tevarak atrofdagilarning nutqini tobora mukammalroq tushunadigan bo‘ladi. Katta yoshli kishilarning aytib bergan hikoyalarini kichik she‘rlarni, ashula va ertaklarni jon – dili bilan tinglaydilar. Bola o‘ziga berilgan savollarni tushunib, ularga javob beradi. Bolaning o‘zi ham kattalrga tobora ko‘proq savol beradigan bo‘ladi. SHunday qilib kattalarning ma‘qullashi, maqtashi, koyishi va taqiqlashiga to‘g‘ri munosabatda bo‘la boshlaydi.

Bir-biriga yaqin joyda o‘ynar ekan bolalar o‘yinda tengdoshining ham ishtirok etayotganidan va uning e‘tiborini jalb qilganidan quvonadilar, o‘zlarining o‘yinlarini sharhlaydilar. Natijada birgalikdagi ko‘ngilochar o‘yinlar hosil bo‘ladi, unda bolalar rollarni, o‘rin bosuvchi narsalarni (bu tayok ot bo‘ladi, mana bu uchburchak esa telefon bo‘ladi), o‘yin harakatlarini so‘z bilan ifodalaydilar, birgalikda harakat kilish, syujetni rivojlantirish hakida kelishib oladilar, unchalik murakkab bo‘lmagan suhbatni olib boradilar.

Mustaqil o‘yinlarda bolalarning kommunikativ ijodkorligi rivojlanadi. Bolalarning kattalar bilan birgalikda uyushtirilgan o‘yinlari – xalk o‘yinlari, syujetli-didaktik, teatrlashtirilgan, didaktik o‘yinlar muhim vazifani bajaradi.

Bola bilan nutkiy mulokotni yo‘lga ko‘yish va uning lug‘atini boyitish, o‘z harakatlarini so‘zlar bilan birgalikda amalga oshirish, kichkintoylarga har kuni bir nechta yangi so‘zlarni o‘rgatish, bolaning lug‘at boyligini oshirish otalarning oldida turgan asosiy vazifadir.

Maktabgacha davrdagi katta yoshda kattalar va tengdoshlar bilan muloqot qilish, so‘zli o‘yinlar va mashg‘ulotlar nutqni rivojlantirishning asosiy omillari hisoblanadilar.

Badiiy adabiyot bilan tanishuv nutqni har tomonlama rivojlantirishga, ya‘ni: tovush madaniyatiga, grammatik tuzilishiga, lug‘atga, ravon nutqqa ta‘sir ko‘rsatadi.

TAVSIYALAR

- 9 oydan boshlab bolada nutkiy taklid va ovoz ifodaliligi rivojlanadi, 12 oydan boshlab kichkintoyni kichik folklor janri asarlari elementlari asosida nutqiy muloqotga kirishishga undash darkor.

- Ilk yoshda (1-3) kattalar bola bilan nutqiy muloqotga kirishish va uning lug‘atini boyitish uchun barcha maishiy vaziyatlardan foydalanishlari lozim. Ayni paytda ular o‘z harakatlarini so‘zlash bilan birga amalga oshirishlari va bolani unchalik qiyin bo‘lmagan topshiriklarni bajarishga undashlari zarur.

- Kattalar bilan muloqot – maktabgacha yoshdagi kichik bolalar tilini, ularning nutq shakllari va funksiyalarini rivojlantirishning asosiy manbasi hisoblanadi.

- Bola nutqini rivojlantirish uchun o‘yinlar katta ahamiyatga egadir (syujetli-didaktik o‘yinlar, ertaklar va adabiy asarlar asosidagi o‘yinlar, o‘yin-sahnalashtirish, keng qamrovli umumiy rivojlantirish mazmuniga ega bo‘lgan hamda bolalar o‘z tengdoshlari va o‘yinning boshqa ishtirokchilari bilan muloqotga kirishish zaruratiga duchor qilingan sahnalashtirish o‘yinlari).

- Kattalar maktabgacha katta yoshda bolalar bilan so‘zli o‘yinlar, tez aytishlar, rolli o‘yinlar tashkillashtirishlari zarur.

- Badiiy adabiyot bilan tanishuv nutqni har tomonlama rivojlantirishga, ya'ni: tovush madaniyatiga, grammatik tuzilishiga, lug'atga, ravon nutqqa ta'sir ko'rsatadi. SHuning uchun ota-onalarimizga bolalarni har doim badiiy adabiyot bilan muntazam tanishtirib borishlarini tavsiya etamiz

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

- 1.Karimov I.A. Barkamol avlod - O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. - T.: "SHarq" nashriyot - matbaa konserni Bosh tasiriyati, 1997, - 62 b.
- 2.Karimov I.A. Jamiyatimiz mafkurasi xalqni xalq, millatni millat etsin. - T.: O'zbekiston, 1998, - 30 b.
- 3.Karimov I.A. O'zbekiston buyuk kelajak sari. - T.: O'zbekiston, 1998, - 686 b.
- 4.Karimov I.A. O'zbekiston XXI asrga intilmoqda. - T.: O'zbekiston, 1999, - 62 b.
- 5.Karimov I.A. Biz o'z kelajagimizni o'zimiz qurmoqdamiz. - T.: O'zbekiston, 1999, -51 b.
- 6.Karimov I.A. "Kamolot" yoshlarimizning chinakam suyanchi va tayanchi bo'lsin - O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov "Kamolot" ijtimoiy harakati tashabbus guruhi uchrashuvida so'zlangan nutqi. - T.: O'zbekiston, 2001, - 14.b.
- 7.Karimov I.A. Milliy istiqlol mafkurasi xalq e'tiqodi va buyuk kelajakka ishonchdir. - T.: O'zbekiston, 2000, - 40 b.
- 8.Karimov I.A. «YUksak ma'naviyat engilmas kuch». - T.: O'zbekiston, 2008, -142 b.
9. O'zbekiston Respublikasi «Ta'lim to'g'risida» qonuni. T., 1997.
10. O'zbekistonda «Kadrlar tayyorlashning Milliy dasturi». T., 1997.
11. "Bolajon" tanch dastur. T., 2010 yil
12. Maktabgacha yoshdagi bolalarga qo'yiladigan davlat talablari. T. 2012.
- 13.Azarov YU.P. «Oila pedagogikasi» Toshkent, «O'qituvchi», 1988 y.

91-95 b

14. Axatova D. «Abdurauf Fitratning oilaviy munosabatlarga oid qarashlari» «Xalq ta'limi» jurnali Toshkent, 2006 y. 4-son, 62-65 b.
15. Ahliddinov R. «O'zbek oilasi fazilatlari» «Xalq ta'limi» jurnali. Toshkent 1998 y. 1-son, 51-56 b.
16. Azarov Yu.P. Tarbiyaviy ish metodikasi. – T.: O'qituvchi, 1991. 67 b.
17. Babayeva D.R. «Nutq o'stirish metodikasi» T.: Fan va texnologiya 2009 y. 32-36 b.
18. Zunnunov A. «Pedagogika nazariyasi» T.: «Aloqasi» 2006 y. 4247-b
19. Inomova O. «Oila tarbiyasida milliy xususiyatlarni hisobga olish» «Xalq ta'limi» jurnali. Toshkent, 2004 y, 5-son, 56-58 b.
20. Kaykovus K. «Qobusnoma» Toshkent; 1992 y, 82 b.
21. Lutfullaev N. «Oilaning tarbiyaviy ahamiyati» «Xalq ta'limi» jurnali. Toshkent; 2005 y. 2 son. 44-48 b.
22. Maqsudov T. tahriri ostida «Oila etikasi va psixologiyasi» Toshkent; «O'qituvchi» 1991 y. 87-89 b
23. Munavvarov A.Q. «Pedagogika» Toshkent; «O'qituvchi» 1996 y. 73-76 .
24. Mahkamov U. «Axloq odob savboqlari» Toshkent; «Fan» 136 b.
25. Mavlonova R., To'raeva O., Holikberdiev K. «Pedagogika» Toshkent; «O'qituvchi» 2001 y. 64-65 b
26. Mahkamova M.Yu. Bo'lajak tarbiyachilarning pedagogik muloqot madaniyatini shakllantirish: Ped.fan.nomz. ... diss. avtoref. T.: 2002. – 22 b.
27. Mahkamov U.I. O'quvchilarning axloqiy madaniyatini shakllantirish muammolari. – T.: Fan, 1995. – 200 b.
28. Norbosheva.M «Bolalar psixologiyasi» 2003 yil 56- b
29. Otavaliyeva.U Bola tarbiyasida bog'cha va oila hamkorligi. Toshkent.,O'qituvchi. 1994 yil 14-18 b.
30. Sobolev A.L. «Maktab, oila va jamoatchilik» Toshkent; «O'qituvchi» nashriyoti 1978 y. 94-96 b
31. Sodiqova.S Maktabgacha pedagogika. Toshkent., 2013 yil.89-92 b.

32. Uzoqov X., G'oziev E., Tojiev A. «Oila etikasi va psixologiyasi» Toshkent; «O'qituvchi» 1992 y, 127 b.
33. Uzoqov X., G'oziev E., Oripova L. «Oila axloqi va odobi» Majmua. Toshkent; «O'qituvchi» 1995 y, 178 b.
34. Umarova M. «Oilani etnopsixologik o'rganishga yana bir uslubiy yondashish» «Xalq ta'limi» jurnali. Toshkent; 1998 y, 2-son, 56-57 b.
35. Xolmatova M. «Oilada sog'lom turmush tarzini shakllantirish – sog'lom avlod tarbiyalash omilidir» «Xalq ta'limi» jurnali. Toshkent; 1998 y, 1-son, 30-34 b.
36. Hosilova Z. «Oila – eng katta tarbiyachi» «Xalq ta'lim» jurnali. T; 2010 y, 3-son, 7-8 b.
37. Hoshimov K., Nishonova S., Inomova M., Hasanov R. «Pedagogika tarixi» «O'qituvchi» nashriyoti 1996 y. 48- 50 b
38. Xasanboyeva.O.U.va boshqalar. «Maktabgacha ta'lim pedagogikasi».T.: «Ilm ziyo» 2006 y. -53 b
39. Qayumova N.M. “Maktabgacha pedagogik” TDPU nashriyoti T.: 2006 y. 73-b
40. Qodirova.F Maktabgacha pedagogika. Toshkent., 2010 yil.
41. Qodirova. F.R. Qodirova R.M. Bolalar nutqini rivojlantirish nazariyasi va metodikasi T.: “ISTIQLOL”, 2006y.
42. Qodirova. F.R., Qodirova R.M. Bolalarni chet tilga o'rgatish nazariyasi va metodikasi. T.: “ Sano-standart” 2009y.
43. Qodirova R.M. Maktabgacha yoshdagi bolalarda dialogik nutqni rivojlantirishning ruhiy omillari. -Sariog'och. 1998.
44. Qodirova R.M. O'zbekiston bolalar bog'chalari va maktablarida bolalarga 5-6 yoshdan boshlab rus tilida dialogik nutqni o'rgatish. -T.: O'qituvchi. 1993.
45. Shodiyeva Q. S. “O`rta guruh bolalari nutqini o`stirish“ o`quv qo`llanma T.: “O`qituvchi” 1993 y.
46. G'oziev E. Psixologiya. Yosh davrlari psixologiyasi /Pedagogika universitetlarining talabalari uchun o'quv qo'llanma. – T.: O'qituvchi, 1994. 223 b.

47. Hoshimov K., Nishonova S. Pedagogika tarixi /Pedagogika oliy o'quv yurtlari va dorilfunun talabalari uchun darslik. – T.: Milliy kutubxona nashriyoti, 2005. – 320 b.

Elektron ta'lim resurslari

1. www.pedagog.uz
2. www.Ziyonet.uz
3. www.edu.Uz

ILOVALAR